

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK _____

Ergashev Sardor Kosimovich

Sirojiddin Sayyidning adabiy-estetik qarashlari

5A 111201 – o‘zbek tili va adabiyoti

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:
F.f.n. S.Mo‘minova**

Qarshi-2014

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida Sirojiddin Sayyidning o'rni	
1.1. Sirojiddin Sayyidning hayoti va ijodi	8
1.2. Sirojiddin Sayyid she'riyatining o'ziga xosligi.....	11
I bob bo'yicha xulosalar.....	27
II BOB. Sirojiddin Sayyid ijodida davr va adabiyot munosabatlari tadqiqi	
2.1. Sirojiddin Sayyidning adabiy jarayonga munosabati.....	30
2.2. So'z qadri, mas'uliyati, mutolaa masalalari.....	37
II bob bo'yicha xulosalar.....	40
III BOB. Sirojiddin Sayyid she'riyatining badiiyati	
3.1. Shoir she'rlarida poetik obrazlar.....	42
3.2. Shoir she'rlarida badiiy-tasviriyy vositalar.....	63
III bob bo'yicha xulosalar.....	81
Xulosalar	82
Adabiyotlar ro'yxati	89

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Millatning yashash tarzi, olamni badiiy idrok etish yo'sinida ulkan o'zgarishlar yasagan XX asr o'zbek adabiyotiga xos xususiyatlarni kuzatish, ulardan muayyan ilmiy xulosalar chiqarish mutaxassislardan ulkan mas'uliyat talab qiladi. Bu asrda dunyoning eng qadimiy xalqlaridan bo'lgan o'zbeklarning olam hodisalarini qabul qilish va unga yondoshish tarzi avvalgi o'nlab asrlardagiga nisbatan jiddiy o'zgardi va bu adabiyot xalqimizning ma'naviy hayotida, badiiy-estetik tafakkur taraqqiyotida alohida bosqich bo'lib qoldi. Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Avloniydan boshlab Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva, Usmon Azimgacha bir necha avlod ijodkorlari millat ma'naviy-intellektual hayoti rivojini belgilovchi badiiy barkamol asarlar yaratishdi. Ushbu sirada Sirojiddin Sayyidning ham alohida o'z o'rnini bor. Bu avlod namoyandalari yaratgan asarlarsiz millat ma'naviy-madaniy hayotini tasavvur qilish qiyin. Zero, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish har doim ham badiiy so'z san'atining zimmasida bo'lgan. Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi gaplarini eslash o'rinlidir: "Ma'naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman"¹. Shu ma'noda, Sirojiddin Sayyid badiiy merosini o'rganish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Sirojiddin Sayyidning "Ruhim xaritasi" (1985), "Salqin xarsanglar kaftida" (1987), "Sevgi mamlakati" (1989), "Mehr qolur,

¹ Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 2000. – B. 14.

muhabbat qolur”(”Kuydim”(1994), “Vatanni o’rganish”(1996), “Vatan abadiy” (2001), “Ko’ksimdagi zangorlarim (2005), “Qaldirg’ochlarga ber, ayvoningni (2006), “Dil fasli” (2007), “Uyingdagi beshiklar”, “So’z yo’li” (2008), “Yashasin yomg’irlar”(2007) majmuasidagi hayot, adabiyot, umr, tiriklik mazmuniga oid fikr-mulohazalari asos qilib olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Ishdan ko’zlangan asosiy maqsad Sirojiddin Sayyidning adabiyot, adabiy jarayon, badiiy ijod, badiiy so’z mas’uliyati haqidagi fikrlarini, she’riyatining poetik xususiyatlarini, uning badiiy san’atlardan foydalanish mahoratini, so’z qo’llashdagi zukkoligini, she’riyatining yetakchi mazmun mohiyatini ochib berish;

- Sirojiddin Sayyid lirikasining XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o’zbek she’riyati taraqqiyotida tutgan o’rni va ahamiyatini ko’rsatish;
- Sirojiddin Sayyid she’riyatida qo’llangan poetik timsollarni o’rganish;
- Shoir she’rlarida qo’llangan badiiy-tasviriy vositalarni o’rganish va tahlil qilish;
- Sirojiddin Sayyidning badiiy mahoratini o’rganish;
- Sirojiddin Sayyid ijodining XX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari o’zbek poeziyasi rivojlanish tendensiyalarini belgilab berishdagi salohiyatini o’rganishdan iboratdir.

Tadqiqot ishi maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutildi:

- Sirojiddin Sayyidning badiiy so’z, adabiy jarayon haqidagi fikrlarini o’rganish;
 - XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o’zbek she’riyatining ustuvor yo’nalishlarini aniqlash;
- Sirojiddin Sayyid she’riyatining mohiyatini tashkil etgan boqiy mavzu-masalalarni belgilash;
 - Shoirning lirik qahramoni fikrlash tabiatidagi betakror o’ziga xoslikni aniqlash orqali zamondosh inson obrazini ko’rsatib berish;
 - Shoir she’riyatining badiiy xususiyatlarini o’rganish;

– Sirojiddin Sayyid dunyo hikmatlarini teran his eta oladigan va shunga monand ifoda qila biladigan soʻz sanʼatkori ekanligini koʻrsatish;

- Sirojiddin Sayyid ijodini oʻzbek adabiyoti taraqqiyotiga qoʻshgan hissasini aniqlash.

Mavzu boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Sirojiddin Sayyid ijodining adabiyotshunosligimizda oʻrganilish holatini kuzatishdan oldin sheʼriyatimiz tadqiqotchilgining bugungi darajisini qayd etish lozim koʻrinadi. Oʻzbek adabiyotshunoslik ilmi sheʼriyat tadqiqotchiligi borasida jiddiy va salmoqli ishlarni ado etdi. Shoirlarning shaxsiyati, ongi-dunyoqarashi, badiiy-estetik izlanishlari adabiy jarayon bilan, badiiy asar tabiati va ichki strukturasidagi oʻzgarishlar bilan, badiiy komponentlarning zohir boʻlish jarayonlari bilan uygʻunlikda, uzviy aloqadorlikda tahlil va talqin etish tamoyillari chuqur ildiz otdi. Bu borada amalga oshirilgan doktorlik dissertatsiyalarining oʻzi alohida sahifalarni tashkil etadi.² Nomzodlik dissertatsiyalari ham sheʼriyat tadqiqotchiligi miqyosi naqadar kengayib borayotganligini koʻrsatadi. Keyingi yillar oʻzbek sheʼriy madaniyatida zohir boʻlayotgan anʼana va novatorlik, badiiy mahorat, badiiy tafakkur tabiati va ijodiy individualliklar, falsafiylik, grajdanlik, psixologik tahlil usullarining tobora kengayib borayotganligi, lirika janrlari va badiiy shakllar rang-barangligi, gʻazalchilik poetikasi, soʻz va poetik obraz singari qator nazariy masalalar oʻrganildi.

Sirojiddin Sayyid ijodi hozirgi kunda adabiyotshunos olimlarning diqqat markazida. Sirojiddin Sayyid ijodiy faoliyatiga bagʻishlangan ilmiy ishlar anchagina. Jumladan, Nurboy Abdulhakimning “Ruhim xaritasi”dan “Dil

² Каримов Н.Ф. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол.фанлари д-ри дисс... автореф. – Т., 1993. - 50 б.; Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳрамон талқини: Филол. фанлари д-ри дисс... автореф. – Т., 1994. - 46 б.; Норбоев Б.Ж. Ҳаётни поэтик талқин этиш таомиллари ва маҳорат муаммолари: Филол.фанлари д-ри дисс... автореф. – Т., 1996. - 50 б.; Бобоев Т. Олий ўқув юртларида ўзбек шеърини поэтикаси асосларини ўрганиш: Филол.фанлари д-ри дисс... автореф. – Т., 1998. - 54 б.; Жумабоева Ж. XX аср ўзбек шеъринида психологик тасвир маҳорати: Филол.фанлари д-ри дисс... автореф. – Т., 1999. - 48 б.; Ҳасанов Ш.А. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек дostonлари поэтикаси: Филол.фанлари д-ри дисс... автореф. – Т., 2004. - 46 б.

fasligacha” maqolasida shoir she’riyatining mavzu doirasi, shoirning mahorat qirralari tahlilga tortiladi³. D.Ulug’murodovning “Dostonga ko’chgan iztirob” maqolasida Sirojiddin Sayyidning “Nom” dostonidagi fikriy teranlik shoir shaxsiyati, estetik qarashlari bilan qiyosan tadqiq etiladi⁴.

Sirojiddin Sayyid asarlarining badiiyatini nazariy aspektda o’rganish, estetik ta’sir kuchini, ijtimoiy –falsafiy salohiyatini ko’rsatish zarurligidan dalolat beradi. Bizning mazkur izlanishimiz esa Sirojiddin Sayyidning adabiy-estetik qarashlarida ilgari surilgan ilmiy-nazariy fikrlarni, nuqtai nazarlarni o’rganish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ishga O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ma’naviy-madaniy meros, ilm-fan va milliy madaniyatni rivojlantirish, milliy o’zlikni anglash haqidagi fikrlari, o’zbek adabiyotshunosligida erishilgan yutuqlar metodologik asos qilib olindi.

Aristotel, Gegel, V.G.Belinskiy kabi mutafakkir olimlarning falsafa, adabiyot nazariyasi va estetikaga oid asarlari, xususan, Bedil, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Cho’lpon, G’afur G’ulom, Maqsud Shayxzoda singari allomalarning yuksak insonparvarlik g’oyalari hamda komil inson haqidagi qarashlari dissertatsiya ishining nazariy asosini tayin etadi. Shuningdek, badiiy so’z estetikasi, poetik tafakkur madaniyatining go’zallik hodisalarini yaratish salohiyatiga bag’ishlangan Izzat Sulton, H.Yoqubov, O.Sharafiddinov, S.Mamajonov, N.Karimov, B.Nazarov, U.Normatov, N.Rahimjonov, I.G’afurov, B.Akramov, I.To’lakov, N. Rahimjonov kabi o’zbek adabiyotshunos olimlarining ilmiy-nazariy mulohazalariga suyanildi. Ishda badiiy tahlil, qiyosiy-tipologik tadqiq usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyada tahlil ob’ektiga tortilgan adabiy material hamda bayon etilgan ilmiy-nazariy xulosalardan, umumlashtiruvchi fikrlardan XX asr o’zbek adabiyoti tarixini yaratishda, oliy o’quv yurtlarining filologiya fakulteti talabalari, o’rta maxsus

³ N. Abdulhakim.”Ruhim xaritasi”dan “Dil fasligacha”. S.Sayyid. So’z yo’li. « Sharq » mashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. T. : 2008. –B. 356.

⁴ D.Ulug’murodov. Dostonga ko’chgan iztirob. Badiiyat ufqlari. “Universitet” nshriyoti. T.: 2008. B.-51.

ta'lim tizimi hamda akademik litseylarning yuqori kurslar talabalari uchun tanlov va ixtisoslik mashg'ulotlari o'tishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqot materiallari va ilmiy kuzatishlar shoir ijodiga bag'ishlangan risola, qo'llanma hamda monografiyalar yaratishda, adabiy portretga qo'shimchalar kiritishda manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Quyidagilarni ishning ilmiy yangiligi sifatida ko'rsatish mumkin:

- Sirojiddin Sayyidning hayoti va ijodi haqidagi ma'lumotlar batafsil o'rganildi;
- Sirojiddin Sayyid she'riyatining o'ziga xos jihatlari aniqlandi;
- Shoir lirikasining janr tabiatini, yetakchi taraqqiyot tamoyillarini, badiiy xususiyatlarini, boqiy mavzu-masalalar yo'nalishi tahlil va tadqiq etildi;
- Sirojiddin Sayyidning adabiyot, badiiy so'z, adabiy jarayon haqidagi fikrlari o'rganildi;
- Shoir she'riyati yaxlit badiiy-estetik hodisa sifatida o'rganildi;

– Sirojiddin Sayyid ijodi va adabiy-nazariy qarashlari XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlari o'zbek badiiy tafakkuri takomilidagi o'rni va ahamiyati belgilanishi bilan ham xarakterlanadi. Shoir she'rlarida bo'y ko'rsatgan lirik qahramonning o'ziga xos betakror fikrlash, fikr-muhokamalari tabiatini o'rganish orqali zamondosh inson obrazining ko'rkam qiyofasi gavdalantirildi.

Natijalarning joriy va e'lon qilinishi. Mavzu 2013-yilning dekabr oyida O'zbek adabiyoti kafedrası yig'ilishida tasdiqlanib universitet ilmiy kengashiga tavsiya qilingan. Universitet ilmiy kengashining _____ majlisida tasdiqlangan. Mavzu bo'yicha 3 ta maqola e'lon qilingan (.....).

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishning umumiy tavsifini aks ettirgan kirish, uch asosiy bob, olti fasl, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, 93 betni tashkil qiladi.

I BOB. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida Sirojiddin Sayyidning o'rni

1.1. Sirojiddin Sayyidning hayoti va ijodi

She'riy idrok, she'riy nafasat, poetik tuyg'u bolaligidan xalqimizning vujud-vujudiga singib ketgan. Shu boisdan ham qadim Sharqda shoir bo'lish nihoyatda sharaflari va nihoyatda mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Bu xalq badiiy so'z dahosi Alisher Navoiy ijodidan bahramand. XX asr oxiri va XXI asr boshlari o'zbek poeziyasi, uning mashhur namoyandalari ijodi ana shu jasorat dalilidir.

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid 1958- yilda Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida joylashgan Kundajuvozi qishlog'ida ziyoli oilada tug'ilgan. Shu kunga qadar uning "Ruhim xaritasi", "Saqlin xarsanglar kaftida", "Sevgi mamlakati", "Asragil", "Mehr qolur, muhabbat qolur", "Kuydim", "Vatanni o'rganish", "Uyingdagi beshiklar", "Dil fasli", "Yashasin yomg'irlar", "So'z yo'li" kabi bir qator she'riy to'plamlari nashr bo'ldi. Uning birinchi "Orzu" nomli she'ri 1975-yili chop etildi. Birinchi to'plami "Ruhim xaritasi" nomi bilan 1958-yilda bosilib chiqdi.

Bugungi kunda ezgulik, adolat, go'zallik singari umumbashariy estetik mezonlarga asoslangan badiiyat namunalari ma'naviy madaniyatimiz xazinasini boyitmoqda. Millatning ma'naviyati, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, inson taqdiri she'riyatimizdagi badiiy tadqiqotchilik mehvariga aylandi. Zero, inson ongi –shuurini, inson qalbini zabt etish, anglash hamda tushuntirish uchun kechgan va kechayotgan kurash - badiiy tadqiqotchilik hech qachon tingan emas. Mabodo ana shu kurash so'ngudek bo'lsa, Odam fikrlashdan, hissiy idrokdan to'xtab qolardi. Bu esa, jamiyatlarning ma'naviy-intellektual hayotini hamisha yangilab turadi.

Davr va adabiyot munosabati juda murakkab muammodir. Chunki zamonning asosiy belgisi uning tinimsiz harakatdaligi, o'zgarib turishi bo'lsa, asl adabiyotning bosh xususiyati uning o'zi yaratilgan zamonga qaraganda ko'proq yashashga intilishidir. Sirojiddin Sayyid she'riyati ana shunday umrboqiy yashay oladigan she'riyatdir.

Sirojiddin Sayyid – tafakkuri teran, sermushohada, bilim darajasi yuqori, iste'dodli va izlanuvchi shoir. Uning she'rlari ko'ngilga yaqinligi, xalqonaligi,

soddaligi, mushohadaga chorlashi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi. Uning she'rlarini mutolaa qilishni boshlagan kitobxon qo'lidan kitobni qo'ygisi kelmaydi. She'rlar mutolaasi beixtiyor she'rlardagi dard-alamni, iztirobni, quvonch-u g'amni o'quvchiga "yuqtiradi", sababi shoir ruhiyat shoiri ekanligidadir.

Badiiy tafakkur tushunchasi – serma'no, serqatlam, serqirra. U san'atkorning fikrlash tarzida zuhur topgan falsafiy-axloqiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarning muayyan hosilasidir. Sirojiddin Sayyid badiiy – estetik tafakkuridagi yetuklik, teranlik mustaqilli sharofatidandir, hurfikrlilikdandir.

Sirojiddin Sayyidning chinakam iste'dod egasi ekanligini uning go'zal va mazmuni teran she'rlari isbotlaydi. U dunyo va hayotda, qishlog'i va hovlisida, zamondoshlari, do'st-u yorlari qalbida kechayotgan o'zgarishlardan, yangilanishlardan boxabar. Xususan, el-yurt tarixi, qismati, dardini kuylash shoir uchun farz va qarz hisoblanadi.

Yurtim, menga zar kerakmas zargaringdan,
Kipriklarim unsalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo'lib keldim, men bir nasim,
Aytib o'tsam deyman ko'hna dardlaringdan.
Menga dunyo kerakmas, bir xas yetar,
Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan.

Ayniqsa, shoirning ulug' Vatanga muhabbati, mehri beqiyosdir.

Dil porasi, ko'z qorasi
Sen o'zingdirsan.
Mening ko'nglim sen aslida
Sen ko'zimdirsan.
Tomirimda tomir yoygan
Ilk so'zimdirsan.
Ilk og'rig'im, ilk yomg'irim,
Naysonim, Vatan.

Xuddi shu jihatdan shoirning "Vatanni o'rganish" (1996) nomli to'plamiga kirgan she'rlar uning mungli va go'zal tuyg'ularini yanada

chuqurlashtirishga xizmat qiladi. bunda ona-Vatan tushunchasini anglash, uning mohiyatiga yetish bosh tamoyil bo'lib qoladi. Uning ijodida moziyga, ajdodlarimiz hayoti va taqdiriga qiziqish teran yo'nalish kasb etgan. Diniy-madaniy, tarixiy merosga umumbashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan qarash, o'rganish va baholashda estetik prinsiplarga amal qilgan holda yondoshdi.

Bugungi tarixiy yangilanishlar ildizini millatning erk-ozodlik uchun olib borilgan kurash g'oyalarida, vatanparvarlikdan xoli tasavvur qilish mumkin emas. Erkparvarlik, hurfiylik ideali, imon salomatligi, e'tiqod butunligi, Vatan kamoli, istiqbol istiqbolini belgilovchi ijtimoiy ideal Sirojiddin Sayyid she'riyatining mag'zini tashkil qiladi.

Sirojiddin Sayyid she'riyatining o'ziga xosligi bu inson ruhiyatining falsafiy-psixologik tahlili orqali shaxsni kamolotga yetkazishda, komillik alomatlarini ulug'lashda ham ko'zga tashlanadi. Uning betakror she'riyatida milliylik, tarixiylik, go'zallik, ezgulik, adolat singari bashariy qadriyatlaryetakchi mezonlar bo'lib bormoqda.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos sodda, ixcham ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi. Buning ustiga shoir Sharqning Firdavsiy, Hofiz, Bedillaridan Navoiygacha, Yevropaning Pablo Neruda, Aleksandr Blokka, o'zimizning Cho'lpon, Oybekdan Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlargacha o'rganib, ulardan ilhom olgan. Sirojiddin Sayyid izlanuvchan, iste'dodli va ko'p qirrali shoir sifatida o'zbek sh'riyati rivojida o'z o'rniga ega bo'lmoqda.

Sirojiddin Sayyidning o'zbek she'riyati taraqqiyotida tutgan o'rnini beqiyosdir.

1.2. Sirojiddin Sayyid she'riyatining o'ziga xosligi

Sirojiddin Sayyid ham dunyodagi barcha shoirlar singari insonni qiziqtirgan, inson qalbini to'ldirantirgan abadiy va azaliy mavzularda qalam tebratdi. Uning lirikasida xalqimiz o'tmish madaniyati va tarixini ulug'lash, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish, ma'naviy-axloqiy muammolar, insoniy dardlar, armonlar, ishq-muhabbat kabi mavzular keng o'rin olgan.

Sirojiddin Sayyidning “Salqin xarsanglar kaftida”, “Sevgi mamlakati”, “Asragil”, “Mehr qolur, muhabbat qolur”, “Kuydim”, “Vatanni o'rganish”, “Ko'ngil sohili”, “Ko'ksimdagi sohillarim”, “Qaldirg'ochlarga ber ayvoningni”, “So'z yo'li” kabi o'n beshga yaqin she'riy to'plamlari chop etilgan. Eng muhimi, uning ijodi to'plamdan to'plamga, kitobdan kitobga sayqallanib bordi. Mohiyatan teran, badiiy jihatdan barkamol she'rlari o'quvchi qalbini zabt etdi.

Shoirlik har kimga ham nasib etavermaydi, yoki hamma ham shoir bo'lavermaydi. Mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy aytganidek, Tangri taolo “...alar roadside ba'zisining tilin fasohat va balog'at bobida nodir va so'z rishtasiga maoniy javohirin nazm etarga qodir qilib, ma'ni ahli orasida quyosh yanglig' ravshan va sarafroz etti”. Shu bois, chinakam shoirlik maqomiga shoirman deb yurganlarning hammasi ham erishavermaydi, mashhur bo'lavermaydi.

Sirojiddin Sayyid milliy she'riyatimizda o'z o'rniga ega ijodkor. Dastlabki to'plamlaridan keyingi “Kuydim”, “Vatanni o'rganish”, “Ko'ksimdagi zangorlarim”, “Ko'ngil sohili” kabi itoblarigacha, ulardan “Qaldirg'ochlarga ebr ayvonlaringni” nomli saylanmasiyu “Dil fasli”gacha shoir ijodi tobora yuksala bordi desak, aslo mubolag'a bo'lmas.

Sirojiddin Sayyidning shoir sifatidagi salohiyati havas qilarli darajada ekanligini uning nafis she'riyati ko'rsatadi. Vatan haqida yozmagan birorta ham shoir bo'lmasa kerak. Lekin Sirojiddin Sayyidning bu mavzudagi bitiklari, salaflari va zamondoshlari nazmini takrorlamaydi. Mana bu misralar ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Mening Vatan ichra vatanlarim bor,

Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.

Temiziylar yanglig' xazinalarim,

Buxoriylar kabi ma'danlarim bor.

Sirojiddin Sayyid – xalq dardini chin qalbdan his etgan, tushungan, anglagan dardli shoir. Zero, chinakam she'riyat darddan, iztirobdan tug'iladi. Shoirning zohiran quvonchli holatning go'zal poetik ifodasi berilgandek ko'ringan misralari zamirida ham elning, yurtning g'amida yashayotgan ko'ngil iztiroblari siqib turadi. “Ayvonlari nurga talosh, kayvonisi oyu quyosh” bo'lgan Vatan haqida “ko'z yosh, yuzida yosh” bilan yozishining sababu shunda.

Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni...

Bu jozibador misralar xalqimizning “Qaldirg'och xosiyatli qush, u uya qurgan xonadonga baxt olib keladi” degan hikmatlariga hamohang. Binobarin, uyning ayvoniga qaldirg'och qo'nishi –baxt timsoli. Harholda, xalqimiz uyga qaldirg'ochlarning in qurishini saodat darakchisi sifatida qabul qilib kelgan. Shoirning she'rlarida ana shunday xalqchil, ko'ngilga yaqin, qalbning nozik torlarini-da chertib yuboradigan misralar ko'p. Mana, yana bir misol:

Kim Vatanni zar to'niga eng etmishdir,

Kim bag'rini osmonlarday keng etmishdir.

Yaratganning o'zi bugun teng etmishdir

Asrlarga onlarini, onlarini.

To'g'ri, bu iqtibos G'afur G'ulomning “Asrlar taqdiri lahzalarda hal”, degan misrasiga bir qadar uyg'un. Lekin Sirojiddin Sayyidning yutug'i shundaki, u ijodning mutlaqo o'ziga xos, ohorli usulini topa bilgan. “Vatanni zar to'niga yeng etmishdir” – yurakka yaqin, yorqin va obrazli talqin. Umuman, boshqa ko'p she'rlari qatori shoirning bu misralarida ham teran mazmun, go'zal tashbih va betakror badiiyat mutanosibligi kuzatiladi.

Oz so'zga ko'p ma'no yuklay olish shoirdan juda katta iqtidorni talab etadi. Sirojiddin Sayyid she'rlarida bu fazilat bo'rtib ko'rinadi. “Vatan abadiy” she'ridan olingan quyidagi iqtibos ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

Har tepa, har do'nglik turbat emasdir,

Har qanday ayriliq g'urbat emasdir.
Yurtdan ketgan har zot Furqat emasdir,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

“Har qanday ayriliq g'urbat emasdir”– ohorli va teran xulosa! Zero, “g'urbat”–mohiyat e'tibori bilan qamrovli tushuncha. “Farangi istilohoti va ta'biroti irfoniya keltirilishicha, “g'urbat” so'zi uch xil ma'noni ifodalaydi: 1. Vatandan judolik g'urbati. 2. Johil va fosiq qavm orasida majburan, ya'ni g'ayriixtiyoriy ravishda o'tirgan odam g'urbati. 3. Haq talabidagi orifning g'urbati. Shoir Furqatning g'urbati ana shu ma'nolarning barchasini o'zida mujassam etgani tadqiqotlardan ma'lum. “Yurtdan ketgan har zot Furqat emasdir” degan misrada o'nlab sahifada bayon etish mumkin bo'lgan ana shunday chuqur mohiyat ifodalangan. Banddagi har bir misra fikrning izchil, tugal bo'lishiga, “Vatan qolar ekan, Vatan abadiy” degan barhayot haqiqatni anglatishga xizmat qilganini ta'kidlash kerak.

Sirojiddin Sayyid she'rlaridagi yana bir fazilat – ularda ulug' salaflarga bo'lgan yorqin ehtirom yorqin ifodalanishidir. Ahmad Yassaviy, Navoiy, Maxtumlul, Bobur, Mashrab, Furqat kabi ijodkorlarga bag'ishlangan she'rlar, ular g'azallariga bog'langan muxammaslar ham buni tasdiqlaydi.

Tarix, xotira qudratli ma'naviy manba sifatida insoniyatning har doim ruhiy ehtiyojini qondirib keladi. Tarix insonga o'tmish haqida tasavvurga ega bo'lish va xulosalar chiqarish uchun zarurdir. Adabiyot tarixga katta umr beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Tinchlikning barqarorligi ta'minlangan jamiyatimizda tarixga qiziqish uyg'otish, xalqni o'zligini anglashga urinish mas'uliyatini ham adabiyot o'z zimmasiga oladi. She'riyatga tarixiy shaxslar kirib kelib, kitobxon ko'z o'ngida buyuk ajdodlarimizning qiyofasi gavdalandi. Shu o'rinda aytish kerakki, Sirojiddin Sayyid ijodida tarixiy mavzuni o'rganish, tadqiq etish va baholash bugungi adabiyotshunoslik ilmi zimmasidagi dolzarb vazifalardan sanaladi.

Hozirgi kunda badiiy-estetik tafakkurimiz tabiatida jiddiy sifat o'zgarishlari jarayoni kechmoqda. Bugungi kunda ezgulik, adolat, go'zallik singari umumbashariy estetik mezonlarga asoslangan badiiyat namunalari ma'naviy

madaniyatimiz xazinasini boyitmoqda. Millatning ma'naviyati, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti, inson taqdiri she'riyatimizdagi badiiy tadqiqotchilik obyektiga aylandi. Zero, inson ongi –shuurini, inson qalbini zabt etish, anglash hamda tushuntirish uchun kechgan va kechayotgan kurash - badiiy tadqiqotchilik hech qachon tingan emas. Mabodo ana shu kurash so'ngudek bo'lsa, Odam fikrlashdan, hissiy idrokdan to'xtab qolardi. Bu esa, jamiyatlarning ma'naviy-intellektual hayotini hamisha yangilab turadi.

Bugungi tarixiy yangilanishlar ildizini millatning erk uchun olib borilgan kurash g'oyalarida, vatanparvarlikdan ayro tasavvur qilish sira mumkin emas. Erkparvarlik, hurfikrlilik ideali, iymon salomatligi, e'tiqod butunligi, Vatan kamoli, istiqlol mustahkamligini belgilovchi ijtimoiy ideal Sirojiddin Sayyid she'riyatining mag'zini tashkil qiladi.

Ta'kidlanganidek, Vatan va millatga muhabbat tuyg'usi Sirojiddin Sayyid she'rlarining asl mohiyatini, mag'zini beldilaydi. Shoir "rizq-ro'zi halol xalq" farzandi ekanidan haqli ravishda faxrlanadi.

Ona xalqimiz o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk farzandlari bilan faxrlanadi. Ana shunday aziz zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Sirojiddin Sayyid ijodida Bobur obrazi talqini alohida sahifalarni tashkil qiladi. Uning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" (2011) nomli kitobi buning dalilidir. Bu kitob haqida shoirning o'zi kitob muqaddimasida shunday deb yozadi: "Ustoz adiblar maktabi va tajribasidan o'rgangan holda, burch va havas taqozosi yuzasidan men ham bir qalamkash sifatida Bobur bobo ijodiga murojaat qilmoqqa jur'at etdim. Va bu qisqa, ammo tuganmas hayotning, zim-ziyo olamni yoritgan chaqinday tez so'ngan, lekin, mana besh yuz yillardan buyon to'xtamay davom etib kelayotgan, mardlik va matonat, g'urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to'la umrning yuz lahza, yuz holatini qo'limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim. Goh Bobur hazratlari tilidan, goh o'zimdan, gohi she'r, gohi g'azal tarzida, gohi ruboiy, gohi muxammas shaklida kong'limdagilarni, niyat va maqsadimni insho etishga urinib ko'rdim."(Sirojiddin Sayyid. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent., "O'zbekiston" nashriyoti, 2011, 6-bet). Kitobda Sirojiddin Sayyidning Boburning

“Boburnoma”sidan ilhomlanib yaratgan yuzta turli hajmdagi she’rlar va muxammaslari jamlangan. Bu “shoirona topildiqlar”(Vahob Rahmonov) jamlangan kitobning ”Ajdod va avlod” nomli she’r bilan boshlanishi ham ramziy ma’noda avlodlar davomiyligini anglatadi. She’rda shunday misralar bor:

Dunyoga kelmishdir hazrati Bobur,
Daholar ham qarzu ham farz yaralgay.
Sherlarning zuryodi faqat sher bo’lur,
Yo’lbars avlodidan yo’lbars yaralgay.

Misralarda Boburning Temur avlodining davomchisi ekanligi, bu avlod tarixda mislsiz buyuk ishlarni amalga oshirib, manguikka daxldor bo’lganligiga ishora qilingan. Sirojiddin Sayyid “Boburnoma”ni mutolaa qilish jarayonida Bobur shaxsi, hayoti, faoliyatiga shunchalik maftun bo’ladiki, natijada cheksiz hayrat olamiga oshno bo’ladi, nihoyatda ta’sirlanadi, o’zining shunday xalq farzandi, shunday shoirga voris ekanligidan qalbi g’urur va hayajonga, farahga to’ladi.

“Boburnoma”,
“Boburnoma”
Shoh shoirdan avlodlarga
Mangu o’lmas
Qadrnoma.

Satrlar zimnida “Boburnoma” shoh shoirdan avlodlarga qoldirilgan qadrnoma ekanligi haqidagi fikrlarni ilg’aymiz, shuurimiz olis tarixga xayolan sayohat qiladi:

Bunda ko’ngil lolasidir,
Bunda umr nolasidir,
Dardu g’am maqolasidir,
Har bir noma –
Taqdirnoma.

Misralar qatida “Boburnoma”da bitilgan har bir noma ”ko’ngil lolasi”, ya’ni xotiralar, kechayotgan voqealar girdobida qolgan bag’riqon lola yanglig’ ko’ngilning “umr nolasidir” degan hukm mavjud. She’rni o’qir ekanmiz, umri

g'am-alamlarga oshno, ozurda qalb egasining dardli, hasratli o'tgan umri nolalarini tinglagandek bo'lamiz, beixtiyor shoirning taassurotlari bizni ham befarq qoldirmaydi.

Necha bir hukmdorlardan,
Amirlardan, xoqonlardan,
Davlatlar-u davronlardan
Na nom qoldi,
Na bir noma.

Darhaqiqat, tarixda qancha-qansha hukmdorlar o'tganlar, davru davron surib, saltanat boshqarganlar. Ko'plaridan hech qanday ezgu ish, ezgu amal, yaxshi xotira qolmadi. Boburning hayoti nechog'lik zahmatli bo'lmasin, undan yorqin xotira qoldi.

Bobur chekkan iztiroblar,
Ranj-u zahmat ham azoblar,
Buyuk hijronidan boblar,
“Boburnoma” –
Jabrnoma.

Misralardagi zalvorli yuk ruhimizni ezadi, buyuk inson hayotida bo'lib o'tgan voqelar, ayriliqlar, ziddiyatlar, yo'qotishlar, adolatsizliklar, xiyonatlarni xotiramizda tiklaydi. Tarixda Boburchalik aziyat chekkan hukmdor yo'q. Uning hayotidagi eng buyuk g'urbat Vatandan ayro yashaganligidir. She'r misralari bizni umri jang-u jadallarda kechgan suvoriy bilan to'qnashtiradi:

Yuragining har bir zarbi,
Zafarlari, harb-u zarbi,
Har bir harfi – keskir, harbiy,
Har bir noma –
Harbiynoma.

Ko'z o'ngimizda Bobur butun hayot yo'li, ish-amallari, kishilar va voqealarga munosabati, dunyoqarashi, shodlig-u qayg'usi, g'alaba va mag'lubiyati, saltanati va darbadarligi, g'azabi va marhamati, mardligi, jasurligi, qiyinchiliklarga

chidami, otliq, yayov kezishi, kuzatuvchanligi va boshqa tomonlari bilan namoyon bo'ladi.

Sirojiddin Sayyid "Boburnoma"ni dunyoning yetti mo'jizalaridan biri sifatida tan olingan Tojmahaldan ham "zo'r qo'rg'on'ligini e'tirof etadi, asarni "yana ming zamonlar" yashashini bashorat qiladi.

Insonga boylik baxt bera olganida, hech shubhasiz, Bobur baxtli bo'lar edi. Darhaqiqat, Bobur umri mobaynida shunchalik ko'p boyliklarni qo'lga kiritdi-yu, ammo o'zini baxtli his qilmadi. Sabab shundaki, u baxt tushunchasini oliy darajada idrok etadi. Ochko'z odamlar nazdidagi boylik tushunchasini g'arib, bir pulga qimmat narsaga aylantirdi. O'zi hukmronlik qilgan mamlakatlarning boyliklariga sira ko'z olaytirmadi. Aksincha, qaysi yurtga qadami tegsa, uni obod va ma'mur qilishga harakat qildi. Bobur tasavvuridagi baxt oliy maqomda turadi. Odamlarga yaxshilik qilish, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, ezgulikni baxt deb biladi. Umrini o'g'liga nisor etgan mehribon ota, g'urbatlardan zada ko'ngil sohibi, buyuk musofir, buyuk mag'lubiyatlarga uchragan zot, buyuk g'alabalar nashidasini totgan masrur qalb egasidan buyuk armon kitobi meros qoldi.

Umri o'g'liga baxsh ketgan,

O'z so'zini kafan etgan,

O'zini o'zi dafn etgan.

Qallda qoldi qay bir noma?

"Boburnoma" –

Xotirnama.

She'rni o'qir ekanmiz, beixtiyor shoir qalbini junbushga solgan xotiralar, taassurotlar bizni ham hayrat olami ila oshno tutintiradi, buyuk musofir siymosini ko'z o'ngimizda to'laqonli gavdalantirib beradi.

Ming yillik adabiyotimiz tarixidan ma'lumki, chin do'st, chin yor topish ahli shuaro uchun ushalmas armon bo'lib kelgan. Alisher Navoiy "Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim", Zokirjon Furqat "Ohkim, yo'qtur mani ta'bimga loyiq ulfatim", Abdulla Oripov: "Baxtiyor har dilga oshno topilgay, G'ussali dilga-chi lekin yo'q hamdam", Erkin Vohidov: "Do'st bilan obod uying,

Gar bo'lsa u vayrona ham, Do'st qadam qo'ymas ekan, Vayronadir koshona ham"
deya iztirob chekkani buning dalilidir. Sirojiddin Sayyidning

Qismat qattiq, alam bisyor, el g'ofil,

Bu dunyoda bormi bir dilxoh, Bobur? –

deyishi sababi ham shunda.

Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, shunday dahozotni qadrlamagan beqadr odamlardan nafratlanadi:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,

Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.

Andijon-u Hind-u – yetti iqlimda

Topilmadi Sizga bir dodxoh, Bobur.

Oллоhimning dargohlari keng, lekin

Sig'dirmadi Sizni bu dargoh Bobur.

Kecha uzun, manzil olis, yo'l uzoq,

Sizga faqat yolg'iz oy hamroh, Bobur.

Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,

Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur!

She'rni ko'zdan kechirganimizda, unda shoirning kuyunchak qalbini ko'ramiz. Shunday buyuk insonni qadrlamagan kimsalarni ayovsiz fosh etadi, ularga nafratini oshkor izhor qiladi. Bobur yashagan muhitni "muttahamlar dunyosi", atrofidagi beklarni "nonko'r, beoqibat" deya ta'riflaydi. Tarix bizga ato etgan bebahozotni ham asray olmaganimizda shoirning qalbi alamlarga to'lib toshadi.

Boburning umri Vatan hajrida o'rtangan umrdir. Vatan tuprog'ida o'sgan «Mir Temuriy» qovunlarning hidlari, asal kabi husayni uzumlar, yurtining zahmatkash odamlarining sog'inchlaridir. Sirojiddin Sayyidning "Kobulda bahor" nomli she'rida Boburning iztiroblariga sheriklik hissi bo'rtib ko'rinadi:

Kobulda bahor-u g'amim ortadi,

Hasrat umrim aro cherik tortadi.

Musofir savdolar meni o'rtadi,

Bu gulshan ichra men bir tirik mozor,

Kobulda bahordir, Kobulda bahor.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida Bobur siymosi rangin bo'yoqlarda to'laqonli gavalantirilgan, uning shaxsiga alohida ehtirom ko'rsatilgan. Bu Sirojiddin Sayyidning Bobur shaxsini, Vatan tarixini chuqur bilgani va sevganidir.

Bugungi kunda Boburga ulug' ehtirom ko'rsatilmoqda. Bu mustaqilligimiz, hukumatimizning o'tmish ajdodlarimiz merosiga bo'lgan buyuk e'tibor bilan bog'liq. Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, xalqaro ekspedisiyalar mavjudligi yaxshi holat.

Xulosa qilib aytganda, milliy qahramonlarimiz bo'lgan buyuk shaxslar hayotining serma'no hikmatlari va ular haqida muhabbat bilan yaratilgan she'rlar jamiyatimizning kelajagi bo'lgan yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatadi, ularni ajdodlarga muhabbat ruhida tarbiyalaydi.

Aruzda yozish oson emas. Buning uchun so'zni nozik his etish, uni mahorat bilan saralay olish, muayyan mezoniga solib bilish zarur. Hatto bular ham kifoya qilmaydi. Buning uchun mumtoz adabiyot mutolaasidan lazzat olmoq, ya'ni ilmi aruz, ilmi bade', ilmi qofiya sirlarini egallamoq talab etiladi. Sirojiddin Sayyid juda ko'p zamonlardan shu kabi fazilatlar sohibi ekani, bilganlarini amaliyotda mahorat bilan qo'llay olishi bilan alohida ajralib turadi. Bugungi shoirlardan ko'pchiligi bunday salohiyatga ega emas. Zahiriddin Muhammad Boburning hazaji musammani solim vaznida yozilgan quyidagi mashhur g'azaliga bog'langan taxmis shoirning yuksak mahoratiga yana bir dalildir.

Bulut ermas, ko'k uzra tarqagan ko'ngil gumonidur,

Gumon qilmak bu damda begumon dilning ziyonidur,

Ko'kargan xor ila xaslar tiriklikning nishonidur,

Bahor ayyomidur dag'i yigitlikning avonidur,

Ketur soqiy, sharobi nobkim, ishrat zamonidur.

Taxmis vazn jihatidan ham, mazmun e'tibori jihatidan ham Bobur g'azaliga mutanosibdir.

Sirojiddin Sayyid Navoiyni ko'p o'qiydi. uning she'rlarida ulug' Navoiydan, mumtoz she'riyatimizdan bahramandlik ta'siri sezilib turadi.

Chaman ichra o'zi ham bir
atirgulday bo'lib qolgay,
Dilimning qoniga bulbul
qanotin gar bulab qo'ysa...
Menga xanjar bilan shamshir
tig'iga hargiz hojat yo'q,
Uzun mijgonlarni gar
nigori bir qadan qo'ysa.

Bu baytlarda mumtoz adabiyotimizga xos joziba ufurib turibdi.

Sirojiddin Sayyid she'rlaridan birini "Navoiyni o'qish" deb nomlagan. Uning fikricha, "Har bir kalla, har bir bosh jaholatdan qo'rqishi kerak. Har bir bola, har bir yosh Navoiyni o'qishi kerak". Navoiydek ulug'larni o'qimaslik, anglamaslik jaholatga olib kelishidan ogoh qilishni burch deb bilgan shoir "Har bir ota, har bir mo'ysafid Umr hikmatlarin ko'rsatib, Nafs arqonlarin qirqishi kerak", deya ta'kidlaydi.

Ulug' salaflar mahorat maktabidan o'rganish samarasi bo'lsa kerak, Sirojiddin Sayyid she'rlarida teran falsafiy fikrlarning betakror poetik ifodasi darajasidagi baytlar, bandlar anchagina. Hazrat Yassaviyning "Ko'ksimdagi zangorlarim ketarmukin" misrasiga tazmin o'laroq yaratilgan she'ri, hadislarining nazmiy talqinlari, xalqona hikmatlar singdirilgan asarlari buning isbotidir. Bir qarashdan sodda tuyuladigan, lekin o'quvchini umrning mazmuni, olam va odamning mohiyati haqida mushohada etishga undaydigan mana bu misralar hazrat Yassaviy hikmatlarini esga tushirishi bilan ham ahamiyatlidir.

Kelib ketmoq o'yin ermas, sayohat yo ziyorat,
Umr yo'li zahmatlaru mehnatlardan iborat.
Ko'ngillarga qurdingmi bir ko'prikmi yo imorat?

Qurganlaring o'zingniki, qurmaganing gumondir. Sirojiddin Sayyidning fikricha, hali biror shoirning she'ri biror kambag'alga imorat qurib

bergan emas, lekin ko'ngil imoratlarini tiklamog'i shubhasiz⁵. Ko'ngillarga imorat qurish, vayron dilni obod etish haqida ko'p yozilgan. Sirojiddin Sayyidning ushbu bitiklari ularning birortasiga o'xshamasligi bilan ham qimmatlidir.

Ifodaning ixchamligi va poetik jozibasi, hech bir zamonda eskirmaydigan mavzularning ohorli talqini, kutilmagan go'zal tashbehlar qo'llay olish – Sirojiddin Sayyid she'riyatining o'ziga xos xususiyatidir. Uning uchun she'riyat “Vositai joh” emas. Shoirning o'z e'tiroficha, “Olamda eng og'ir - So'z yo'lidir”. Bu yo'ldan yurish oson emas. “G'afur G'ulom siyohdoniga” she'rida betakror ifodalanganidek:

Ulug' shoirlarning qalbi siyohdon bo'lgan,

Yozsa yurak qoni bilan yozgan, siyoh qon bo'lgan.

Sirojiddin Sayyid ana shu sermashaqqat, “No'shi bir bo'lsa, nishi ming, rohati bir bo'lsa, tashvishi ming”(Ogahiy) yo'ning sabrli yo'lchisidir. Chinakam she'riyatga tashna qalblar malhami bo'lgan she'rlari shoirdan mudom benazir asarlar kutishga umid uyg'otadi. O'quvchi bilan ilk muloqotni “Ruhim xaritasi” to'plami bilan boshlagan shoir “Dil fasli”ga bir bir olam yutuqlar bilan qadam qo'ygani esa bu umidni yanada kuchaytiradi.

Sirojiddin Sayyidning badiiy tajribasiga tayanib hamda falsafiy lirikasida ilgari surilgan badiiy g'oyalarga asoslanib aytish mumkinki, she'riyat ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni – haqiqat va qabohatni, go'zallik va badbinlikni, umrning tonglari-yu shomlarini qayta estetik baholashdan boshlanadi. Zamin ruhi, davr nafasi, ijodkorning shaxsiy hayoti tajribalari bilan to'yingan sahifalardan teran ma'nodorlik kasb etadi. Mutafakkir Fridrix Shlegel ta'kidlagandek, she'riy hikmat hayot haqiqati va axloqiy muhokama-mulohazalardan ajralgan holatda alohida namoyon bo'ladi. Va shu barobarida hayotiy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayangan holatda mazmunli voqelik bo'lib qoladi⁶. Mazkur izlanish jarayonida tabiat hodisalari, detallari, ranglari, manzaralari badiiy haqiqatni

⁵ Sirojiddin Sayyid. Yashasin yomg'irlar. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.- Toshkent., 2007. B.:136. (Ushbu manbadan olingan keyingi misollarning sahifasi va kitob ko'rsatiladi – S.Ergashev.)

⁶ Шлегель Ф. Эстетика. Философия. Критика. В двух томах. Том 1. (История, эстетика в памятниках и документах). – М.: Искусство, 1983. – С. 307.

tasdiqlashda, shoirning go‘zallik va ezgulik, umrning ma‘nosi, iqboli-yu zavoli haqidagi falsafiy-badiiy konsepsiyasini oydinlashtirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu narsa Sirojiddin Sayyid she‘rlarining ajralmas tarkibiy bir qismini tashkil etadi.

Ta’kidlanganidek, Vatan va millatga muhabbat tuyg‘usi Sirojiddin Sayyid she‘rlarining asl mohiyatini, mag‘zini beldilaydi. Shoir “rizq-ro‘zi halol, mangu xalq” farzandi ekanidan iftixor hissini tuyadi. “Azal bulbullarga oshiyon” bo‘lgan ona zamin “bog‘larini bosgan qarg‘alar ketgani”dan, yurtga sohiblik asl egalariga muyassar bo‘lganidan quvonadi. Mana bu misralar ana shu quvonch izhori o‘laroq yaralgan:

Amir Temurlardan qolgan nomus – or
Bir siniq g‘ishti ham sharaf – shon, yurtim.
Sen – o‘lmas g‘urursan, so‘nmas iftixor,
Suvi ham, qumi ham zarafshon yurtim...

Adabiyotimizning ming yillik tarixi guvohlik berishicha, chin do‘st, chin yor topish shuaro uchun ushalmas armon bo‘lib kelgan. Hazrat Navoiy “Mehr ko‘p ko‘rgizib mehribone topmagan”, Furqat “Ohkim, yo‘qtur mani ta‘bimga loyiq ulfatim”, deya iztirob chekkani buning dalilidir. Ustoz Abdulla Orif: “Baxtiyor har dilga oshno topilgay, G‘ussali dilga-chi lekin yo‘q hamdam” deganda, ayni shu tuyg‘uni nazarga tutgan. Sirojiddin Sayyidning

Qismat qattiq, alam bisyor, el g‘ofil,
Bu dunyoda bormi bir dilxoh, Bobur? –

deyish sababi ham shunda.

Sirojiddin Sayyid so‘zga zug‘um o‘tkazmaydi. Sherlarining ohangi tabiiy, misralarining aksariyati quyma. Ayniqsa, g‘azallarida fikr ta‘sirchan, tasvir ohorli. Ularni go‘zal tashbihlar ziynatlab turadi. Ming yillardan buyon kuylanib kelayotgan Vatan mavzusi uning qalamida o‘zgacha inkishof topayotganini ham shuning bilan izohlash mumkin. Shu bois tuyg‘ularning samimiyligi o‘quvchiga yuqadi:

Bu diyorda tog‘u tosh shoir bo‘lib,

Yerga tushgaydir quyosh shoir bo'lib.

O'rgatar kuylashni bulbul suvlari,
Maysa ham tebraydi bosh shoir bo'lib.

Bulbul kuyini suvga sharqirashiga mengzash she'ridagi o'ziga xoslikdan dalolat. Faqat bu tashbihni yaqqolroq anglash, his etish uchun "bulbul" so'zidan keyin "tire" alomati quyilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu misralar yuqoridagi tariflarga nechog'lik mos ekanini ta'kidlashga ehtiyoj yo'q.

Sirojiddin Sayyid so'zni noo'rin ishlatmaydi. So'zni mohirlik bilan ishlatadi, so'zga zalvorli mazmun yuklay biladi. "She'r aro polvon bo'lish oson emas" degan birgina ta'rif orqali ustoz Abdulla Orifning milliy adabiyotimizda tutgan o'rniga munosib baho bergani buning isbotidir. "450000 lola" ikkinchi jahon urushining butun fojiasi lo'nda, ta'sirchan, betakror ifodalangani ham fikrimizni tasdiqlaydi:

Ko'z oldingga keltirsang
Buylari-yu ko'z – qoshin.
To'rt yuz ellik ming lola –
ko'ragida qo'rg'oshin.

Har ko'klam ko'kka yetar
To'rt yuz ellik ming nolam.
Yot ellarga yotibdi
To'rt yuz ellik ming bolam.

Sirojiddin Sayyid "Shoir kimdir?" deya savol qo'yadi ("Nuqtai nazar" she'ri) va "Mir Alisher boboning birinchi va mangu muovinidir" degan xulosaga keladi. Adabiyotda bunday yuksakdan qarash ijodkorga muayyan mas'uliyat hissini yuklaydi.

Har qanday shoirning ijodiy kamolotini ko'rsatadigan bosh omil – she'rlarida teran hikmatlarining go'zal badiiyat bilan aks etishidir. Ijodning

yuksalish pallasida fikr teranlashadi, “qaymoq bog’laydi”, ifoda sayqallanadi, o’ziga hoslik yaqqolroq namoyon bo’ladi. Sirojiddin Sayyid she’rlarida ana shu kamolot alomatlari bo’y ko’rsatayotgani alohida tahsinga loyiqdir. Mana bu misralar ham fikrimizni quvvatlaydi:

Ketar jisming muvaqqatdir,
Vatan – mangu muhabbatdir.
Agar kimda muhabbat yo’q,
jahonda nomurod bo’lgay.

“Dil fasli” kitobi – shoir ijodining, ta’kidlanganidek, kamolot bosqichiga mansub. Kitobning “Boybuva duo aylang...” (“Bozor ijodiyoti”dan) deb nomlandan alohida bo’limida shoir kosa tagida nimkosa tarzida milliy ma’naviyatimiz rivojiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgan hodisalarni qoralaydi. “Bosh qolib qorin bilan o’ylaydigan”lar hech qachon yurtning koriga yarashi mumkin emasligini ta’sirchan ifodalaydi. “Ichi to’la riyo, ko’ngli qaro” kimsalarning “kiyib yurgan choponlari zar rang” ekaniga taajjub izhor etadi. Ularning surati va siyrati mutanosib emasligini hajv qiladi.

Muborak hadislardan birida “Kishi biror gunoh amalga qo’l ursal, uning qalbida bir qora nuqta paydo bo’ladi. Tavba qilmay, gunohlarda davom etsa, qora nuqtalar soni ham ko’payib boradi”, deyiladi. Shoirning mana bu misralarida ana shu hadis mazmuni go’zal poetik ifodasini topgan. Sirojiddin Sayyid she’riyatida muborak sarchashmalardan bahramandlik ta’siri kuchayotgani isbotidir:

Men bu chaman sahnasida
oshiq bo’lib kelgan edim,
Gul rangiga tushundimu
dil zangiga tushunmadim.

Shoir riyokorlik, ko’ngli qarolik dilni zang bosishiga sabab bo’lishini obrazlar, timsollar vositasida tasvirlaydi.

Sirojiddin Sayyidning Furqat she’riga yozgan tatabbusi “Axtarayluk” g’azalida millat turmush tarziga kirib kelayotgan nobop a’mollar hajv tig’iga olingan. Buyuk Xorazmiy mashhur “Muhabbatnoma” da “Aning kim, ol yuzinda

meng yaratti, Bo'yi birla sochini teng yaratti" deya sochining bo'yi bilan tengligini yor go'zalligiga dalil o'laroq madh etgan edi. Taassufki, zamonamiz shoirlari endi bunday misralarni ijod qilish imkoniyatidan mahrumdirlar. Ijod qilsalar ham yor sochining bo'yi bilan emas, bo'yni bilan tengligi haqida yozishlari mumkin, xolos. Sirojiddin Sayyidning kesilgan zulflarga oid mana bu bayti ham fikrimizni tasdiqlaydi:

*Bo'yinlar osilur zulflar kesilmish,
Biz endi o'zga bir dor axtarayluk.
Uzarlar bunda ko'ngil torlarini,
Ko'ngilga boshqa bir tor axtaraylik.*

Millat fidoyisi Abdulhamid Cho'lpon "Sadoi Farg'ona" gazetasida 1914-yili bosilgan bir maqolasida mana bunday yozgan edi: "Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidan, shishasidan va buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olib, bul jihatdan taqlid qilmoqimiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!

Ovro'poning maktab, madrasa, ilm – fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod, ma'mur, olim qilub, johillikdan, asorat qulligidan qutultirodur. Birodarlar, ko'zlaringizni ochib, yaxshi o'ylanglar!"

Afsuski, Cho'lpon qo'rqqan hodisa ro'y berdi. Har uchala voqelik – Ovro'poning mo'dosi, shishasi va buzuq axloqi millatning turmush tarziga turli yo'llar bilan kirib keldi. Eng yomoni, vujudni ko'z – ko'z qilishga, yalang'ochlikka ruju qo'yilayotganidir. Milliy axloqqa qaratilgan bu tahdid o'tgan asr boshida Cho'lponni nechog'lik o'ylantirgan bo'lsa, uning voqelikka aylangani yangi yuzyillik avvalida Sirojiddin Sayyidni shunchalik iztirobga soladi. Mana bu misralardagi achchiq istehzo sababi shu:

*Bilolmay jinsi shimlar jinsinikim,
Uyotdin boshga chalvor axtaraylik.
Ko'rib kindiklarini halqa taqqan,*

Qochaylik, bir chuqur g'or axtarayluk.

Bu bozor ichra ko'ngil sindirurlar,

Biz endi o'zga bozor axtaraylik.

O'zbekning qizlari ibosi, hayosi, andishaliligi, uyatchanligi, zeboligi bilan go'zaldir. So'zlashda, kiyinishda, yurish-turishda, salomlashishda boshqa millat qizlaridan keskin farq qiladilar. Bunga Abdulla Qodiriyning Kumushi, Ra'nosi, Cho'lponning Zebisi yorqin dalildir. Hozirgi kunda zamonaviylik niqobi ostida qizlarning kiyinishi, yurish-turishlari o'zgarib bormoqda, bu narsa shoirni xavotirga soladi. Chunki shoir xalqning uyg'oq ko'zi, vijdoni, mas'uliyatidir. U bu holatlarga befarq qaray olmaydi. She'r har bir o'zbekni befarq qoldirmaydi, atrofga ziyrak qarashga chorlaydi.

Milliy axloq, uni asrash haqida qayg'urish millat ziyolilarining zimmasidagi mas'uliyatdir. Shoirning bu kabi she'rlari ana shu mas'uliyatni his etish, ertangi kun uchun kuyinish samarasidir.

Sirojiddin Sayyid zamonaviy milliy adabiyotimizda o'z o'rniga ega, e'tirofqa sazovor shoirlarimizdan. "Ruhim xaritasi"dan "Dil fasli" gacha har bir kitobi, har bir she'ri shoir ijodining yangi, yanada baland miqyoslarga ko'tarilishi uchun asos bo'lib kelayotgani ham buning isbotidir.

Xulosa qilib aytganda, shoirning barcha mavzularda yozgan she'rlari go'zal, ma'noli va yodda qolarli tarzda ifodalangan. Uning she'riyatiga xos bo'lgan ravonlik, soddalik, serma'nolilik, yumorga moyillik kitobxonni o'ziga jalb etadi.

Bob yuzasidan xulosalar:

Birinchidan, Sirojiddin Sayyid o'zbek she'riyati taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan hisoblanadi. U ilk she'rlaridanoq o'zbek she'riyati osmonida yorqin bir yulduz paydo bo'layotganini namoyon etdi. Shoir qaysi mavzuda qalam tebratmasin, yuksak iste'dod sohibi ekanligini namoyon eta oldi. Sirojiddin Sayyid Vatan kuychisi, u vatanini samimiy sevadi va uning boy tarixi bilan haqli ravishda faxrlanadi. She'riyat shoirdan alohida teran tafakkur madaniyatini, fikrlash malakasini taqozo qilar ekan, Sirojiddin Sayyidning lirikasi xilma-xil shakllarda namoyon bo'lmoqda. Xususan, badiiy idrok va ifoda tarzidagi mushohadakorlik har gal yangi va yangi usullar, vositalar, badiiy priyomlar orqali o'zligini ko'rsatmoqda.

Sirojiddin Sayyid mumtoz she'riyat an'alarini davom ettirish bilan bir qatorda axloqiy-didaktik xarakterdagi she'rlarni ham ko'plab yaratdi. Ularning bir guruhida teran fikr rivoji, mushohadakorlikning mantiqiy tadriji badiiy umumlashmalar asosini tashkil etadi. ("Ilinj", "Vatan", "Yog'och so'ri", "Bag'ishlov", "Bolalik", "Jilg'a", kabi she'rlari). Ikkinchi bir turkum she'rlarida qissadan hissa tarzidagi umumlashma xulosalarda falsafiy ma'no mag'zi yashiringan bo'ladi. Sirojiddin Sayyid aksariyat falsafiy mazmundagi she'rlari shu taxlitda bitilgan. ("She'riyat, sen abadiy", "Bandadan qaytmasa", "Xudoga topshirdim", "Odam topilmaydi", "Men yashay olmagan umr", "Sizga" va hokazo she'rlari).

Ikkinchidan, Sirojiddin Sayyidning fikrchan she'rlarida ona o'lkamiz husniga husn qo'shayotgan, tabiatni yangi mazmunli ranglar hisobiga boyitayotgan, tanti mehnat kishilarining ruhiyati iqlimlari, fikrlash madaniyati aks ettiriladi. Va shu tariqa hayot go'zalliklarini olqash, hayotga muhabbat falsafasi Sirojiddin Sayyid lirikasida ustuvorlik qiladi. Bu narsa shoir she'rlaridagi yetakchi hayotbaxsh pafosni ta'minlagan bosh xususiyatdir. Sirojiddin Sayyidning ijodiy individualligini, o'ziga xosligini ta'minlagan xarakterli xususiyatlar qanday belgilarda zohir topayotir? Bu narsa, avvalo, shoir she'rlaridagi lirik qahramonning hayot materialini tanlashi, unga yondoshishi va yoritishi jarayonidagi fikrlash

yo'sini bilan belgilanadi. Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni hayotdagi yoxud inson tabiatidagi biron-bir go'zallik belgisini tarannum etarkan, albatta uning yonida kontrast biron-bir detalni (xunuklikni) ko'radi. Xunuklik belgilari inson umriga rahna sololmasa-da, ma'naviy to'kislikka yetishishida to'g'anoq bo'lishi tabiiy. Shu boisdan ham Sirojiddin Sayyid she'rlarida fikrning tadriji ranglar, mazmunlar to'qnashuvi fonida kechadi. Shoirning nafis, o'ychan, mulohazakor she'rlarining lirik qahramoni aslo ko'kragiga urib so'zlamaydi, ovozi baland ko'tarmaydi. Emotsional mushohadakorlikka yo'g'rilgan she'rlari hayot va o'lim, zamin va inson, tabiat va jamiyat, go'zallik va xunuklik, ezgulik va zalolat haqida fikrlaydi. Bizni ham oniy umrimiz mohiyati, o'tkinchi kunlarimiz mazmuni xususida o'yga cho'mdiradi. Hayotimizni, umr yo'lini nurga o'rashdek pokizalikka da'vat etadi.

Inson qayerda bo'lmasin hayoti muttasil yo'lda. Kunlari, umri yashin tezligida yo'l bosadi. Lekin, ana shu o'tkinchi damlar inson umrining mazmunini belgilay oladimi?

Sirojiddin Sayyid insonning hayot yo'li – bu halol va pok yashashda deb biladi. Odamlarga foyda keltirish, el-yurt xizmatiga yarash deb tushunadi. Shaxsiy baxt xalq manfaatlariga yo'naltirilsagina mukammallikka ega bo'ladi. O'limlarni pisand qilmaydi, farzandlari, yosh nasllar hayotida o'z hayotining davomini ko'radi.

Mazkur g'oyaviy-badiiy konsepsiya shoir lirikasi mundarijasini belgilaydi.

Uchinchi dan, XX asrning 90-yillari o'zbek lirikasida tarixga, tarixiy siymolar obraziga murojaat qilish keng avj olgan edi. Ana shunday bir vaziyatda, XX asr oxirlarida tarix va tarixiy shaxslar obrazi talqiniga bag'ishlangan badiiy barkamol asarlar yaratdi. Uning "Navoiyni o'qish", "Mir Temuriy qovunlarning hidlari", "Bobur", "Vatan" "Ko'ksimdagi zangorlarim" kabi asarlari she'riyatimizga yangi nafas, o'tli harorat olib kirdi. Go'zallik hodisasi bo'lib qoldi. Mazkur fazilat – sof insoniylik tuyg'usi, falsafiy o'ychanlik, aforizmga moyillik, e'tiborga loyiq bir fikr aytishga intilish, ortiqcha ratsionallikdan qochish bilan birga psixologik ikir-chikirlarga ham berilib ketmaslik singari sifatlar edi.

II BOB. Sirojiddin Sayyid ijodida davr va adabiyot munosabatlari tadqiqi

2.1. Sirojiddin Sayyidning adabiy jarayonga munosabati

O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning "Yashasin yomg'irlar" kitobi uning vaqtli matbuot, adabiy nashrlarda chop etilgan badiolari, publisistik maqolalari-yu, adabiy o'ylar, xotiralar va suhbatlardan tashkil topgan. Shoirning nasriy uslubi ham o'ziga xos ravon, jonli. U hayot va tiriklik, Vatan va muhabbat haqida yozadi, inja, nozik tuyg'ularini fikr-mulohaza bilan bayon etadi. Adabiyot haqida to'liqlanib yozadi, Ona-Vatan haqida yozganida ko'ksi faxr-u-g'ururga to'ladi.

Darhaqiqat, ijodkorning adabiyot haqida, adabiy jarayon haqida o'ziga xos qarashlari mavjud. Sirojiddin Sayyid bugungi she'riyat haqida, uning kechasi va ertasi nima bo'lishi, qaddi-basti kelajakda qay tarzda namoyon bo'lishi haqida o'z fikrlari bor: Hammaga ma'lum jaydarigina bir haqiqat bor: yaxshi she'rlar yashab qoladi, yomonlari unutiladi. Elning katta shoiri bir yil burun she'riyatda deyarli voqea bo'lgan she'rini "bu she'r emas, bor-yo'g'i agitka" deb turganidan keyin, bu mavzuda andak sukut saqlab, andisha bilan fikr yuritmoq kerak. "Siyna limmo-lim alamdir, malhamdin yo'q darak, yangi olam, yangi odam qaytadan tuzmoq kerak" degan hikmatli baytni Xo'ja Hofiz buvamiz necha yuz yillar burun aytib ketganlar. Bu hikmat hozir ham o'z qiymatini yo'qotgani yo'q. Samad Vurg'unning Shukur aka aytib yuradigan bir satri bor: "Keldi shoir, ketdi shoir hech kim bilmadi". Zamonaga, elga, dunyoga nisbatan ranju shikva yashirin bu satrda. Shoir birovlar uchun emas, eng avvalo o'zi uchun, o'z ko'ngli uchun yozadi". ("Yashasin yomg'irlar", 134-bet). Mashhur adib Asqad Muxtor maqolalaridan birida: "Adabiyot havasga kiriladigan shon-shuhrat bog'chasi, yoki shunchaki, ko'p qatori bajarib yuriladigan kasb emas. Adabiyotga odam bir umr yongani kiradi. Har bir asarida bir lovillab yonmasa, yozuvchining bo'lmagani ma'qul. Yozuvchilik, adibning nazarida, eng qiziq, eng ehtirosli hayot. Bunda faoliyat natijasi – asarning o'zigina emas, protsess, izlab topish, izlab yashash. Asqad Muxtor yozuvchilar qanday kishi bo'lishlari kerakligi haqida qimmatli fikrlarni bildirgan: "Yozuvchi talantli bo'lishi kerak – talantni qaydan olishi haqida maslahat berolmayman.

Uning hamma qandaydir miqdorda borligini ko'zda tutyapman. Yozuvchi bilimli, o'qimishli, baland saviyali odam bo'lishi kerak. Buni qaydan olishni, bir umr o'qish-o'rganish kerakligini bilasizlar. Yozuvchi ko'pni ko'rgan, achchiq-chuchukni tatigan, xayru badni tahlil qila oladigan odam bo'lishi kerak"⁷. Darhaqiqat, yozuvchi bo'lish uchun Xudo yuqtirgan nurli dard to'la ko'ngil, didli, farosatli kalla kerak bo'ladi. Zero, Boborahim Mashrab yozganidek:

Yig'lamoq oson emasdur, ey jigarbandim, eshit,

Mulki sadpora bo'lgan so'ng ko'zingdan nam kelur.

Sirojiddin Sayyidning fikri ham adibning fikrlariga hamohang: Shoirlik, agar uni Xudo taqdir qilgan bo'lsa, ota uydin, o'z uyingning eshigidan boshlanadi. Bolalikdagi somonlarning hidi bir umr dimog'ingdan ketmaydi. Bolalikdagi jilg'alar –shoirlikning qon tomirlari, dasht-u dalalar, qir-adirlari –muqaddas varaqlari, siz ilk she'rlaringizni shu tabarruk sahifalarning so'qmolarida yurib, qadamlaringiz bilan yoza boshlagansiz.

Xullas, shoirlik nima, she'riyatni qanday izohlash mumkin? Gulmidir, rayhonmidir, jambilmidir, nima u? “Nodong'a xomushlig'din yaxshi narsa yo'dur, -debdilar shayx Sa'diy Sheroziy, - agar muni bilsa erdi, nodon bo'lmas edi” Ul zot “Guliston”da yana bir tamsilni keltiradilar:” Bir chayondan so'rdilarkim, qishda nedin tashqariga chiqmassen?” Chayon dedi: “Yoz chiqib na hurmat ko'rdimki, qishda chiqib na hurmat ko'rgaymen?”.

Bu tamsillar-hikmatlardir, hikmat esa tushuntirilmaydi, qabul qilinadi, xulosa chiqariladi, undan ibrat olinadi.

Rahmatli Qodir Baxshining “Yotiblar ichgan-a suvlarim” degan satri ham she'r, she'riyat. Shoirlik shu “yotiblar ichgan suvlarda”. Ota uy, uning eshigi, ona yurt haqidagi she'r ham shudir” (“Yashasin yomg'irlar”, 173-bet). Ko'ramizki, shoirning shoirlik, she'riyat haqidagi qarashlari juda oddiy va ma'noli. Cho'lpon adabiyotni “o'tkir yurak qirralarini yuvadig'on toza ma'rifat suvi” deya tariflagan edi. Sirojiddin Sayyid shunga uyg'un fikrni o'ziga xos tarzda, betakror ifodalaydi. Uningcha: “She'r garchi shoirning ko'ksida yongan, Bo'g'zini kuydirgan olov

⁷ Asqad Muxtor. Yosh do'stlarimga. Adabiy suhbatlar.-Toshkent.: Yosh gvardiya, 1971.-B.15.

unidir. She'riyat – gul emas, chechakmas, asli Ruh va ko'ngillarning kir sovunidir". Binobarin, inson ruhi va ko'nglini adabiyotchilik poklaydigan boshqa bir hodisa mavjud emas. Muhimi, shoir ko'hna bu haqiqatni poetik jihatdan yangicha ifodalaganidir. U shoirlikning ildizi bolalikdagi tasavvurlardan, vatandan boshlanadi, ya'ni ota uyning eshigidan, deydi. Sirojiddin Saiyyid adabiy jarayonda ro'y berayotgan barcha hodisalarga befarq emas. U o'zini yozuvchi, shoir deb atayotgan odamlardan ranjiydi, adabiyotni, ijodni ermak deb biladiganlarni yomon ko'radi. Bunday yengil-yelpi, ermakka yozilayotgan, "nom qoldirish" uchun yozilayotgan "oilaviy kitoblar" adabiy jarayon deb atalmish beorom, behalovat bir ummon qa'rida, girdi-atrofida shundoq ham avjlanib borayotganini, milliy nazokat, bobolardan meros yuksak did-farosatga mutlaqo zid ekanini, ma'naviyatga, yoshlarning axloqiy tarbiyasiga aks ta'sir etayotganini e'tirof etadi.

Biz buyuk, ulug'vor, muazzam bir yurt farzandlarimiz. Og'ir, zalvorli tog'lar, xomush adirlaru tilsiz minoralardan tortib, jim-jit maqbaralar va gumbazlarga qadar, azim bobo chinorlardan tortib to osmonlargacha yastanib, yuksalib ketgan bu yurtda toshlarning ham yurak-bag'ri bor, qadim mozorlari sassiz, tovushsiz sadolarga ko'milib yotibdi.

Buyuk ajdodlarning mangu o'ychan nigohlari, hazrat Navoiy, Mashrabning serma'no nigohlari-yu, Furqat, Muqimiylar, Qodiriylar-u Cho'lponlarning ma'yus ko'zlari umidvor tikilib turibdi. Bu mulkda o'zini shoir deb atagan zot shu mo'tabar sukutlarni, ular zamiridagi qatlam-qatlam so'zni o'ylab, shu ulug'vor sukunat ehtiromini saqlab so'z aytmog'i kerakdir.

Jamiyat a'zolarining biror ilmiy haqiqatni bilmay qolishi jamiyat uchun ham, shaxsning o'zi uchun ham jiddiy yo'qotish bo'lmagani holda, biror ma'naviy qadriyatni, axloqiy sifatni o'zlashtirmaganligi chinakam fojia. Mamlakatimiz o'rta maktablarida tahsil ko'rgan har bir kishi Pifagor teoremasini yoxud havoning kimyoviy tarkibi nimadan iborat ekanligini to'tilmay aytib beroladi. "To'g'ri burchakli uchburchak gipoteno'zasi kvadrati katetlar kvadratlari yigindisiga teng" ekani haqidagi ma'lumot ta'lim tizimi uchun o'zlashtirish nihoyatda zarur) haqiqat hisoblanadi. Holbuki, bu ta'rifni o'zlashtirish yoki o'zlashtirmaslik na tabiat, na

jamiyat va na shaxs rivojiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsata oladi. Eng muhimi, mazkur haqiqatni bilish o'quvchi ma'naviyatiga, qalbiga deyarli daxl qilmaydi. Pifagor teoremasini bilganda ham, bilmaganda ham kishining, uni o'rab turgan olamning mohiyati o'zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrati Navoiyning: “Meni men istagan o'z suhbatiga arjmand etmas, Mani istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas”, yoki Boburning “Kim ko'ribdur, ey, ko'ngil, ahli jahondin yaxshilig” tarzida boshlanadigan g'azallari bilan tanishgan, ularning badiiy jozibasi va mantiqiy qudratidan xabardor bo'lgan odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq bo'lib ko'rinishi kundek ravshan haqiqat. Demak, asl badiiy asar odamning o'zida, uning tabiatida, ma'naviyatida evrilish sodir qiladi. Sirojiddin Sayyidning har satridan insoniy dars balqib turuvchi “Bu dunyo eskilardan qolgan” she'ridagi quyidagi satrlar o'quvchi tuyg'ularida o'zgarish yasashini inkor etib bo'lmaydi:

Bu dunyo eskilardan qolgan eski bir rivoyatdir,
Umr nedir bu dunyoda? Bu besh kunlik sayohatdir.
Fasl gar ayni gulshandir, tafakkur xorzorida
Jism nedir? Gahi obod, gahi barbod imoratdir.

She'r - iste'dod mahsuli, ko'ngil mulki. Borliqni boshqalardan farqli, ya'ni shoirona idrok etolmaydigan, uning boshqalarga noma'lum jihatlarini ko'ra olmaydigan kishi shoir bo'lolmaydi. Hali hech kim o'qib shoir bo'lgan emas. Shoirlik - qismat. Shoir bo'lmaslikning uddasidan chiqa olmaydiganlar qismati. Shoir hamisha nimadandir norozi, nimadandir hayajonda, hamisha dardli. Olamni boridan go'zalroq, odamlarni hozirgisidan komilroq ko'rish istagi shoirni doim bezovta qiladi. Shu bois u tinimsiz to'lg'anadi, izlanadi:

Mening shoirligim –orzu,
Falakdin gar talab qo'ysa,
Sochib ko'nglimga oy nurin,
Quyosh ham o't qalab qo'ysa.

Asl ijod buzilgan muvozanatdir. Dunyodagi birorta shoir ruhiy muvozanatdan chiqmay turib, hali birorta tuzukroq she'r yozolgan emas.

Muvozanatdan, ya'ni risoladagi odamlarda bo'ladigan ruhiy holatdan chiqish har bir ijodkorda o'zgacha kechadi. Lekin deyarli barcha ijodkorlarning ham qalbi yalang'och, himoyasiz, ro'y bergan hodisaki bor unga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bir haqiqat ayonki, ijodkor bir umr o'z bolaligini tasvirlash bilan band bo'ladi. Qishloqda nari borsa, o'n yetti yoshigacha yashagan adiblar bir umr shu haqda yozishadi. Negaki, ijodiy holat qay bir darajada bolalikdir. Adiblar har doim ham shoir yoki yozuvchi emaslar. Ular faqat ijod qilayotganlarida, ilhomning yulduzli onlaridagina adiblardir. Qolgan vaqtlarda hammamizday odamlar. Shuning uchun ham Sirojiddin Sayyidning onadek mo'tabar zot haqidagi quyidagi she'rini o'qigan har bir kishining qalbi sog'inchga to'ladi:

Ona, to'plab chiqsa – bardoshlaringiz,
Shuncha yillar to'kkan ko'zyoshlaringiz,
Yer-u osmon sel-u yomg'ir, do'l bo'lardi.
Bir vohani ko'mardi suv,
Bir vohani g'arq etguvchi ko'l bo'lardi.
Ajinlaringizni o'ylasam agar,
Bir-biriga ulab, boylasam agar-
Surxondan Toshkentgacha,
Toshkentdan to Surxonga qadar
Sog'inch to'la, armon to'la yo'l bo'lardi.

Sirojiddin Sayyidning fikricha, **“She'r ”Assalomu alaykum” so'zi singari yorug', “Dunyo” so'zi singari bepoyon, “Xayr” so'zi yanglig' nigoron, “Alvido” so'zi kabi intizor va tushunarli bo'lmog'i kerak”.**

Insonning yaratuvchilik imkoniyatlariga g'oyat talabchanlik bilan yondoshish, ularni odamlar baxti-saodati uchun yo'naltirish, qo'lidan kelgan barcha yaxshilik va ezgu ishlarni shaxsning kamoli uchun safarbar qilish – ana shundagina inson o'zining ma'naviy kamolini namoyon eta oladi. Hayotdagi go'zalliklarni boqiyilashtirish esa shaxsning jisman va ma'nan go'zalligini taqozo etadi. Moddiy go'zalliklarni yaratish esa insonning ma'naviy-intellektual kamoli samaralaridir, xolos. Ushbu estetik prinsip shoir asarlaridan balqib turgan yetakchi

mazmunni tashkil qiladi. Mazkur tamoyil Sirojiddin Sayyidning badiiy-estetik izlanishlariga yaxlitlik, estetik butunlik baxsh etib turibdi.

Sirojiddin Sayyid adabiyotimizning jonkuyarlaridan biri. U hamisha adabiyotimizga kechayotgan har bir hodisani munosib baholaydi, adabiy jarayonga bir ijodkor sifatida qiziqish bilan qaraydi. Uning qator maqolalarida shoirlar, yozuvchilarning ijodiga munosabat bildiriladi. Masalan, “O’tkan kunlar” yodi” nomli maqolasida o’zbek milliy romanchiligiga asos slogan yozuvchi Abdulla Qodiriy haqida fikr yuritiladi. Adibning yaratgan asarlari “Millat faxri, muallif taqdiri – millat taqdiri. Ular ta’qiqlangan kunlarga millat ta’qiqlangan kunlar, Qodiriy qatl etilgan zamonga esa millat qatl etilgan zamon deb qaramoq lozim”. (“Yashasin yomg’irlar”, 111-bet) deb yozadi. Yoki, uning Omon Matjon she’riyati haqidagi “Nurlar mavqeini tanimoq” nomli maqolasini ko’zdan kechirganimizda shoir ijodini teran tushunganligini ko’ramiz: “Bu she’riyat –o’ziga xos nur va ziyo yilnomasidir. Shoir ko’nglidan Xorazmning ming bir minorlariga tomon tortilgan, undan tarixu taqdirlarga ulangan va yana hazrat Navoiydan “Ming bir yog’dular” olib, “Qush yo’li”dan bugungi kunimizga qaytgan, ko’ngillarning olmos qirralaridan shu’la sochayotgan bir nurafshon, bir dilafshon she’riyat” (“Yashasin yomg’irlar”, 115-bet) deb baholaydi.

“Yashasin yomg’irlar” deya kitobga nom bo’lgan maqolada Usmon Azim haqida fikr bildirib, o’sha davrdagi talaba yoshlarni Usmon Azimning jozibali she’riyati maftun etganligini baralla aytadi.

Tong titraydi kech kuzakning quchog’ida,
Yulduzlarni o’chirmoqda gulgun shafaq.
Jonim, qalbim she’riyatning pichog’ida...
Zamin-tilsim, osmon-tilsim, she’r-beshafqat!
...Ko’kka boqdim, o’t tutashdi jonim aro,
Qat-qat bulut qatlarida ne sir-asror!
Hayrat ichra o’ldurgusi meni samo,
Ona zamin, bir uchayin, qo’yib yubor !
...Hali butun ro’yi jahon she’r bo’lajak,

Faqat bekor bilib orom quchog'ini

Bu dunyoni sirga ko'mib yashash kerak,

Qalbgga sanchib she'riyatning pichog'ini !

Sirojiddin Sayyid bu she'rni haqiqiy she'r deya e'tirof etadi, yoshlik yillarining manzumasiga aylanganini, shoirning “Meni seving, mendan nafratlaning”, “ Insonni tushunish ”, “ Boychechak ”, “ Sen yo'q eding ” kabi she'rlarini barcha she'riyat ixlosmandlari yod olib, tildan qo'ymay aytib yurganliklarini aytadi. Bu she'rlar “ Ko'nglimizning ruhimizning oq yomg'irlariga aylanib qoldi ” deya e'tirof etadi.

Sirojiddin Sayyidning tanqidchi Ahmadjon Otaboyning “ Poeziyaning ijtimoiy hayot hodisalari, dolzarb hisoblangan mavzular bilan nechog'li aloqasi bor, seb o'ylaysiz ? ” degan savoliga “ Biror bir shoirning she'ri hali biror kambag'alga uy qurib bergan emas. Yoki mening biror she'rim bir to'rtligim, deylik, To'polondaryo bo'yida yashaydigan Eshonqul boboni bir kilo go'sht yoinki bir kilo shakar bilan minnatdor qilgani yo'q. Odamzodning hayoti faqat yemak va ichmakdan iborat bo'lganda edi, she'riyat haqida shundoq yo'sinda fikr yuritsa bo'lardi. Borliq, dunyo, hodisotning aytuvchisi emas, avvalo o'z ko'nglining sadosi bo'lmog'i lozim deb o'ylayman. Ya'ni, she'riyat –birinchi navbatda Ko'ngil ishidir. Shoirning she'ri birovga imorat solib berishga yaramasligi mumkin, lekin ko'ngil imoratlarini tiklamog'i shubhasizdir ” (“ Yashasin yomg'irlar ”, 136-bet) deya bergan soddagina, lekin jo'yali javobidan ham uning she'rni ilohiy deb bilishini anglashimiz mumkin.

2.2. Soʻz qadri, masʼuliyati, mutolaa masalalari

Alisher Navoiyning “Chunki toptim ul kalom ichra kamol” degan kalomlari necha asrlardan buyon necha-necha avlodlarni kamolga yetkazib, yana intihosi yoʻq ummonday qaʼrida maʼnaviy marvarid, olmoslarni yashirib turibdi. Ularni olmoq, nurdan, ziyodan yaralgan bu muborak ummon tubiga tushmoq kerak, xolos. Shoir sheʼri, soʻzi bilan kamol topadi, soʻzi, sheʼri shoirni kamolotga yetkazadi. Mutolaa, qalb va hayotning qatʼiy ichki intizomiga aylangan kitobxonlik esa uning didi, saviya, mahoratini yetuklikka olib boradi. Navoiy bobomizning “Muhokamat ul-lugʼatayn” asarlaridagi “...sheʼrda sehrsoz va nazmda husnpardoz shuaroning shirin ashʼori va rangin adabiyotidin ellik mingdin ortuq yod tutubmen...” degan, zamirida butun bir dorilfunun yashirilib yotgan tabarruk soʻzlarini har doim yodda tutmoq lozim. Sirojiddin Sayyid ham bir jonkuyar ijodkor sifatida yosh ijodkorlarni mutolaa qilmay qoʻyganliklarini, oʻzlariga yuqori baho berayotganliklari haqida kuyunib yozadi: “Yoshlik –umr. Vaqt oldidagi bir musobaqa. Bu shafqatsiz bellashuvda Yoshlikni behudaga Vaqtga yutqizib qoʻyish ham hech gap emas. Aks holda, Rustam Musurmon “Lalay lalaychi keldi” deganiday, ustozimizning “Ikki shoir” sheʼridagi shoirlar roʻyxatidan “munosib” joy olishimiz xavfi ham tayin:

Bir shoir arz etdi ikkinchisiga:

-Doʻstim, shoirlikdan endi voz kechgum!

Qancha intilmayin xalqning ichiga,

Sheʼrimni oʻqimas, oʻqimas hech kim.

Ikkinchisi uni yupatib dedi:

-Oldinroq ketibman men sendan koʻra.

Xalq-ku, oʻqimasdi meni ham, endi

Oʻzim ham oʻqimay qoʻyganman, joʻra.

Shunday qismatdan Xudo asramogʻi uchun yosh uka-singillarimiz shoirlikning yuz ming mehnatu zahmatidan tashqari simirib, sipqorib kitob oʻqimoqlari zarur boʻladi. Shundagina Ozod domla taʼkidlaganlaridek, “Soʻz lashkarini istagan izmiga sola bilish mahoratiga erishmoqlari mumkin”. (“Yashasin yomgʻirlar”, 179-bet)

“Mutolaa –jozib mashg’ulot, ruh va ko’ngil tarbiyasi, shul ajib tarbiya unutilayozgan tushuniksiz bir zamonda yashayotirmiz”, - deydi shoir “Otkan kunlar” yodi degan maqolasida. Darhaqiqat, kitob mutolaa qilish fikrni o’stiradi, ko’ngilni boyitadi, tafakkurni teranlashtiradi, qalbni go’zal hislar ila to’yintiradi.

She’riyat – “tongning o’ziday rost va yorqin bir haqiqat” (Mirtemir) degan edi shoir. Ustoz Mirtemir “... nimaiki yozsam, bari hayotiy bo’lishiga urinaman, - deydi. Har mavzuning o’z shakli, o’z timsoli bor, o’sha topilmasa, she’r emas. She’r asrga ohangdosh, hayotiy, aktual va asr g’oyasini tashishga qodir bo’lmasa she’r emas...”⁸ deganda Sirojiddin Sayyid izlanishlarini estetik baholagandek anglashiladi.

Chindan, she’riyat – bu hayotning satrlarga qayta ko’chirilgan ikkilamchi nusxasi emas, albatta. Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni tabiatiga ko’ra, fikrlash madaniyati taqozosiga ko’ra she’riyat – hayotning sehrli hikmatidir. Hayotiy voqelik o’zining sir-sinoatli mavjudiyati bilan anglash mushkul bo’lgan mutlaq bir hikmatdir. U o’zidan har qanaqa nusxa ko’chirishlarga orzumand emas. Sirojiddin Sayyid she’riyatining estetik ta’sir kuchi ham shundaki, sehrli voqelik bag’rida yangi badiiy voqelikni yarata oladi. Shoirning lirik qahramoni badiiy so’zning ma’naviy olam yarata olishdek sehrli salohiyatini ulug’laydi. Inson ruhoniy dunyosi iqlimlarini anglash orqali ijtimoiy voqelikni falsafiy idrok etishda kashf etgan buyuk samaralardan biri, bu – tiriklik saboqlari, hayot hikmatidir. Tog’-toshlar uqalanadi, cho’qqilar nuraydi, minoralar yemiriladi; va lekin davrlar, asrlar o’tadiki, mazmunli so’zning yashovchanligiga zinhor gard qo’nmaydi. So’zning ma’no tarovati – jilosi xira tortish nimaligini bilmaydi. So’zning qimmati aslo pasaymaydi. Shu ma’noda, she’rni nondek ushatib ko’pchilik bilan baham ko’rish mumkin. Sirojiddin Sayyidning she’riyati ana shunday taassurot qoldiradi.

Sirojiddin Sayyid “Kuygay”, “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur”, “Navoiyni o’qish”, “Ko’ksimdagi zangorlarim” singari she’rlarini o’qiganda so’z sehrining naqadar katta qudratga ega ekanligining shohidi bo’lamiz. Har bir satrga jo bo’lgan teran tafakkur, inkishof topgan katta bir tarixiy davr va odamlar taqdiri, oniylik va boqiylikning hikmatli zalvori hayratga soladi. So’z inson ma’naviy-

⁸ Миртемир. Дўстлар даврасида. Адабий ўйлар. – Т.: Ёш гвардия, 1980. – Б. 50.

intellektual hayotini qayta yarata olishdek, kelgusi avlodlarga yetkaza bilishdek bebaho salohiyatga ega ekanligidan ham dalolat beradi.

“So‘zga munosabat, aminmanki, madaniy saviyaning aniq nishonalaridan biridir, - deb yozadi Asqad Muxtor “Insonning shaxslik darajasi” maqolasida. - “Ko‘ngil mulki” degan gap bor. Bu shoirona iboragina emas, bu – ruhiyat. Insonning qadimiy yo‘ldoshi. Miloddan oldin yashagan Katta Seneka “Ko‘ngil xazinasini to‘lganda tilga so‘z keladi” degan ekan. Demak, ruh so‘zdan oldinda yuradi. So‘zlarni mantiqiy yoki badiiy tartibga soluvchi – ruhiyatdir... Injilda, “avvalo so‘z bo‘lgan, so‘z xudodandir” deyiladi. “So‘z – xudodan” – bu bir ramz, albatta. Adabiyot sohasiga tadbiq etsak: so‘z shoir va adib ruhiyatidandir⁹. Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni, so‘z azaldan ruhiy-ilohiy xususiyatga ega, deb biladi. Har kimda ruhiyat, ma’naviyat bo‘lsa, u so‘zning talabidir, deb tushunadi. Uning qat’iy ishonch-e’tiqodiga ko‘ra so‘z va ruhni, so‘z va azaliy ilohiylik tushunchasini bir biridan ajratib tashlash xavflidir. So‘zni ruhiyatdan, ilohiylikdan xoli qilganlar uni o‘zlariniki qilib olib, yolg‘onga yuz tutadilar. Ruhiyatdan mahrum bo‘lgan so‘z qanoti sinib oyoq ostiga tushadi, toptaladi.

Biz adabiyotni go‘zallik kategoriyasi, deb bilamiz. U inson qalbi, ruhiyati, ma’naviyati, hissiyoti bilan birga asta-sekin o‘zgaradi, yuksaladi, rivojlanadi. Inson hayoti mobaynida o‘z maqsadlari uchun kurashadi, ba’zan yengadi, ba’zan yutqizadi. Insonning go‘zalligi uning kurashchanligidadir. Hayot esa, kurashning ko‘p xil ko‘rinishlaridan iborat. Inson – kurash – go‘zallik. Hassos odam, adabiyotni tushunadigan odam, vatanini, elini sevadigan odam go‘zal bo‘ladi, hassos odam yovuz bo‘lmaydi. Hassos odam adolatsiz bo‘lmaydi.

Sirojiddin Sayyidning fikricha, “Shoirlik –bir umr to‘kilib borish demakdir. So‘z yo‘li –butun umr to‘kilish, kuz va bargrezon yo‘lidirki, buning bog‘i ham, bog‘boni ham shoirning o‘zidir.

⁹ Asqad Muxtor. Инсоннинг шахслик даражаси // Санъат. – Тошкент, 1991. - 7-сон. – Б. 25.

Bob yuzasidan xulosalar:

Sirojiddin Sayyidning poetik soʻzi XX asrning oxiri va XXI asr boshlari maʼnaviy-madaniy hayotimizning ajralmas, tarkibiy bir qismiga aylandi. Maʼnaviy goʻzallikka xizmat qilish, maʼnaviy boyliklar yaratishga intilish – shoirning badiiy-estetik didini qatʼiy yoʻnalishga solgan asosiy omildir. Sirojiddin Sayyid lirikasining madaniy hayotimiz rivojidagi oʻziga xos munosib oʻrni ham ana shunda. Mazkur fazilatlar shoir sheʼriyatining bosh qahramoni boʻlmish mutafakkir inson qiyofasida zuhur topadi.

Birinchidan, Sirojiddin Sayyid estetikasida soʻz sehri, ijod masʼuliyati, mutolaa zavqi, adabiy jarayon xususidagi fikrlar talaygina. Xususan, uning “Yashasin yomgʻirlar” majmuasida shoirning nafaqat hayot haqida, doʻstlik, sevgi, sheʼr, ijod, shoirlik, umuman, soʻz sanʼati haqida uning oʻziga xos qarashlari mujassamlashganligini koʻramiz. “Sheʼr “Assalomu alaykum” soʻzi singari yorugʻ, “Dunyo” soʻzi singari bepoyon, “Xayr” soʻzi yangligʻ nigoron, “Alvido” soʻzi kabi intizor va tushunarli boʻlmogʻi kerak” kabi qarash faqat Sirojiddin Sayyidgagina xosdir deya olamiz.

Ikkinchidan, Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni bugungi zamondoshlarimiz tabiatidagi goʻzallik, ezgulik, adolat kabi tuygʻularni oʻzida aks ettiradi. Uning oyogʻi yerdan uzilmagan, vatanini chin dildan sevadi, y insonga xos boʻlgan sifatlarni insonsevarlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat, muruvvat, adolatpeshalik, millatsevarlikni ulugʻlaydi. “Dil fasli”, “Soʻz yoʻli”, “Yashasin yomgʻirlar”, “Mangulikka daxldor” toʻplamlaridagi badiiy-estetik sara sheʼrlar insonni ulugʻlashi, insonni himoya qilishi va inson manfaatlari uchun kamarbastalik tuygʻularini namoyon etishi bilan fayzlidir. Mutafakkir inson shaxsiyatida zohir topayotgan mazkur bashariy gumanistik qadriyatlar shoir lirikasining maʼnaviy qimmatini belgilab beradi.

Uchinchidan, yuqoridagi tahlillarda kuzatilganidek, Sirojiddin Sayyidning “Yashasin yomgʻirlar” majmuasidagi adabiy suhbatlari orqali ayonlashgan estetik qarashlari bashariy gumanistik gʻoyalar bilan yoʻgʻrilgan. Oʻtkinchi umrlardan

abadiy go‘zalliklar yaratish, o‘chmas izlar qoldirish g‘oyalari zamonga yarashqli yashash falsafasining asosini tashkil etadi.

To‘rtinchidan, Sirojiddin Sayyid estetikasida vijdoni hamisha uyg‘oq insonning fikrlash tarzi ham olijanob soddalikka to‘yingan. U shoirning go‘zallik, ezgulik, adolat singari bashariy qadriyatlar haqidagi nuqtai nazarlarini singdirganligi boisidan ham Sirojiddin Sayyidning o‘ziga o‘xshaydi. Aniqrog‘i, Sirojiddin Sayyidning hayotiy, ijtimoiy-estetik ideallarini o‘zida mujassamlashtirgan adabiy siymodir.

III BOB. Sirojiddin Sayyid she'riyatining badiiyati

3.1. Shoir she'rlarida poetik obrazlar

Sirojiddin Sayyid birinchi to'plami bosilguniga qadar dazeta – jurnallardagi o'nlab she'rlari bilan yorqin iste'dodini namoyish qilgan, ilmiy-adabiy jamoatchilikning, keng o'quvchilar ommasining ixlos-e'tiborini qozongan edi. Sirojiddin Sayyid she'riyatimizga o'z daryolari, tog'u dashtlari-yu yomg'irlari, qaldirg'ochlari-yu shamollari bilan toshqinib kirgan shoir. Uning eng sevgan va sadoqatli mavzusi– bu Vatan. Ona yurt shoni – shavkati, sarvati, hurriyati haqida so'ylaganda ichiga sig'may ketadi. To'lib – toshib she'r aytadi. “Vatan abadiy”, “Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni” singari o'nlab majmualari, dostonlari, she'riy turkumlari Sirojiddin nomini ona yurt sarhadlaridan tashqariga olib chiqdi. Qardosh xalqlardan ham muxlislar orttirdi. She'r sehri, she'r mehri ko'ngillarni zabt eta borgani sayin sarhadlarini kengaytirar ekan. Shoirning o'zi esa ijodiga nisbatan o'ta talabchan. “Bu arzimmas bitiklarim ham o'z ko'nglim oldida, hayotim-u ko'rgan –kechirganlarim oldida ma'lum ma'noda o'zimning kamtarona sarhisobimdir. O'choqdagi o't boshqa-yu yurakdagi o't boshqa deganlaridek, yozganlarim – balki mening yana bir urinishim, ko'ngilga tomon mening yana bir cho'g'lanishimdir. Yozilmagan katta she'rlarning parchalaridir balki, bular balki kunlarim, tunlarimning bo'laklaridir, bilmayman. Nima bo'lganda ham boshimdan ko'nglimdan kechirdim shularni”. Ko'rinadiki, Sirojiddin Sayyid shoirlikni mehnat deb, qismat deb biladi. Non-tuz ichgan el-yurtning, kindik qoni tomgan tuprog'ining sha'nini yuksaltirish deb biladi.

Xalqimiz Sirojiddin Sayyid she'rlarini sevishligi, ardoqlab o'qishligi bejiz emas. Har gal “Vatan abadiy”, “Ey dil ahli, ey gul ahli”, “Bolalik qaytmadi”, “So'z yo'li”, “Dastxat”, “Shamnoma” turkumlarini qo'lga oladimi, “Ustodi avval”, “Mezon ketdi, aqrab ketdi, qavs ketdi”, “Bolalik”, “Eski uy”, “Teskariga oqqan daryolar qaytdi”, “O'rganing”, “Men ko'ngil dunyosining dog'idaman”, “Bahor ko'priklari”, “Vatanni o'rganish”, Vatan”, “Vatan nadir”, “Ilinj”, “Vatan

yodi”, “Bag’ishlov” van boshqa o’nlab she’rlarini o’qiganda doimo yangi-yangi fikrlar uyg’onaveradi. Ajib sehrli tuyg’ular girdobiga tushaveradi.

Shoir she’rlariga mahliyolikni bir so’z bilan aytganda ta’riflash qiyin. Sirojiddin Sayyid she’rlarida hayotga sezgirlik, hayotiy hodisalarga qiziquvchanlik, odamlar taqdiriga mas’ullik hissi hukmron. Shoir jo’shqin hayotining dolzarb muammolari, qaynoq nafasi og’ushida yashab kelmoqda. Shoir ijodiy individualligining o’ziga xosligi shundaki, hayotimizdagi shunday hodisalarni, odamlararo munosabat ko’rinishlarini tanlab oladiki, u shoir qalbida katta bir ilhom alangasini yoqadi. Shoirning badiiy talqini, ijtimoiy-estetik umumlashma fikrlari samarasida voqelikning ana shu mitti bo’lagi millat va Vatan taqdiriga daxldor mohiyati bilan namoyon bo’ladi.

Yurtim, menga zar kerakmas zarlaringdan,
Kipriklarim o’psalar bas gardlaringdan.
Men bir nasim bo’lib keldim, men bir nasim,
Aytib o’tsam deyman ko’hna dardlaringdan.

Menga qadim minorlarda bir sas yetar,
Shul sas mening ko’nglim axir serfayz etar.
Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar
Yassaviylar yotgan aziz yerlaringdan.

Darhaqiqat, shoir satrlari tonggi shabbodalardek dillarga pokiza o’y-xayollarni olib kiradi. Ko’nglimizda betakror obrazlari bilan muhrlanib qoladi. Gard, nasim, sas, barg, chirog’, buloq detallari lirik qahramonning mehr-muhabbatini tiniqlashtirayapti, aniq va to’liq mag’zli ma’nodorlik bag’ishlayapti. Badiiy umumlashma fikr uchun xizmat qilmoqda.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida mehnatkash zamondoshlar, o’zbek dehqoni hayot falsafasini poetik idrok etish, uning ezgulik, adolat, insoniylik haqidagi qutlug’ tushunchalarini tiriklik mas’uliyati, umrlar mohiyati bilan uzviy aks ettirish ustuvordir. Ushbu xususiyatlar shoirning dastlabki she’rlaridayoq (“Men dunyoga nomimni...”, “Navoiyni o’qish”, “Bu – sening uyingdir, “Dehqon madhiyasi”,

“Onamning kalishlari”, “Yomg’irlar va ko’z yoshlar”) kurtak tukkan, muvaffaqiyati bilan barobar badiiy tafakkur tabiatining o’ziga xosligini ta’minlagan edi.

Shoirning she’rlarini o’qiganda u haddan tashqari rostgo’y va haqiqatparvar shoir degan fikrga keladi kishi. Shoir she’riyatining tengqurlari va salaflaridan ajratib turuvchi farqli jihatlarini, eng muhim xususiyatini she’rsevar xalqimiz o’tgan asrning 80-yillardayoq, g’oyat rostgo’y va haqgo’y shoir o’g’li borligini kashf qilgan edi. E’tibor bersak, shoir she’rlarini yaxlit mujassamlashtiruvchi, odamlar qalbini sehrlab tortib turuvchi bir kuch bor. Bu –ona yurtga, mo’ysafid xalqimizga bo’lgan adoqsiz muhabbatdir. S.Sayyid she’riyatining rivojlanish yo’llarini ta’minlagan eng muhim asos ham ana shunda.

Sirojiddin Sayyid ilk she’rlaridanoq ulkan ustozlari G’afur G’ulom, Oybek, Abdulla Orif yo’lini davom ettirishga, ulug’lar ijodiy faoliyatining umrzoqligini ta’minlagan millat ma’naviy-intelektual qadriyatlarini ulug’lashga, badiiy-falsafiy tadqiq etishga intilib kelmoqda. She’r aytishni sal-palgina o’rgandim men Chinorlarda yig’lab yotgan barglaringdan, deydi lirik qahramon. Ana shu she’r mag’zini tashkil etgan So’z –bu xalqimizning yuksak insoniylik, go’zallik, adolat haqidagi ezgu tushunchalaridir, ideallaridir. Xalqimiz yaratgan boqiy moddiy va ma’naviy boyliklardir.

Bu dunyoda ko’ngillarga chirog’ yoqsam,

Mozorlarning sukutidan saboq olsam,

Tiniqqina buloq bo’lib oqib qolsam,

Olloyorlar nazar qilgan jarlaringdan,

deydi “Ilinj” she’rining lirik qahramoni. Ko’rinadiki, shoir lirikasi epik tasvir imkoniyatlari hisobiga badiiy idrok va ifoda ko’lamini tobora kengaytirib bormoqda. Bu narsa, ayniqsa, xalq hayotini tarixiy jihatdan idrok etishga moyillakning kuchayganida, insonning tarixiy shaxs sifatidagi poetik talqini berish, millat hayotining, ma’naviy-intelektual kamolining tarixiy ildizlarini yoritish, ulardan ijtimoiy-falsafiy umumlashma xulosalar chiqarishning ustuvorligida ko’rinadi. “Mardlar mingan otlarning nomardlarga xor bo’lmas”, “Muhabbatni

tashlab ketmang bog'larga", "So'z yo'li" van h.k. turkumlari S.Sayyid lirikasining yangi bosqichga ko'tarilganidan, keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolatdir.

To'lin oyning osmon sahnida to'kilib-sochilib suzib yurishini ko'p kuzatganmiz. U uzoq kezib toliqqanidanmi, yolg'izlikdan zerikkanidanmi yoki qayerdadir oshiqqanidanmi, ufq etagiga yetganda nimadandir hayratlangandek, bir zum tong qotgandek bo'ladi. Yo'q, u bizning nazarimizda shunday tuyuladi. Aslida peshonasini quyoshning yorug' manglayiga urib olgan tong yulzari yorishib ketganidan ufq etagiga oy yuzini yashiradi.

Tabiatning har kuni kuzatishimiz mumkin bo'lgan ana shu oddiy va mo'jizakor holatini bevosita adabiyotdagi, xususan she'riyatdagi yorug' hodisalarga qiyoslaging keladi. Negaki, badiiy barkamol asarning, olamgir she'rning tug'ilishi peshonasini quyosh manglayiga urib olib, hayratidan ko'zlari charaqlab ketgan tong ruhiyatini esga oladi. Bu narsa har kuni yoki oyda bir sodir bo'ladigan odatiy hol emas. U yorqin shaxsiyat egalarigagina nasib etadigan tansiq va fayziyob asnolardir. Shoir, avvalo, shaxs bo'lsagina o'tkinchi kunlar, oylar bag'ridan, olam van odam sir-sinoatlaridan, tabiat va jamiyat hayotidan ma'no topa oladi. Satrlar bag'riga joylab, ko'ngil nuri ila yorita oladi.

Shirojiddin Sayyid she'rlarida insonning o'z umri-tirikligi oldidagi mas'uliyatini, hayotini ezgu ishlarga safarbar etish burchi, odamlar koriga yarashlikdek qat'iyat ijtimoiy-falsafiy mazmunni belgilab beradi. Shoir aytganidek, odamzod ma'dan bo'lsa, vaqt bolg'a. O'tuvchi har lahza samarasiz ketmaydi. Davr, vaqt insonni pishitadi. Zamon muammolari odamni toblaydi. Ana shu jarayonda kimdir ko'mirga aylanadi, kimdir o'tinga, yana kimdir uchqunga . Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni esa o'zgacha muhitda o'sdi, kamol topib, o'z shaxsiyatini namoyish etib kelmoqda, So'qmoqlardan, oq-za'faron dalalardan za'faro so'zlar terib katta bo'ldi. Saboqni yanchilmagan somonlardan oldi. Umr isi kelib turgan choponlardan. G'arib paxsa devorlardan saboq oldi; nima nadomatu nima savob ekanligini bildi. Qirlarda bag'rini ezib, sigirlari pag'a-pag'a bulutlarga aylanib uchib ketdi. Hayot hikmatlarini darig' tutmadi. Ona kaftidagi chiziqlarni

uqib xatim chiqdi, deydi u. Kaftlarining taftlaridan kamol topadi. Ona mehri ko'ngil ko'zlariga aylanadi:

Ta'lim oldim boshloqlardan, donlardan ham,
Kulcha yuzlar hamda kulcha nonlardan ham.
Men Vatanni o'rgandim har giyohidan,
Shomlararo rayhonlarin siyohidan.

Qaldirg'ochlar lirik qahramonning to'ylarida xizmat qiladi. "Dilga ko'chdi umriy ranju aziyatlar, o'ychan keksa toklar qilgan nasihatlar". Yurtning har qarichi, har g'ubori imlo. Har bir toshi, har chinori mullo. Lirik qahramon shaxsiyati ana shunday tabiati to'kis bir muhitda shakllandi, kamol topdi, el-yurt yumushlariga kamarbasta bo'lib o'zligini namoyon etdi.

Davru zamon qalam ahlidan, shoiru yozuvchidan tom ma'nodagi so'z so'ramoqda – salmoqli, zalvorli so'z. Tarix, asr nuqtai nazaridan qaralganda, biz ayni paytda nihoyatda ulug', olamshumul kunlarni boshdan kechirmoqdamiz. Ezguliklar, yaxshiliklarga undaydigan, mehr-muhabbatga tomon ruhlantiruvchi she'ru dostonlar kerak. Mana shuni yurakdan his etgan S.Sayyid ajoyib asarlar yaratdi. Odamzodning dard bilan ezguliklar dardi bilan, elu-yurt dardi, ota-ona, do'stu-yorlar, ishq-muhabbat dardi bilan kuyunib yashashi naqadar go'zaldir.

Insonning hayotdagi o'z o'zni, o'z umrini yaxshilikka, go'zalliklar yaratishga safarbar etish masalasi har bir avlod ijodkorlarini o'ylantirib kelmoqda. Ushbu masalaga Sirojiddin Sayyid she'rlarida o'zgacha javob izlaydi. Xususan, tezkor, shiddatkor vaqt sur'atidan boqiy go'zalliklar yarata olish, hayotdan o'z o'rnini topish demakdir. Umr mazmunini salmoqli so'qmoqlar ochishga qaratish demakdir. Illo, teran ma'noli fikrgina vaqt tizginini jilovlay biladi. Bu – shaxs psixologiyasida, fikriyatida zohir bo'lgan o'zgarishlar samarasidir. Bu – ma'naviyatlarni boyitga hissiy tafakkur tabiatidandir. Demak, shaxsning aql-zakovati, tafakkur salohiyati jamiyatlar hayotiga, odamlarning tiriklik tarziga, ijtimoiy muhitga jiddiy sifat o'zgarishlari kiritishga qodir. Ushbu hol shaxs maqomiga yetishgan zamondoshlarimizning bashariy qadriyatlarga tayangan e'tiqodidan, go'zallik va adolat tuyg'ularidan bahra oladi.

Sirojiddin Sayyid ozod, dilbar Vatanni bir farzand yanglig' sidqidildan, ko'nglini osmonlarday keng ochib kuylaydi. Xoksor, mehnatkash elini, ulug' Vatanini o'ziga xos, hammaga tushunarli qilib tarannum etadi.

Shoirning qaddu bastini, qalbining qiyofasini, ko'ngil dunyosini she'ri ko'rsatadi, uning zohiri ham, botini ham o'z she'ridir.

“Mustaqil fikrlash, eng avvalo, yaxshi-yomonni anglab olish, prinsipiiallik, soflik, (Hech narsaga uchmaslik, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga bardosh berish) , o'zining haqligini himoya qila olish demakdir. Shaxs, shubhasiz, faqat prinsipiiallik, insofilik, dadillik, mardlik bilan xarakterlanibgina qolmasdan, balki vijdonlilik va olijanoblikni ham ifodalaydi”, degan edi Chingiz Aytmatov. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, nafosatni, go'zallikni, betakror badiiyat namunalarini, aslida, betakror shaxsiyat egalari yaratadi. Ushbu ijod yo'li faqat xohish-istak bilan yuzaga chhiqadigan bir narsa emas. Iste'dod va yorqin shaxsiyat go'zal badiiyat namunalariga hayot bag'ishlaydigan nurdir, aslida. U umr, tiriklik yo'lining bir bosqichi.

Dunyo sohil, dunyo sohil deb ketdilar,
Ne yo'lchilar bu sohilga kep ketdilar...
Ko'ngil asli ko'pchiliknig mulki ekan,
Atrofida uning mudom kulki ekan.
Men bularni durustgina yo'lchi desam,
Bular bari qashqir, bo'ri, tulki ekan.

Bu yo'llarda yana tashlanar ko'zga maqsad qolib eshagini quvib yurganlar (“Bu dunyoning yo'llari....” she'ri). Ne tongki, inson tafakkuri va tasavvuri, fikr-mushohada dunyosi yangi tushunchalar hisobiga bag'oyat kengayib ketdi. Inson aql-idroki nihoyatda qudratli kuchga ega ekanligini his etamiz: hayratlarga tushamiz. Van lekin, ana shunday bir jarayonda qashqir, bo'ri, tulki sifat odamlar ham bor. Ana shu xil fe'li noqis, ko'ngli kemptik odamlar bilan kurash komillik sifatlariga ega bo'lishning muhim omili hisoblanadi. Ana shu taxlit noqisliklar jamiyatning ham notugalligini ko'rsatadi. Jamiyatlarning ma'naviy-axloqiy, intellektual qiyofasini odamlar psixologiyasining

mukammallligi tayin etadi. Shunday ekan, fuqarolarning ko'ngli zanglagan va kirlangan yarimta bo'lgach, fe'li-faoliyati ham shunga yarasha bo'ladi.

Sirojiddin Sayyidning estetik qarashlaridan ayonlashyaptiki, har kim ko'ngil ko'rkini namoyon etishi, el-yurt manfaatlarini uchun o'zligini safarbar qilishi, bir chimdim umri badalida go'zalliklar yaratishi va shu tariqa, oniy umrlar boqiyiligini ta'minlashi zarurati, hayot go'zalliklarini ko'ngil boyliklariga aylantirish olish ehtiyoji zamon va inson konsepsiyasining mohiyatini belgilovchi yetakchi ma'naviy-axloqiy prinsiplardir. Shoir she'riyatidagi badiiy-estetik umumlashma fikrlar esa yaxlit birlikda mushohadakor insonning ma'naviy qiyofasini tayin etadi. Odamlar ongi-shuuri, fikri-zakovati hamisha tarbiyada, takomilda. Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni Rayhonlar bargidan siyoh oldim men. Har xasdan ruhga bir giyoh oldim men, der ekan, tabiatdan olinajak ruhoniy imdod-najotni nazarda tutadi. U ko'ngil ko'zini ham ona yurtning turna ko'zli buloqlaridan oladi. Shu ma'noda, Sirojiddin Sayyid lirik qahramoni hayotining mazmunini, umrning mohiyatini, jamiyatdagi o'rnini Vatan koriga yarashda, deb biladi. Ona-yurt tabiatidan kuch-quvvat olib, xalq turmushini yanada go'zallashtirishda, deb tushunadi. Tiriklik – umr mazmuni el-yurt uchun fidoyilikdadir. Ana shu holatda vatanparvar, millatsevar lirik qahramonning ma'naviy-intellektual qiyofasi, ruhoniy madaniyati ko'z o'ngimizda gavdalanadi. U, yana, zamondoshlarimiz psixologiyasini nurlantirishga ko'ra ham davr obrazini yaratishga xizmat qilayotir.

She'riyat yo'li hamisha og'ir kechgan. Bu yo'lning ranju sitamlari xususida uzun-uzun rivoyatlar qilish, hikoyatlar so'zlash mumkin. Bu yo'lda kimlardir chinor kabi savlat to'kib turibdi, allakimlar maysa kabi epkinlar ila shivirlab o'tgan, yana birovlar xasday shalvirab qolgan, kimlardir tuproq bo'lgan. She'riyat bu – quruqlikda yashab, osmoniy xayollarga beriluvchi dengiz jonotining kundaligidir, debdi bir g'arb donishmandi. Bobolarimiz so'zni juda qadrlashgan. Suxan degan durdir, deydi donolar. Bunda aynan she'riy suxan, nazmiy kalom nazarda tutilmoqda.

Sirojiddin Sayyidning she'rlarini o'qigan odam she'riyatning sog'inch, sevinch, alam, o'y ekanligiga yana bir karra amin bo'ladi. Shoirning she'rlari uzoq

yillar qalb va tan qal'asida to'plangan, ruh iqlimlarini makon etgan, ong va shuur zaminida ildiz otgan sog'inchlardan tarkib topadi. Shoir o'zi uchun she'r yozadi, she'ri o'zini kuydira olsa, boshqalarni ham kuydiradi:

Yomg'irlar yig'lashib sel bo'ldi, ona,
Sog'inchlar birlashib yil bo'ldi, ona,
To'planib, to'planib barcha og'riqlar,
Mening ko'kragimda dil bo'ldi, ona.

Sog'inch dilni o'rtaydi va dilning o'ziga aylanadi. Sog'inch – hamisha dilni o'rtaguvchi hissiyotdir. Tug'ilgan yurtidan olisda yurgan o'g'il sog'inchini ifodalashga so'zlar kambag'allik qiladi.

Bunchalar mehrni hech qaydan topmam
Opam –ko'nglim bo'ldi,
Ko'nglim-chi –opam.
Dardu sog'inchlarga shunchalar singdim –
Singlim – ko'nglim bo'ldi,
Ko'nglim-chi – singlim.

Munis opa-singillarini so'g'inish, ular bilan darddoshlik, sirlashish, diydorlashish shoirning orzusi, u opa-singillarini tez-tez ko'rishni istaydi, sog'inadi.

Sirojiddin Sayyid she'riyati ta'sirli hissiy timsollar vositasida ifodalangan yombi va zalvorli fikrlar she'riyatidir. Payg'ambarimizning: «So'zda sehr bor, she'rda hikmat», degan hadislaridagi ikki jihatni ham shoir o'z ijodida namoyon qilishga tirishadi. Ruhiyatning tushuntirish mushkul bo'lgan qatlamlarini tadqiq etish, hissiyotdagi eng murakkab jarayonlarni bor chigalliklari bilan tasvirlashga e'tibor o'ta kuchaygan bir sharoitda Sirojiddin Sayyid g'oyat miqyosli, qamrovli fikrlarni, go'zal badiiy topildiqlarni sodda yo'sinda, chigallashtirmay, murakkablashtirmay tasvirlash yo'lidan boryapti. Ko'pincha, she'riyatdagi soddalik jo'nlikka olib boradi. Sirojiddin Sayyid ijodida esa, soddalik teranlikka xizmat qilgan. Shoirning elaro mashhur bo'lib ketgan she'ri - «Navoiyni o'qish»ning ohang va mazmuniga e'tibor qiling!:

Har bir kalla,
Har bir bosh
Jaholatdan qo'rqishi kerak.
Har bir bola,
Har bir yosh
Navoiyni o'qishi kerak.

Har bir ota,
Har bir mo'ysafid
Umr hikmatlarin ko'rsatib,
Nafs arqonlarin qirqishi kerak.
Farzandlari, nabirasiga
Navoiyni o'qishi kerak.

Shoir chigal tashbehlar, boloxonador o'xshatishlar, zamzamali obrazlar yaratishga atay urinmaydi. Qadimiy dunyo tartibotining eng muhim bo'g'inlari bo'rtiq she'riy manzarasini soddagina misralar bag'riga joylay oladi. Chinakam shoirlik tomchida ummonni, qatim nurda quyoshni, ata-chechak bir niholda daraxtnigina emas, butun boshli o'rmonni ko'ra olish, balki she'rxonga ham ko'rsata bilishdir.

Bir haqiqat ayonki, ijodkor bir umr o'z bolaligini tasvirlash bilan band bo'ladi. Qishloqda nari borsa, o'n yetti yoshigacha yashagan adiblar bir umr shu haqda yozishadi. Negaki, ijodiy holat qay bir darajada bolalikdir. Adiblar har doim ham shoir yoki yozuvchi emaslar. Ular faqat ijod qilayotganlarida, ilhomning yulduzli onlaridagina adiblardir. Qolgan vaqtlarda hammamizday odamlar. Shuning uchun ham Sirojiddin Sayyid bolaligini doim sog'inib yashaydi:

Bolalik, men seni ko'rib turibman,
Har bir qadamingni ko'rib turibman,
Sen mening yo'qotgan qo'zichog'imsan,
Men hamon qirlardan izlab yuribman.

O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov "Ehtiyoj farzandi" kitobida e'tirof etganidek: "Men bolalagimda ko'rgan daryolar hozirgidan to'libroq oqardi, Men bolaligimda ko'rgan yulduzlar hozirgidan yorqinroq charaqlardi". Darhaqiqat, bolalik tasavvuri, nigohi o'zgacha. Bu nigoh nihoyatda ma'sum, beg'ubor. Sirojiddin Sayyidning bir umr dimog'idan bolalikdagi somonlarning hidi ketmaydi. Bolalikdagi jilg'alar – shoirlikning qon tomirlari, dashtu dalalar, qiradirlari – muqaddas varaqlari, siz ilk she'rlaringizni shu tabarruk sahifalarning so'qmoqlarida yurib, qadamlaringiz bilan yoza boshlagansiz. Aytish joizki, keyingi paytda hayot-tiriklik saboqlari Sirojiddin Sayyid lirikasiga teran mushohadakorlikni olib kirdi. Falsafiy o'ychanlik, hayotiy hikmat Sirojiddin Sayyid she'rlarining intellektual saviyasi tabiat va jamiyat tafakkuri ila to'yinib, boyib borayotganini ko'rsatadi.

Bu sham nur sochgandir qasrlarga ham,

Qancha nazmlaru nasrlarga ham.

Uning shu'lasiga fikr joylasang,

Yetgaydir eng tiyra asrlarga ham.

"Shamnoma" turkumini tashkil etgan to'rtliklar – bu umrnoma satrlaridir. Zahmatli mehnat ila kechgan umrning hikmatga aylangan sahifalaridir. Hayot saboqlaridan ko'ngilga ingan tafakkur shu'lalaridir.

She'riyatni agar olmosga qiyoslash joiz bo'lsa, falsafiy lirika uning eng keskir va ulug'vor qirralaridan biridir. Agar, olmosning olmosligi metindek qattiqligiyu shamshidek keskirlik bilan belgilanar ekan, falsafiy lirika namunalarining o'ziga xosligi qanday unsurlarda zuhur topadi?

Ma'lumki, shoirlar o'zining badiiy dunyosi bilab bir-biridan farqlanadi. Shoirlar u yoki bu satrlari bilan emas, ma'naviy-intellektual olamining rang-barangligi va teranligi bilan farqlanadilar. Chinakam shoir kitobining ilk sahifasini ochish - tafakkur olami, tuyg'u-kechinmalari dunyosi eshigini ochib kirish demakdir. Sirojiddin Sayyid ana shunday salohiyat egasi. Poetik olamni bunyod etish yo'lida qutlug' samaralarga erishayotgan, betakror tafakkur kitobining yorug' sahifalarini yaratish baxtiga musharraf bo'lgan shoir. She'rlari

mustaqillikning ma'naviy-iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga safarbar millatsevar zamondoshlarimizning o'y-fikrlarini, dardiyu quvonchlarini, "Tuproqdan xokisorroq el"ning g'am-alamlarini, anduhlarini aks ettirishga qaratilgan. Shoiring lirik qahramoni mustaqillik sharofati bilan atrof-tevaragimizda kechayotgan hayot bo'hronlarini, voqea-hodisalar mohiyatini ko'ra biladi; millat va vatan manfaatlari, shaxsning ma'nan va fikran kamoli nuqtai nazaridan baholay oladi. Bu narsa ma'naviy zarurat, intellektual ehtiyoj taqozosi tariqasida zohir bo'ladi. ("Ahmad fermer", "Farzand", "Ketmonchi qizlarga", "Hamdardlik", "Qadrdonlar", "Bu dunyoda", "Zamonning egasi", "Ilinj", "Kelib ketmoq" singari o'nlab she'rlar).

"Shamnoma" turkumining lirik qahramoni ko'proq real voqelik xossalari bilan bog'liq tesha tegmagan, ohori to'kilmagan, ibratli fikr bildirish orqali o'zligini namoyon etadi. "Xazonlarni yig'ib yoqmoqda bir chol, Ul mening yoshligim, gul chamanimdir", "To'planib-to'planib barcha og'riqlar, mening ko'kragimda dil bo'ldi ,ona", "Bu yorug' dunyoda minglab yo'l topib, O'zin topolmagan insondan ayting", "Neki bor, yetishding yelib-yugurib, Ey inson, o'zingga yetgaysan qachon?" singari.

Ota, bu dunyoda har so'z sotildi,
Begona sotildi ham do'st sotildi.
Yaxshilik istabon o'tgan umringiz
Choponday eskirdi, to'zdi, sitildi.

Lirik qahramonning tafakkur tarzi xalqona hikmatlarga yo'g'rilgan ibratli ma'nolarda ayonlashadi. O'ziga xoslikni anglaymiz. Endi, voqeaband she'rlarda esa lirik qahramon o'zgacha fazilatlarini bilan ajralib turadi. Xususan, inson va jamiyat, hayot va tiriklik mas'uliyati, umrning ma'no-mohiyati masalalari yangicha mazmunda badiiy tahlil etiladi. Zamondoshimiz dardchil, o'ychan, o'ta mushohadakor. Ko'kragini kerib tantanavor ohangda so'zlashni yoqtirmaydi. Huda-behudaga "Vatanimga jonim sadqa", "El-yurtimga umrim fido" qabilida ko'kragiga urib hayqirmaydi. Vatan, millat, el-yurt, hayot, baxt haqida og'zini ko'pirtirmaydi, chapak chalmaydi. U istiqbol, istiqbol,

birlik, hamdard, hamnafaslik, sevinchning ta'mi, sevgining rangi, odamning qadri, tiriklik ne'mati, umr hikmati, hayot shafotlari to'g'risida mulohaza yuritadi. Do'ppisini osmonga otib, karnay-surnayga berilmaydi. Ortiqcha mulozamatni, havoyi- tumtaroq gap-so'zlarni yomon ko'radi.

Shoir lirik qahramonining xomush fikrchanligi, ma'yus va dilgirliги bejiz emas. Zero, baxtning bebaqo o'tkinchiligi, iqbolning zavoli, kamolning uvoli uni hamisha og'ir o'ylarga toldiradi. Odamlarning makri, do'stning xiyonati, ishongan va qadrdon deb bilgani aslida bir qabih bir kimsaligi, hayotning qorong'u va mavhum ertasi, sevgi-muhabbat deb yonib kuyganlari bir dastro'molchadek arziyas matoh ekanligi o'ylar girdobiga tortib ketadi. Faqat yaxshilik, ezgulik, adolat boqiy yashab qolishi lirik qahramon ko'ngliga taskin yupanch bag'ishlaydi. Bir burda umri samarasiz kechmayotganidan qanoat hosil qiladi.

Kelib ketmoq o'yin ermas,

sayohat yo ziyorat.

Umr yo'li zahmatlaru

mehnatlardan iborat.

Ko'ngillarga qurdingmi bir

ko'prikmi yo imorat?

Ko'rganlaring o'zingniki,

ko'rmaganing gumondir.

Shu ma'noda "Ketmonchi qizlarga" she'ri shoirning eng dardchil, yoniq alam va iztirob alangasida bitilgan go'zal she'rlardan biri. U ketmonchi qizlar qismatiga bitilgan qasidadir. Bag'ri yongan, kuygan, xun satrlardir. Uni shunchaki loqaydlik bilan beparvo o'qib bo'lmaydi. U yig'lab o'qiladigan va o'qib yig'lanadigan ko'ksi yara she'r. Lirik qahramon ketmonchi qizlar haqida o'ylasa – o'ylari ko'ksida kuyadi. So'zlasa – so'zlari bo'g'zida kuyadi. Ketmonchi qizlar barglarday so'lg'inu shamlarday ozg'in, qovjirab dalayu tuzimda kuygan chechaklardir. Nursiz paykallarda shu'la yozmayin, tuproqqa qorishib o'chgan yaproqlardir. Husni-malohatin chanoqlar yulgan, sochlarin

gardida nasimlar o'lgan. Qizlarning tarovatiyu gul yuzini quyosh tushlikka tanovul qilgan.

Balog'at chog'ida balog'at ko'rmay,
O'n beshdan uyog'i halovat ko'rmay,
Za'faron rayhonday zabun o'tdingiz,
Davru davronlardan sadoqat ko'rmay...
Sonsiz egatlarga tizilganlarim,
Qismati ketmonla yozilganlarim.

Tunlar paykallarda horg'in kezgan oy ketmonchi qizlarning zoru mahzun yodgorligi bo'lib ko'rinadi. Baxt, iqbol muallaq van havoyi tushuncha emas. U kundalik mehnat, umr safarbarligi, turmushning tegirmon toshidek zil-zambil yukini ortmoqlash singari bir ko'p omillar orqali ayon bo'ladi. Shu ma'noda, lirik qahramonning fikr-o'ylari mubham emas, aniq. Aksincha, hayotiy voqelikdan sizib chiqishi, sub'yektiv talqinidagi ob'yektiv mohiyati bilan haqqoniy mazmun kasb etmoqda. Zamon zayli, ijtimoiy voqelik bamisoli tegirmon toshi. Ayollik nafosatiyu nazokati oftob otashida jizg'inak qovjiragan.

Sirojiddin Sayyidning lirik qahramoni dala mehnatiga bog'langan ketmonchi qizlar qismatini o'ylab teran mushohadalarga beriladi. Ular mehnatning egasi emas, og'ir, zahmatli mehnat qizlarni o'z mutesiga aylantirgan. Yoshligiyu chiroyiga, malohatiyu umr ziynatiga ketmon ega chiqqan. Bugungi kunda o'z mehnatining quliga aylanmaslikka, iroda kuchlarini dala mehnatiga topshirib qo'ymaslikka da'vat bor. O'z fikrini dadil turib yoqlaydigan, nuqtai nazarini himoya qila biladigan vijdon yo'rig'i shoir she'rining bosh qahramoni sifatida bo'y ko'rsatmoqda. Bu, insonning hayotdagi o'rni, el-yurt yumushlariga yaray olishi, faolligi bilan bog'liq zuhur topadi, degan so'zdir. Inson o'z fikriy salohiyat bilan olov bo'lib lovullab yonadi; aksincha, ko'mirdek kuyib tugamaydi.

Bu – ma'naviy-intellektual jasorat demakdir. Vijdon pokizaligi, iymon salomatligi Sirojiddin Sayyid she'rlarining bosh qahramoniga aylanmoqda. Hayot go'zalligini kimlar ta'minlayapti, degan savolga beixtiyor ravishda “Ketmonchi

qizlar-da”, deb javob berasiz. Bu sof vijdon amri, pokdomon vijdon yo’rig’idir. O’z salomatligi va go’zalligi evaziga elini to’kin, yurtini chiroyli qilayotgan ketmonchi qizlar jamiyat gullaridir, hayotimiz tojidir.

Lirik qahramoning fikr ziyosi shundaki, u hayotda “Yaxshi odam kimu, yomon odam kim”, “Yaxshilik nimadayu, yomonlik nimada?” degan savollarni ko’ndalang qo’ymasdan, asl insoniy go’zallik bilan ma’naviy-axloqiy komillik, aslida, vijdon pokligidir, degan nuqtai nazarni yoqlayapti. Hayotdagi haqsizlikka, huquqsizlikka ishora qilmoqda, O’z e rkining xojasi emasligida. Inon-ixtiyorini, iroda kuchlarini zamona zayliga topshirib qo’yganligida.

Sirojiddin Sirojiddin poetik obrazlari ona zamindan, o’zbek tuprog’idan kuch-quvvat oladi. Qanot bog’lab ko’kka ko’tariladi. Shoir she’rlarida ona o’lkamiz tabiati, gulzorlarining ifori bo’yi-tarovati, qiradirlaru ko’m-ko’k osmonning hidi, rangi balqib turadi. Zamondoshlarimizning orzu-kechinmalari, o’y-fikrlari, go’zallik idealiyu adolat tuyg’ulari o’z ifodasini topadi.

O’zga manzillardan izlamang bizni, Yoronlar, biz dilga, biz dilga ketdik, deydi shoirning lirik qahramoni.

Dil dedim, dil yo’lin xolis yo’l ko’rdim.

Dil tomon yurdimu olis yo’l ko’rdim.

Do’stlar, bu manzilga yetguncha, go’yo

Ming yil talpindimu ming yil yo’l yurdim.

Keyingi yillar o’zbek lirikasi taraqqiyotida Sirojiddin Sayyidning ijodiy izlanishlari fayzli, muhim o’rin tutadi. “Saksoninchi yillar”, “Xotira” publisistik poemasi, “Shamnoma”, “Bozor ijodiyoti”, “Dumaloq odam”, “Ey dil ahli, ey gul ahli”, “Vatan ozod bo’lsin”, “Sog’inch torlari”, “Dastxat”, “So’z yo’li”, “Mardlar mingan otlaring dushmanlarga xor bo’lmas”, “Muhabbatni tashlab ketmang bog’larga” singari turkumlari she’riyatimiz janr imkoniyatlari qanchalar kengligini tasdiqlaydi. Sirojiddin Sayyidning olam bilan odam sir-sinoatlarini, shaxs va jamiyat psixologiyasini anglash hamda tushuntirish borasida muttasil izlanayotganligini isbotlaydi.

Shoirni orzu-istaklari bir olam inson qiziqtiradi. Insonning fe'li-atvoridagi qusurlar uni qiynaydi, bu o'tkinchi dunyoda dili va tili birlar borligini e'tirof etadi, dunyo sinoatlarga to'la ekanligidan hayratga tushadi, yaxshilikning yashovchanligiga imon keltiradi.

Xudo dargohida ochiqsan, inson,
Dunyo korgohida nechuksan, inson?
Jahonga sig'mayin yelmoqlar nechun,
O'zing-ku zarrada kichiksan, inson?

Ha, ana shu zarradan ham kichik inson mangu savoldir. U dunyodan nima istashini bilmaydi goho, olamni o'zi istaganday boshqarishni, o'zi istaganday yashashni xohlaydi. Tabiat bilan hisoblashmasdan uning abadiy qonunlariga xiyonat qiladi va o'zi ham tabiatning bir bo'lagi sifatida azob chekadi, avval ishni qilib, keyin o'ylaydi ba'zan. Zarradan ham kichik insonning qalbi olam qadar ulkan. Unda shoir aytganidek, bashar yashaydi, dunyo istiqomat qiladi.

Sirojiddin Sayyid izlanishlarida to'rtlik, g'azal, sakkizlik, latifa, rivoyat, doston, muxammas kabi poetik janr va shakllardagi badiiy barkamol namunalar yaratildi. Shoir she'riyatining mavzu-masalalar ufqi kengayib, usluban boyib borayotganligini ham ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy mavzularni badiiy idrok va ifoda qilishda achchiq istehzo, falsafiy mushohadakorlik, publisistik da'vat, o'ychan psixologik kechinmalar, yengil yumor unsurlari, hazil ohanglariga singdirilgan fojeiy haqgo'ylik balqib turadi. Bular esa, o'z navbatida Sirojiddin Sayyid lirikasining janr tarkibini boyitishdan, ijtimoiy-falsafiy umumlashma fikrlar, hayotiy ma'nodorlik, psixologik tahlil tobora chuqurlashib borayotganidan ham dalolatdir.

Quyida biz shoirning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni haqida fikr yuritamiz.

Asarda "...mardlik va matonat, g'urbatu firoq, mehnatu alamlarga to'la umrning yuz lahza, yuz holatini qo'limdan kelgancha ifodalab berishga harakat qildim"¹⁰, - deb yozadi muallif doston muqaddimasida. U "Boburnoma"

¹⁰ Sayyid S. Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O'zbekiston, 2010.

sarhadlarini kezib, "har so'zning rostini bitilgan va har ishning bayoni voqeini" tahrir etilgan holatlarini shoirona qalb, ko'ngil ko'zlari bilan qayta badiiy idrok etadi.

Har vaqtgi, ko'rgasen mening so'zumni,

Soz'imni o'qub, sog'ingasen o'zumni, -

deya bashorat qilgan Mirzo Boburning jon o'rtar she'riyatining eng nozik nuqtalaridan bahs yuritadi.

An'anaviy dostonlardan farqli o'laroq, "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostoni yaxlit sujetga, ma'lum bir izchillikka ega emas. Ammo dostonning bir butun voqeaband asar kabi taassurot uyg'otadigan, ichdan payvandlab-yaxlitlab turadigan bir jinati bor. Bu – Sirojiddin Sayyidning e'tiborini tortgan yuz lavha, yuz holatning markazidagi Mirzo Bobur siymosi. Binobarin, yuz holat, yuz lavha ham Mirzo Boburning e'tirofi yoki e'tirozi. Muhabbati yoki nafrati, hayrati yoki havasi. U tuygan ruhiy og'riqlar va chekkan alam-iztiroblar ifodasi.

"Boburnoma"dagi ko'z ilg'amas, ammo yurak, qalb bilan his etiladigan teranlikni kashf etgan Sirojiddin Sayyid ma'lumotini kuzatuv darajasidagi matnlarni va ular zamiridagi hayotiy ma'no va tuyg'ularni qayta badiiy idrok etadi. Ularning har biridan Mirzo Bobur ruhoniyyatiga, uning insoniy mohiyatiga yo'l qidiradi. Chunonchi, "Boburnoma"da Mirzo Boburning Hindiston va Qarshida uchraydigan bag'riqora deb nomlanivchi qushni solishtirib yozgan kuzatuvi Sirojiddin Sayyidning diqqatini tortgan: "Yana Hindiston bag'riqorasidur, ul bag'riqoradin kichikroq va ingichkaraktur. Bag'rining qorasi ham kamdur. Uni ham andin inichkaraktur".

Jahonda hech kishi men singari ovora ermasdir,

Biror ko'ngil mening ko'nglim kibi sadpora ermasdir.

Ayo, ey, bag'riqora qush, agar bag'ring qarodur, lek

Mening bag'rimdagi dog'lar misoli qora ermasdir.

Ma'limki. "m'ano so'z so'zga urishtirilganda voqe bo'ladi. Zero, so'zning so'zga urilishi – bamisoli bong, uning jarangi tasavvurimizda qandaydir tushunchalar, narsalar, manzaralar, qiyoslarni- bir so'z bilan aytganda, assotsiyalarni,

assotsiyatsiyalar zanjirini uyg'otadi"¹¹. Sirojiddin Sayyidning "Bag'riqora qush" deb nomlanuvchi bag'ishlovda ovvora, sadpora, bag'riqora, qora sifatlari o'zaro qofiyalanib, she'rdagi poetik ma'no va ohangdorlikni kuchaytirib, ayni paytda, har biri ko'ngilga nisbat berib qo'llanganligi uchun obrazlar assotsiyasini yuzaga chiqaryapti. Mtaforik isrok etish orqali o'quvchi Mirzo Boburning bavatnlik, yurt sog'inchi tufayli chekkan iztiroblar dostonida bag'riqora qush timsolida mahorat bilan kashf etilgani guvohi bo'ladi.

"Boburnoma"da 1525-yil voqealari bayonida Mirzo Bobur shunday yozadi: "Oxshom andin ko'chub, Ali Masjidga tushuldi. Bu yurtning torlig'idin doyim men bir pushta ustiga tushar edim, cherik eli tamom bir ko'lda tushar edikim, men tushgan pushta borig'a mushrif edi. Kecha cherik o'tidin ajab yaxshi charog'on bo'lur edi...".

Bu parchada tepalikda turib, pastda navkarlari yoqqan gulxanning shu'lasida charog'on bo'lib ketgan kechadan zavqlanayotgan Mirzo Boburning tinimsiz rihiy evrilishlar girdobida birda cho'kib, birda qalqib borayotgan mardona ko'nglini ko'ramiz. Sirojiddin Sayyid aynan shu bag'ishlovini "Ko'ngil" deb nomlagan va bu bilan matnning ma'nodorligi, ta'sirchanligini kuchaytirgan:

Desam yoru diyorimdin-xiromon bo'lgan, ey, ko'nglim,

Sog'inchu dardu yodlardin farovon bo'lgan, ey, ko'nglim.

Qorong'u, so'ngi yo'q tunlar, uzoq hijronli ellarda,

Cherigim yoqsa gulxanlar-charog'on bo'lgan ey, ko'nglim (112).

Yulduzsiz, oysiz kecha, yorsiz, diyorsiz hijronzada Mirzo Bobur ko'ngli. Yuqoridagi satrlarda mohiyatgaingan ta'sirchan bir qiyos tasvirga muayyan yaxlitlik bag'ishlagan. She'rda nurga yo'g'rilgan iztirob va Boburga xos nekbinlik bor. Eng muhimi, shoir sinchi ijodkor sifatida real voqelikni badiiy voqelikka aylantirish jarayonida Mirzo Boburning mardona xarakterini ko'rsata olgna. Har qanday jangu jadallar, saltanat dag'dag'alari ortidagi qon to'kishlar, muntazam ot ustida, qo'lida qilich-qalqonu, egnida temir sovut bilan ham o'zining yoniq yuragini, shoir ko'nglini saqlab qololgan nazokatli Mirzo Bobur qalbidagi

¹¹ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent: Akademnashr, 2010, 40-bet.

shukronasi shu qadar baravjki, qayta-qayta taqdir zarbalaridan chilparchin bo'lib ketgan Mizro Bobur yana matonat bilan qad rostlashga o'zida kuch topadi. Birgina misol: Fasllar tarovati Bobur nazmida ayricha latofat va muzayyanlik kasb etadi. "Bahor ayyomidur, dog'i yigitlikning avonidur", yoki "Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbat" deb boshlanuvchi g'azallarning matlaasidayoq ko'ngilni orziqtiruvchi surur, ma'no va zavq bor.

Sirojiddin Sayyidning diqqatini tortgan kuz fasli manzaralari "Boburnoma"da quyidagicha tasvirlanadi: "...tonglasi Bog'i Vafoga keldim...sahnlari tamom se bargazor, anor daraxtlari sap-sarig' xushrang xazon bo'lubtur. Dushanba kuni xazon sayriga Istalifga borildi... Namozni digar bo'la Behzodiyga keldik. Xazonlar asru xo'b bo'lub edi. Xoja Shihobga tushub uyquladik. Xeyli yaxshi xazon edi".

Kuz bag'ridagi tabiat Mirzo Bobur qalamida shunchalar mohirona aniqlik bilan chizilganki, beixtiyor oltin tusga kirgan Bog'i Vafo xoki poyida yotgan "sap-sarig' xushrang xazon"larning sirli shiviriga quloq tutib, xayollar og'ushida bir-bir odimlab ketayotgan Mirzo Bobur ko'z o'ngimizda gavdalandi. Shu onda Javoharla'l Neruning: "U san'atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko'rardi", - degan so'zlari yodimizga tushadi.

Darvoqe, Sirojiddin Sayyidning "Boburnoma"dan keltirilgan ko'chirmasida yana shunday tasvirlar borki, bu Neruning Mirzo Boburga bergan ta'rifining ayni haqiqatligini isbotlaydi: "...Istarg'achning oyog'idagi podhsohiy bog'ini sayr qilildi. Bir olma niholi yaxshi xazon bo'lib edi, har qaysi shoxida besh-olti barg siyoq bila qolib edi, andoqkim, agar naqqoshlar takalluf bila tortsalar, oncha torta olmog'ay edilar".

Mirzo Bobur o'z umri g'unchasini xazon yaprog'iga almashtirgan olma daraxtining ko'rku tarovatiga qarab, musavvir tabiatning san'atiga qoyil qolar ekan, bu zarif holatni qog'ozga tushira oladigan rassomning mahoratiga ham shubha bilan qaraydi. Ruhshunoslar o'ziga ishongan va umid bilan yashaydigan

insonlar sariq rangga intiladilar¹², deydilar. Beixtiyor Bog'i Vafoni kezib yurgan Mirzo Boburning "daraxtlari sap-sarig' xushrang xazon bo'lubtur" degan e'tirofi orqali buyuk shoir ruhiyatining yana bir qirrasini kasf etgandek bo'lamiz.

Bobur o'z asarida safarlar, sarguzashtlar va kurashlarini aks ettirgan. She'rlarida esa ko'ngil va ruhiy kechinmalarini aks ettirgan. Quyidagi she'ri bu fikrimizni isbotlaydi:

Xazon yafrog' yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim,

Ko'rub rahm aylagil, ey, lolarux, bu chehrai zardi.

Butun she'riyati sog'inch va iztiroblarning samimiy ifodasi talqinidan iborat bo'lgan Mirzo Bobur lirikasida "yor", "diyor", "ko'ngil" faol timsollar sanaladi. Shoirning deyarli barcha g'azal va ruboiylarida tez-tez takrorlanadigan bu timsollar uning ruhiy olami, ijodining mazmun-mohiyatini namoyon qiluvchi obrazlardir. Bunday poetik timsol va g'amli tashbehlar, Mirzo Boburning og'ir qismatidan, uning vatanda yiroqda, sog'inch iztirobi bilan kechgan azobli kunlaridan darak qilgandek bo'ladi. "Gul", "chaman", "Latofat gulshani", "xazon yafrog'i" kabi obrazlar sifatida yurt hajrida o'rtanayotgan Mirzo Bobur tasavvurida tiklangan Vatan, undan olisda yashayotgan shoir qiyofasini anglatadi. O'zga yurtlarda "Vatan topa olmagan, taxt topganida ham baxt topa olmagan" Mirzo Boburning bir oqibatli farzand sifatida o'z diyoriga shunchalar mehru muhabbati buyuk ediki, uning doim latofat gulshani bo'lib qolishini, gul, chaman yanglig' ko'rk ochishini istardi: "Latofat gulshanida gul kibi sen sabzu xurram qol". Shoir o'zini beshafqat umr kuzining qahrli shamollari uzoqlarga uchirib olib ketgan xoksor xazon yaprog'iga qiyoslaydi. "Men archi dahr bog'idin xazon yafrog'idek bordim".

Sirojiddin Sayyid ham o'zining "Xazon fasli" bag'ishlovida Mirzo Bobur yuragidagi Vatan hasratini teranroq ochishni "xazon" timsoliga yuklaydi. Bag'ishlovga Mirzo Boburning yuqorida keltirilganimiz xazon sayli bilan bog'liq xotiralari asos bo'lgan. Dostonda shoirning tafakkur yolqini oddiy hayotiy hodisaga bamisoli shu'la sohib, unga cho'g' tashlagan, gulxanga aylantirgan,

¹² Timsollar tilsimi (Ramz, belgi va timsollar tasviri). Tuzuvchi D.Mingboyeva. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007, 117-bet.

deyish mumkin. Muallif o'sha cho'g'ni, aslida, shoir Mirzo Boburning otash ko'nglidan olgan.

Bog' xazonu tog' xazonu jumlayi olam xazon,
Tildagi nolam xazonu, dildagi lolam xazon.
Kelgil, ey gul, sen mening fasli xazonrezimni ko'r,
Bo'lmagan olam mendek hech biror odam xazon.
Siz to'kilmoq darsini mendan oling, ey bog'lar –
Kim, xazonim oldida ming bog' xazoni kam xazon .

Mizro Bobur she'riyatidagi an'anaviy obrazlarga suyangan holda Sirojiddin Sayyid gul timsolida Vatan, xazon timsolida shoirning o'zini ko'radi. Mirzo Bobur lirikasida armonlari qat-qat shoir ko'ngli gulning g'unchasiga o'xshatiladi: "Mening ko'nglumki, gulning g'unchasidek tah-batah qondur, Agar yuz ming bahor o'lsa, ochilmog'i ne imkondur". Sirojiddin Sayyid esa shoir ko'nglini kuzakka boy berilgan lola obraziga o'xshatadi. Bu poetik tashbeh ham muallifning muvaffaqiyatli topilmasi, chunki lola bag'ridagi qora dog' alamdiya shoirning ko'ngil holatini yaqqolroq ifoda etadi.

"Ey gul", -deya Mirzo Bobur tilidan Vatanga xitob qiladi muallif, - "Sensiz xazon bo'ldim. Sensizligimning oqibatini ko'r: men bir uyum odam xazonga aylanib qoldim". Oldindagi misralardagi "bog' xazon", "tog' xazon", "Olam xazon" ifodalarini "odam xazon" ham ohang, ham mazmun jihatdan to'ldirib, lirik qahramon dramtizmini yanada kuchliroq namoyon etishga xizmat qilayapti.

Istarg'achning podshohiy bog'ida kuzak shamollariga bo'y bermay, olma shoxlarida turib qolgan xazon yafroqlari Mirzo Boburni qanchalar hayratlantirgan edi. Sirojiddin Sayyid xuddi shu holatni tabiatning "to'kilmoq darsi" deyayotgandek, inson o'rganishi, saboq olishi kerak bo'lgan dars. To'kilmoq darsini ko'p va xo'p o'rgangan Mirzo Bobur o'zining umr manzillarida yuksalish nuqtalarini ham to'g'ri belgilay oldi. Bu sarbaland nuqtalardan biri, shunhasiz, "Boburnoma"dir.

Javoharla'l Neru o'zining mashhur ta'rifida Mirzo Boburning dilbarlik, mardlik, tadbirlilik xislatlarini alohida ta'kidlaydi. Mardlik, tadbirlilik uning

shohlik sifatlari bo'lsa, dilbarlik –shoir Mirzo Boburning odati, shoir Mirzo Boburning ko'ngil sifati. Dilbar so'zining yoqimli, suyukli, ko'ngil oluvchi degan ma'nolari bor. Bizningcha, milliy adabiyotimizning tarixida ham, bugunida ham o'z ko'ngil holatini o'quvchisiga Mirzo Boburchalik yuqtira olgan ijodkor bo'lmasa kerak. Sirojiddin Sayyidning "Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur" dostonini mana shu tarixga qilingan xayrli va ezgu safarning ibratli bir samarasi deya baholash mumkin.

3.2. Shoir she'rlarida badiiy-tasviriy vositalar

Har qanday ijodkorning asl qiyofasini uning tili belgilaydi. Shu ma'noda, Sirojiddin Sayyid tamomila o'ziga xos shoirdir. To'g'ri, u ham boshqalar foydalanib yurgan so'zlarni ishlatadi. Lekin u bu so'zlarni kitobdan olmaydi. Kitobdan olingan so'z obrazga yopishmaydi. Badiiy matnda ham begonaligi bilinib turadi. Sirojiddin Sayyid so'zga ayrica bir erkinlik bilan yondashadi. U har qanday asov so'zni ham yuvvosh torttiradi. So'zni ruhga bo'ysundira biladi. O'zi so'zning emas, ruhning stixiyasi yetovida yuradi. Oddiygina so'zdan faqat Sirojiddin Sayyidga xos tasvir uslubini vujudga keltira oladi.

Sirojiddin Sayyid qamrovi keng tafakkuri qudratli, qalami mo'jizakor san'atkor shoir. Ana shu xislatlari bilan xalqimizning qalbidan o'rin olgan. Binobarin, u ijtimoiy faoliyatida, adabiy ijodida insonni, insoniylikni ulug'lashni, kuylashni o'zining oldiga oliy maqsad qilib qo'ygan edi. Bu chinakamiga badiiy kashfiyot darajasiga ko'tarilgan adabiy asarning zavqi, ta'sir quvvatini ko'rsatadi. Badiiy kashfiyotning g'oyaviy yuksakligi, tasviriy ta'min etuvchi barcha vositalar san'atkorning bilag'onligi, topqirligi, tafakkur qudrati, xayolotining hayotiyligini namoyon qiladi. Ana shu ma'nolarning muhim bir omili san'atkorning xalq tilidan o'rinli, mohirona, uquvli foydalanishi tufayli ro'yobga chiqadi. San'atkor qalamning o'rinli harakatidan yangi ma'no nozikliklari mujassamlashadi, yangi obrazli birikmalar paydo bo'ladi. Bular tasvirga oro beradi, misra yoki jumlaning estetik ta'sir kuchiga kuch qo'shadi, hayot hodisasini aniq anglashga imkon yaratadi. Shu tariqa xalq tili xazinasining individual iste'mol qimmatini hosil bo'ladi. Bu san'atkorning uslubini belgilalovchi, individualligining – mustaqilligining anglatuvchi muhim omillardan sanaladi.

She'r so'z deb ataladigan ulkan dengizning marjonu javohirlar tizmasi, yurak atalmish buyuk va betimsol qudratning shiddatli sinoati, otashin ruhning mayin nafasi, mahzun ko'ngil torlarining serishva ohanglari uyg'unligidan tajassum topgan yuksak san'at ifodasidir. She'rning biru borligini, badiiy libosi, nafosat olamini ta'minlovchi asosiy manba esa qalb qo'riga yo'g'rilgan badiiy tasvir vositalari bo'lib, ular shoirning o'ziga xos ijodiy salohiyatini, san'atkorlik

mahoratini ham aniqlab beradi. Chunki bir shoir o'z asarlarida chuqur falsafiy va mantiq kuchi bilan, boshqa bir shoir dilni qitiqlovchi lirizmi bilan, yana birov so'z gavharlarini poeziya ipiga marjondek chiroyli qilib tizishi bilan, yana biri o'z she'rlarining qo'shiqday ravon, ohangraboligi bilan va yana biri esa maxsus badiiy tasvir vositalaridan mohirona foydalanib, obrazli manzaralar chizish bilan o'quvchi qalbini maftun etadi. Maxsus badiiy-tasviriy vositalarni o'z o'rnida qo'llash, uni g'oyaviy maqsadga xizmat qildirish – so'z san'atkorlaridan o'ziga xos mahorat talab qiladi.

Shoir she'ri, so'zi bilan kamol topadi, so'zi, she'ri shoirni kamolga yetkazadi. Shoirning ko'ksida boshqa iztirob-armonlari qatorida o'qilmagan, o'qilishi shart bo'lgan kitoblarning dardu armonlari ham butun umri davomida zirqirab og'riydi.

She'riy nutqning badiiy bezagini namoyon qiluvchi ana shunday tasviriy vositalar maxsus ilmiy atamalar bilan poetik ko'chimlar deb ataladi. Poetik ko'chimlar faqatgina bezak vazifasini o'tamasdan, balki asar g'oyasini konkretlashtirishning realistik vositasi ham hisoblanadi. Badiiy adabiyotda, asosan, she'riyatda poetik ko'chimlar nihoyat ko'p va rang-barang ko'rinishlarda ishlatiladi.

Ming yillik tarixga ega bo'lgan adabiyotimizda badiiyat masalasi hamisha she'r ahlining diqqat markazida turgan. U yoki bu ijodkor salohiyati haqida so'z borganda, uning nimalarni tasvirlagani emas, asosan, qanday tasvirlanganiga e'tibor qaratilgan. Jumladan adabiy asarlarda she'riy san'atlardan foydalanish mahorati hamma asrlarda badiiy san'atkorlikning asosiy qirralaridan biri sifatida baholangan.

Ma'lumki, she'riy san'atlar badiiy asarda ifodalangan g'oyalarning hayotiyroq, ta'sirchanroq ifodalanishiga, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalaniriligiga, misralar, baytlar, bandlarning lafziy nazokati, musiqiyligi, jozibadorligini ta'minlagan.

U yoki bu shoir ijodiga, u yoki bu badiiy asarga baho berilar ekan, ijodkor ifodalayotgan g'oya o'z aksini topgan ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy, ma'rifiy-

tarbiyaviy muammolar mohiyati va ko'lami, badiiy timsolar jilosi bilan bir vaqtda qo'llangan she'riy san'atlarning rang-barangligi, mantiqiy asoslanishi, asar mazmunini ochishdagi o'rni va ahamiyati kabi masalalarga alohida diqqat qilingan.

Adabiyot tarixi yana shundan dalolat beradiki, she'riy san'atlar shoir badiiy salohiyatini ko'z-ko'z etish, uning xilma-xil san'atlardan mohirona foydalanish usullarini namoyish etish emas, balki ijodkor badiiy tafakkur dahosinig ko'lami, yuksak ijtimoiy-axloqiy g'oyalarni jilolantirish san'atkorligi vositasi bo'lib kelgan.

Sirojiddin Sayyid poetik ko'chimlardan o'rinli foydalangan. U poetik ko'chimlardan mohirona foydalanib, nazmning ohangdor va go'zal namunalarini yaratganligiga guvohmiz. Shoir she'riyatida majoziy ma'no tashuvchi an'anaviy poetic obrazlar bilan bir qatorda turfa rang yangi shakl va yangi mazmundagi poetic ko'chimlar ham ustalik bilan ifodalab berilgan. Bu esa ijodkor she'rlarining badiiy ko'rkamligi, estetik ta'sirchanligi yanada yuqori darajani egallashiga zamin hozirlagan, lirik qahramon ruhiy dunyosini, qalb kechinmalari, alam va shodliklarini inkishof etgan:

Hasrat o'chog'ida o'tinman, yomg'ir,
Qismat qirg'og'ida tutunman, yomg'ir.
Bunchalar muloyim, iliq yog'ursan,
Onam yig'ladimi bu tun ham, yomg'ir?

Mazkur misralarda jonlantirish ("jonlantirish" hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatlarini ko'chirish san'atidir) vositasining bir ko'rinishi bo'lmish apostrofa(yunonch – og'ish)ni ustalik bilan qo'llagan shoir, jonsiz hodisa bo'lmish yomg'irga murojaat qilib, uni jonlantirish orqali lirik qahramon yuragidagi dard-hasratlarni oshkora ochib to'kkan.

Ma'lumki, badiiy adabiyotda "yomg'ir" – "ko'z yoshi", "g'am-qayg'u" ning ramzi sanaladi, shu bois shoir she'rda tabiat hodisasi bo'lmish "yomg'ir" ga jonli tarzda murojaat qilgan hamda "yomg'ir" va "hasrat", "ko'z yoshi" tushunchalari o'rtasidagi ma'naviy-ramziy uyg'unlikni ta'minlagan. Shuningdek, yomg'irning muloyim, iliq yog'ishidan lirik qahramon yuragining "Onam yig'lamadimikan?"

degan iztirobli o'y-xayol bilan o'rtanishini tasvirlash orqali uning ichki kechinmalarini o'quvchi qalbiga yanada ishonarli va ta'sirchan tarzda yetkazib bera olgan.

“Hasrat o'chog'ida o'tinman”, “Qismat qirg'og'ida tutunman” deya shoir original poetik topilmalar tanlab, lirik qahramon vujudini kemirayotgan, ruhini yemirayotgan alam va iztirobning, dardu hasratning meyoridan nihoyat darajada oshib borayotganligini hazing ohangda tasvirlagan. Lirik qahramon murojaat qilayotgan “yomg'ir” esa apostrofa vositasida shoirning g'oyaviy-badiiy niyatini tashuvchi poetik obraz darajasiga ko'tarilgan. Bunday holatlar Sirojiddin Sayyid ijodida ko'plab kuzatiladi:

She'riyat, sen abadiy
Ranju ozor yo'limsan.
Dardu hijron dashtida
Uzatilgan qo'limsan...

Sehrsiz sohillardan,
Mehrsiz manzillardan
O'tib keldim, men seni
Unutdingmi anorim?...

O'kinma, dil, dunyo bir kun
firog'lardan qaytadi,
Mehr senga sen kutmagan
Qarog'lardan qaytadi.

Bir unut dunyodan kelgil, ey shamol!
Bu tun eshigimda esgil, ey shamol!
Ko'ksimga bosh qo'yib, silab jonimni,
Mujda yoshligimdan bergil, ey shamol!

Yuqoridagi she'rlarda shoir "she'riyat", "anor", "dil", "shamol" singari tushunchalarga bevosita murojaat qilib, ulardan lirik qahramon "men"ligini, ichki dunyosi, ruhiy olamini yoritishda muhim vosita sifatida foydalangan va oqibatda mazkur tushunchalar oddiy So'z shaklidan poetik obrazga aylangan. Shunisi e'tiborliki, ushbu murojaatlarda lirik qahramonning, asosan, iztiroblari, mehr-muhabbat, shod-hurramlik, baxtu sevinchga tashna yuragi poetic kashf qilingan. O'quvchi she'r mazmuni bilan tanishib borar ekan, go'zal badiiy tasvirlar vositasida lirik qahramonning alamlarini, orzu armonlarini to'la his qiladi, uning ko'ngil olamini chuqur tushuna oladi, dil asrorini ko'z ongida aniq gavdalantiradi. Bu esa ijodkorning yuksak badiiy nafasat, o'ziga xos iste'dod sohibi ekanligini takror-takror ta'kidlab turadi.

Garchi xasdan baland, kasdan kamdirman,

Dostim, senga yondosh quvonch, g'amdirman.

Termiziy bobodan qolgan shamdirman,

Ming yil puflasang ham aslo o'chmayman.

To'rtlikda "quvonch", "g'am" so'zlari qarama qarshi ma'noli so'z bo'lib, tazod san'atini yuzaga keltirgan. Dunyo ziddiyatlarga to'la. Inson qalbi ham xuddi shunday. Shoir bu so'zlarni qo'llab an shu azliy yondosh tushunchalarni ifodalagan. She'rda yana talmeh san'ati (Termiziy) ham qo'llangan bo'lib, u orqali shoir o'zining haqiqiy yurt farzandi ekanliga ishora qiladi, vatanida yashab o'tgan buyuk ajdodi bilan faxrlanadi, uning dunyo ishlariga munosabati ayon bo'ladi. Vatan mavzui soxtalikni, yolg'onni ko'tarmaydi. Sun'iylik gavhar donalali ichidagi mis tangaday darrov bilinib qoladi. Albatta, shoir odam avvaldan o'ylab, tayyorgarlik ko'rib, "bu kecha Vatan haqida bir she'r yozay", deb she'r yozmaydi. Har qanday she'r, avvalo, ko'ngilda tuf'ilmog'i, o'sib-unmog'i shart. Vatan haiqda dildan samimiy yoziladi. Xuddi osmondagi chaqmoqdek, daryo toshqinidek. Biz qadim yurt farazandlarimiz. Og'ir, zalvorli tog'lar, xomush adirlarui tilsiz minoralardan tortib, jim-jit maqbaralar va gumbazlarga qadar, azim bobo chinorlardan to osmonlargacha yastanib, yuksalib ketgan yurtda toshlarning ham yurak-bag'ri bor, qadim mozorlari sassiz, tovushsiz sadolarga ko'milib yotibdi.

Ulug' ajdodlarning mangu o'ychan nigohlari, hazrat navoiy, mashrabning horg'in siymolariyu Furqat, Muqimiylar, Qodiriylaru Cho'lponlarning tilsiz-zabonsiz ko'zlari umidvor tikilib turibdi. Bu mulkda ko'ngliga bir gapni solgan kishi shu mo'tabar sukutlarni, ular zamiridagi qatlam-qatlam so'zni o'ylab, shu ulug'vor Vatan ehtiromini saqlab so'z aytishi kerak. Sirojiddin Sayyid ana shunday so'z ayta oldi.

Dunyo yaralibdiki, mehnat va tashvish, baxt va baxtsizlik, nur va soya, ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, oq va qora doim yonma-yon yashab kelmoqda, bu dunyoning yozilmagan qonuni. Xuddi shuningdek insonning fe'lidagi xulq-atvori ham dunyo qadar ko'hnadir. Shoir "Yashasin, yomg'irlar" nomli kitobida: "...shoirlik nima, she'riyatni qanday izohlash mumkin? Gulmidir, rayhonmidir, jambilmidir, nima u? "Nodonga xomushlig'din yaxshi narsa yo'qtur, - debdilar shayx Sa'diy Sheroziy, - agar muni bilsa erdi, nodon bo'lmas erdi". Ul zot "Guliston"da yana bir tamsilni keltiradilar:" Bir chayondan so'rdilarkim, qishda nima uchun tashqariga chiqmassan? Chayon dedi: "Yoz chiqib na hurmat ko'rdimki, qishda chiqib na hurmat ko'rgayman?". bu keltirilgan tamsilar nurli hikmatlardir. Hikmatlar tushuniladi, idrok qilinadi, his etiladi. Sirojiddin Sayyid she'rlari ham ana shu kabi hikmatlardir, ularni tushunish, idrok qilish zarur.

Sirojiddin Sayyid hozirgi adabiy jarayonda faol ishtirokchi, o'z uslubi va o'z ovozigiga ega iste'dodli So'z san'atkoridir. Ijodkor she'rlari xalqchillik ruhi bilan sug'orilgan, mumtoz ohanglarga yo'g'rilgan, betakror poetik topilmalar, go'zal tasviriyy vositalar uyg'unligidan tajassum topgan Oliy badiyat mevasidir. Shoirning har bir she'ri, har bir bayt, har bir jumlasini o'ziga xos alohida iste'dod namunasi, badiiy tafakkurning yuksak nishonasi darajasida qimmat kasb etadi.

Shoir she'riyatida xalqonalik sifati mujassam. Uning Vatan haqidagi she'rlari ona haqidadir, ona haqidagi she'rlari ayni paytda Vatan haqida hamdir.

Bir qarashda jo'n va sodda tuyulgan satrlar tizmasiga teran nigoh tashlasangiz, yangidan yangi ma'no qirralari kashf etila boradi. To'g'ri, ba'zi o'rinlarda shoir ko'zlagan maqsad va g'oyani, tafakkur qirrasini tezda ilg'ash mushkul. Ijodkor yuksak badiiy nafosat sohibi sifatida shunday poetik topilmalar

qo'llaydiki, poetik ko'chimlardan nihoyatda ustalik bilan foydalanadiki, lirik qahramonning aynan nima demoqchi ekanligini, shorining aynan nimani nazarda tutganligi sirli holatda o'quvchini ancha o'yantirib qo'yadi, falsafiy mushohadaga chorlaydi. Bu bir tomondan, ijodkorning nozik dilini, o'tkir nigohi, badiiy mukammal tarbiyasini namoyon qilsa, ikkinchi jihatdan, she'rning mazmuniy ko'lamdorligini, rang-barangligini ta'minlashga, badiiy-estetik ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Mana shunday she'rlardan biriga murojaat qilsak:

Oy nurlari yoyiladi sayhonlarga,
Tomlar osha o'tar so'ngra ayvonlarga.
Ayvonlarda niholdayin kelinchaklar
Nechun ma'yus tikiladi osmonlarga?

misralari bilan boshlangan she'rda shoir mazkur bandni ikki o'rinda (1- va 2-bandlar) qo'llaydi. Mazmun bilan tanishganda ko'z oldingizga chiroyli manzara gavdalanadi: Oydin oqshomda samodan taralayotgan oy nurlari sayhonlarga, tomlarga, tomlar osha ayvonlarga sekin va sirli tarzda yoyilib boradi. Ayvonlarda esa niholday nozik va nafosatli kelinchaklar ma'yus nigoh bilan osmonga tikilib turibdi. Shoir oddiy hayot hodisasini So'zning sehrli qudratidan mohirlik bilan foydalanib, nihoyatda go'zal va ta'sirchan lavha yaratgan. Ammo mazmunda mohiyat yashirin. Shoirning aynan nima maqsadda bunday mushohada yuritayotgani, misralar qatiga qanday mohiyat yuklangani, lirik qahramonning qanday maqsadlarda tabiatning jo'ngina hodisotidan ulkan sinoat yaratayotgani mazkur bandda yashirin va sirlidek ko'rinadi, o'quvchini lirik qahramonning o'z-o'ziga berilayotgan savoliga beixtiyor javob izlashga undaydi. Bir qaraganda, "Kelinchaklar osmonga nima sababdan ma'yus tikilayapti? Ular yuragidagi dard, ko'zidagi mung nima ekan?" degan savol tug'ilsa, yanayam chuqurroq nazar tashlasangiz, shoir "ayvondagi niholdayin kelinchaklar" deganda nimani nazarda tutdi ekan, aynan kelinchaklarmi yoki majoziy ma'nodami, degan savollar fikringizni chulg'ashi tabiiy. Bizning nazarimizda esa, shoir o'tayotgan umrini Oy nurlarining yoyilishga (chunki oy nurlari bir nuqtadan sekin yoyilib boradi, umr ham yil sayin ulg'ayib, kengayib boradi), "ayvondagi kelinchaklar"ni esa, qalbida

yashayotgan muqaddas orzu-umidlarining najot, ro'yo istab Osmonga tikilishiga qiyoslayotgandek. She'ning keyingi bandlari ham ushbu bandga uyg'un holda davom etadi. Lirik qahramonning armonlarga do'st bo'lgan ko'nglidan, hajru hijronlarga yo'rgaklangan dunyodan, rayhon xayollarining payhonidan shikoyat qiladi, dil hasratlariga to'kib soladi.

Sirojiddin Sayyid she'riyatida go'zal bir ifoda topgan "Ko'ksimda bir qamish kuy chalar - siniq", "Judolik jadvalin tuzib ber menga", "Shabnamday sochilgan osmonlarimni", "So'ylatib o'tarman so'ngaklarimni", "Osmon boshing uzra sehrli ko'zgu", "Tunlar yaproq yanglig' yig'laydi ko'ngil" singari misralarda qo'llangan poetik vositalar faqatgina lirik qahramonga ayon bo'lgan dil tug'yoni, fikr-kechinmalarni ifodalash bilan birga shoirning o'ziga xos uslubini ifodalasa, ikkinchidan, o'quvchining badiiy tafakkuri, falsafiy mushohadakorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda shoir iste'dodining yana bir e'tiborli jihatini namoyon qiluvchi quyidagi she'rga ham badiiy nigoh tashlasak:

Soching hasratida har yon yig'idir,
Qoshing qay jallodning xunxor tig'idir.
Zulfing ostidagi pinhon holing ham,
Qaysi bir oshiqning qorachig'idir.

Ma'lumki, "soch", "qosh", "zulf", "xol" singari tushunchalar mumtoz adabiyotda ma'shuqa go'zalligini sifatlovchi an'anaviy obrazlar sanaladi. Sirojiddin Sayyid esa mohir so'z san'atkori sifatida obrazlardan o'rinli foydalanib, yangidan yangi poetik ifodalar yaratadi, she'ning estetik ta'sir doirasini kengaytiradi. Qoshni jallodning o'tkir tig'iga, zulf ostidagi chiroyli xolni oshiqning ko'z qorachig'iga o'xshatish, sifatlash orqali shoir "xol" va "qosh"ni oddiy tushunchadan poetik obraz darajasiga ko'targan. Bunday ijodiy holatlar, mohirona badiiy kashfiyotlar faqatgina Sirojiddin Sayyidga tegishli bo'lgan poetik ko'chim namunasidir.

Bu kabi go'zal ifodalarni shoir ijodidan ko'plab topish mumkin. Masalan: "Otang bozor, onang bozor, Sen bozorda tug'ilding. Qo'shig'ing, taronang bozor, Shu qo'shiqqa yo'g'rilding" misralarida "otang - bozor, onang - bozor" maqolini

qo'llab irsoli masal san'tini hosil qilgan. Yoki, "Qirlar uzra tuproq kechib, kezib dashtu soy, Bizlar bilan somon tashib yurar edi oy" kabi kishini beg'ubor dalalarga undaydigan misralarda oyning somon tashishi ham mubolaga, ham jonlantirish san'atiga misoldir. Bu ham shoirning mahoratidan darak beradi.

Alisher Navoiyning "Chu toptim ul kalom ichra kamol" degan ulug' kalomlari necha asrlardan buyon necha-necha avlodlarni kamolga yetkazib, yana intihosi yo'q ummonday qa'rida ma'naviy gavharlarni yashirib turibdi. Inson kamoli, so'z kamoli. Shoir she'ri, so'zi bilan kamol topadi, so'zi, she'ri shopirni kamolga yetkazadi. Shoirning ko'ksida boshqa iztirob-armonlari qatorida o'qilmagan, o'qilishi shart bo'lgan dardu armonlar ham butun umri davomida zirqirab og'rib turmog'i zarur.

Ma'naviy muammolarga shoir ijodida ko'p marotaba murojaat qilinganligini ko'ramiz. odam qachon fikrlashdan, o'sishdan to'xtaydi? Qachonki, faqat qornini o'ylasa, nafsiga nasihat bermasa. "Odamzot" nomli she'rda an shu masala ko'tarilgan:

Qancha suruvlarni odamzot yedi,
Barra shirvozlarni yedi odamzot.
Semiz qo'chqorlarning boshiga yrti,
Ayting, qay manzilga keldi odamzot?
Turib ilik yeydi,
Go'sht yeydi uxlab,
Zarra parvosi yo'q kitobga, kuyga.
Hozir u yotibdi qornini silab,
O'zi ham aylanib qolganmi qo'yga?

Shoir nafs haqida original tarzda fikrlab, go'zal misralarni yaratgan. U o'ziga xos fikrlash tarzidan borib, olis o'tmishga nazar tashlaydi, ya'ni "qancha suruvlarni yedi odamzot", deydi. Dunyo yaralgandan beri nafsining quli bo'lgan odamzot qancha semiz qo'chqorlarning go'shtini yedi va oxiri kelgan joyi shu yergacha bo'ldi. She'rda bir necha marta "yedi" so'zi qo'llangan. Lekin odamzot faqat qornini o'ylayaptiyu, ammo kitobga, kuyga parvosi yo'q. Shoirni

o'ylantirgan narsa mana shu aslida. "O'zi ham aylanib qolganmi qo'yga?". Hech narsa bilan, olamning dardi, tashvishi, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga befarqlik, loqaydlik kabi illatlar insonni odamlikdan chiqaradi, yani qo'yga aylantirib qo'yadi. Shoir odamni aynan qo'yga o'xshatmoqdaki, qo'y faqat qorni to'ysa bas, yotadi uxlab.

Bu dunyodan hech kimsa
bus-butun chiqqan emas,
Odamzotdan tog' chiqqan,
bir ustun chiqqan emas.
Ko'ngli egri kaslardan
To'g'ri zotlar chiqmagay,
Qiyshiq mo'ridan hech vaqt
Rost tutun chiqqan emas.

Keltirilgan she'rda sifatlash san'atidan nihoyatda unumli va o'rinli foydalanilgan. E'tibor bering: "ko'ngli egri", "qiyshiq mo'ri", "rost tutun" kabi birikmalar shoirning badiiy topilmalaridir. Egri ko'ngil iborasi xalq tilida mavjud. Mo'ri qiyshiq bo'lsa, tutun yaxshi chiqmaydi. Bu o'rinda shoirning mahorati shundaki, "rost" so'zini iyhom san'ati sifatida qo'llagan. Bunda rost so'zi to'g'ri degan ma'noni beradi, aslida. Lekin she'rda ko'ngli egri kishidan to'g'ri fikr hech qachon chiqmaydi, degan fikr bor. Ulug' o'zbek adibi Asqad Muxtor o'zining "Tundaliklar" nomli asarida: "Bir narsa haqida hadeb bir xil fikrlaydigan odamni aslo prinsipial ekan deb o'ylamang, chunki u bir narsa haqida ikki xil fikrlashni bilmaydi, xolos", degan edi. Demak, hayotda har bir narsaga dialektik nuqtai nazardan qarash kerak ekan. Oqni ham, qorani ham o'z nomi bilan atash lozim.

Shoir she'rlarida xalqonalik kuchli namoyon bo'lgan:

Qarindosh ham gohi-gohi yot bo'lar,
Eshakman deb g'am yema, uyot bo'lar.
Maxtumluli bobo aytib ketganday:
Davlatmandlar eshak minsa ot bo'lar.

She’rda majozilik ustun. Xalqda “Og’zi qiyshiq bo’lsa ham boyning o’g’li gapirsin”, “Kambag’al kiysa qayerdan olding, boy kiysa muborak bo’lsin” kabi maqol va iboralar mavjud. Xuddi shuning kabi shoirning ushbu she’rida ham boy eshak minsa ham ot deb hisoblanadi, deyilmoqda. Boyning gapi donolik, kambag’alning gapi nodonlik hisoblanadi. Boy kelsa to’rga, kambag’al kelsa yerga. Shoir xalq donoligining zohiran ixcham, mazmunan purma’no iboralaridan, maqollaridan o’rinli foydalangan.

Inson yaralibdiki, umr nima, inson umrining ma’nosi nima, yashashdan ma’no nima kabi mangu savollarga javob izlaydi. Ba’zan bu savollarga javob topgandek bo’ladi, ba’zan esa yo’q. Bu qadim dunyoda yashamoq ilmi shunchalar murakkab va mukammalki, uni o’rganib chiqqaningda umr nihoyasiga yetgan bo’ladi, u esa bir marta beriladi. Demak, inson umri qayta takrorlanmaydigan tajriba-sinov ekan. Shunday ekan, inson bu sinovdan omon-eson o’tishi uchun yashash ilmini yaxshi o’zlashtirgan bo’lishi zarur. Mana shoirning qisqa satrlari:

Umr - bir sog’inchdir,

Umr – bir og’riq.

U tomoni zangor,

Bu tomoni sorig’.

Bu dunyo, u dunyo –

Ayri bog’,

Kelib ketgusimiz

Aylab sayribog’.

Shoirning xulosasi oddiy va tushunarli: biz sayribog’ qilgani kelganmiz. Shoir hayotni oddiylashtirmoqchidek nazarimizda. Bu dunyo bilan u dunyo ayri bog’ ekan, biz yashaydigan dunyo bir bog’ bo’lib sayribog’ qilish esa hayotdir.

Yuz ming g’amdir bu olam,

Yuz ming g’amga qaloshib

Oshiqlari o’tgaylar

Yuz ming o’ru qir oshib.

Dunyoning oshig'i inson. Qanchalar qiyin bo'lmasin, og'ir bo'lmasin, inson yashashga ishtiyoqmand, uning bu og'ir dunyodan ketgisi kelmaydi, xuddi ma'shuqa qancha jabr-sitam qilsa ham oshiq undan kechmagani misoli. Shunday ekan, inson bu dunyoda baxtli yashashi kerak, toki umr so'nggida afsus-nadomatlar chekmaslik uchun, pushaymonlar bo'lmaslik uchun. Hayotni ezgu amallar, yaxshi ishlar, foydali odatlar, go'zal xulq ila o'tkazmoq darkor ekan. Sirli olam hodisotlari shu qadar murakkabki, uni sirlarga yetish ham shunchalik murakkabdir.

Yaxshilik qil – elu yurtning,
do'sti yoru begonaga yaxshilik qil.
Eng avvalo – o'z onangga
Hech bo'lmasa – o'z onangga
o'xshaydigan bir onaga
yaxshilik qil!

Shoirning ezgulikka chorlovchi satrlari qalbimizga nurday oqib kiradi va uni go'zallik bilan oshno etadi. Zero, yaxshilik bor joyda yomonlik qilib nima foyda bor deb o'ylay boshlaysiz. Sher'ning ezgu kuchi xuddi shu yerda. Dunyoda onaday aziz, mehribon, tanho zot yana bormi? Yo'q! Bo'lmaydi ham, sababi bu olamda ona tanho, vatan tanho. Bu ikki egizak tushuncha qalblarga singib ketganligi bois ham mo'tabardir. Onani ulug'lagan odam, albatta, vatanini ham ulug'laydi, bunga shubha yo'q.

Sirojiddin Sayyidning quyidagi bir to'rtligiga e'ribor bering:

Bir kunda sotildilar
Otilmagan shoirlar.
Bir tunda otildilar
Sotilmagan shoirlar.

Bu qadar qisqa va lo'nda xulosadan nimalarni tushunish mumkin? Mamlakatimiz tarixida ro'y bergan qora kunlarga ishora qilinmoqda. Millatimizning qanchadan qancha fidoyi farzandlari yurt ozodligi uchun kurashgan, xalq baxt-saodati yo'lida jon kuydirgan bir vaqtda yurtning asl

farzandlarini “millatchi”, “vatan xoini” kabi mudhish tamg’alar bilan ayblab, turmalarga tashlanishiga sabab bo’lganlar “otilmagan shoirlar”dir. Sotqinlik, qabohat, razolat botqog’iga botganlar o’z xalqi oldida yuzlari shuvut va vijdonlari nopok. “Sotilmagan shoirlar” esa o’z e’tiqodida sobit tura olgan, imoni butun, vijdoni toza, boshiga qilich kelganda ham rost so’zlaydigan, xalq manfaatini o’z manfaatidan ustun qo’yadigan haqiqiy yurtparvar insonlardir. Bular: Qodiriy, Cho’lpon, Usmon Nosir, Fitrat kabi yurt fidoyilaridir. Sirojiddin Sayyidning mahorati shundaki, qisqa satrlar bag’riga katta tarixni joylay olgan.

Sirojiddin Sayyid she’rlarida tarixiy shaxslar hayoti haqida ko’plab fikr yuritiladi. Shulardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Sirojiddin Sayyid Bobur haqida yozar ekan, shunday dahozotni qadrlamagan beqadr odamlardan nafratlanadi:

Buncha uzun oh tortdingiz, oh Bobur,
Muttahamlar dunyosida shoh Bobur.
Andijonu Hindu – yetti iqlimda
Topilmadi Sizga bir dodxoh, Bobur.
Ollohimning dargohlari keng, lekin
Sig’dirmadi Sizni bu dargoh Bobur.
Kecha uzun, manzil olis, yo’l uzoq,
Sizga faqat yolg’iz oy hamroh, Bobur.
Nonko’r beklar, beoqibat mirzolar,
Kimlar Sizga qazmadilar choh, Bobur!

She’rni ko’zdan kechorganimizda, unda shoirning kuyunchak qalbini ko’ramiz. Shunday buyukzotni qadrlamagan kimsalarni ayovsiz fosh etadi, ularganafratini oshkor izhor qiladi. Bobur yashagan muhitni “muttahamlar dunyosi”, atrofidagi beklarni “nonko’r, beoqibat” deya ta’riflaydi. Tarix bizga ato etga buyukne’matni ham asray olmaganimizda shoirning qalbi ahduhlarga to’lib ketadi.

Qatag’on yillarida ham millatning asl farzandlari tazyiqu ta’qibga uchradilar. Ularni sotqin shoirlar sotdilar va shu yo’l bilan o’zlarinigjirkanch basharalarini ochdilar, iflos jonlarini asradilar, lekin avlodlar oldida sotqin degan

nomga ega bo'ldilar. Haqiqat egiladi, lekin sinmaydi. Yurtning asl farzandlari yana yurtga qaytdi, lekin nomard va sotqinlar xalq qalbida salbiy xotira sifatida yashaydilar.

Olam ziddiyatlarga to'la, zero, harakatning manbai ham ziddiyatdadir. Shoir zid ma'noli so'zlarni o'z o'rnida qo'llab tazod san'atini yuzaga keltirgan: "Yakkalik yaxshidir yomon ulfatdin, Yakkalikdin ko'ra bir yaxshi hamdam"(yaxshi-yomon). Shoir yomon suhbatdoshdan yolg'izlikni afzal ko'radi, lekin yolg'izlikdan ko'ra yaxshi hamfikir bilan o'tirsang undanam yaxshidir, deydi.

Ey, dunyo, jonimni qovurgan dunyo,
Borimni ellarga sovurgan dunyo
Mening ingrayotgan qovurg'am dunyo,
Yarmi xas, yarmi bo'lgay tuprog'im,
Kiprigingga qo'ngan g'uboring menman.

She'r "Ey dunyo" degan xitob bilan boshlanmoqda. Va birdan "jonimni qovurgan dunyo" deya dunyoni insoniylashtiradi, ya'ni dunyo insonga xos qovurish harakatini bajargan. Bu so'z zamirida olamning dardu-alamlari, nomutanosibliklari nazarda tutiladi. Dunyoning kiprigiga qo'ngan g'uborni shoir o'ziga o'xshatadi.

Bu kabi o'xshatishlarni ko'plab uchratamiz. E'tibor bering:

O'ylasam o'ylarim ko'ksimda kuygay,
So'ylasam so'zlarim bo'g'zimda kuygay.
Barglarday so'lg'inu shamlarday ozg'in,
Qayirib dalayu tuzimda kuygay.

Misralardagi barglarday, shamlarday so'zlari o'xshatish bo'lib, bu o'xshatishni –day qo'shimchasi orqali hosil qilingan.

Qanday o'g'il bo'ldim sizga, qanday jigar,
Mendan avval bahor sizdan olgay xabar.
Maysa bo'lib ko'karib ham, ota, yana,
Menga taskin bermoqdasiz bu tong sahar.

Bu she'rdagi metonimiya (jigar – farzand so'zi o'rnida) qo'llangan. Bulardan tashqari shodmon – motamsaro, yaxshilik – yomonlik, quvonch – g'am va boshqa tazodlar qo'llanganligini ko'ramiz. Lirik qahramonning yurak nidosi – bu ko'ngilchanlik, yig'loqi pessimizm yoki irodasizlik emas, balki jasorat to'la tuyg'ular isyonidir. Qalbi yig'layotgan shoirning vujudidan sizib chiqqan bu misralar ko'ngillarga o't qalaydi. Shoir talqinida inson, jamiyat o'z gunohi-yu xatolarini tan olsa, tushunsa, bu – vijdon uyg'oqligining o'zidir. Poklik sari, adolat sari olg'a qadamdir. Bunday inson jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini poklashga safarbar iymoni but shaxsdir. G'alayonli bir zamonda u ajdodlar ruhini chirqiratmaslikka, barcha ellarni birlashishga, kelajagini obod etishga chaqiradi. Munglug' qismat, achchiq-alamli kechmish, davr ma'suliyatini his etish yangi dunyoni bunyod etishga undaydi.

Inson ruhiyatining murakkabligi, ziddiyatlari bilan ko'rsatish, yorqin xarakterlar yaratish, voqelikni badiiy tadqiq qilishda umumbashariy g'oyalarni ilgari surish shoir badiiy niyatining yana bir xarakterli belgilaridir. Eng muhimi, ana shu g'oyalarini to'kis badiiy shakllarda, obrazli til vositasida ta'sirchan ifodalay olgan.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida lafziy san'atlarni ham o'z o'rnida qo'llaganligini ko'ramiz.

Muhabbatni tashlab ketmang bog'larga,
Ermak bo'lar, xor bo'lar u zog'larga,
misralrining birinchi baytida qo'llangan “bog'larga”, “zog'larga” soz'lari qofiyadosh so'zlardir. Shoir qofiya yaratar ekan, u so'zlarning ma'nolarni to'la leksik mohiyatini ocha olgan.

Ko'ksingizda olib o'ting dog'alarni,
Muhabbatga tashlab keting bog'larni,
misralarida “o'ting” va “keting” so'zlari ichki qofiyadir.

Shoir mukarrar san'atini o'rinli qo'llab, misralarning ta'sirini kuchaytirgan:

Ko'klardagi to'lin-to'lin oyday vatan,
Osmon desam, toshqin-toshqin soyday vatan,

misralardagi “to’lin-to’lin”; “toshqin-toshqin” so’zlari mukarradir.

O’rtamizda o’sdi devor, o’sdi devor,
Meni sendan, seni mendan to’sdi devor.
Ikkimizga nedir bo’ldi, sezdi devor,
Oxir bizning ko’nglimizni buzdi devor,

misralarida takrir san’ti qo’llngan. Takrir ham ma’noni bo’rttirishga, kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shoir - ko’ngil odami. Shu sabab u bilmasdan birovning dilini ranjitib qo’yishdan qo’rqadi. Shoirning “Nom” dostonida na shunday iztiroblar tasvirlangan. O’zi bilgan azador xonadondan ko’ngil so’rashga vaqt topolmayotganidan yuragidagi xijillik ketmaydi. Keyinchalik esa “SHo’rliklarning dardini yangilab nima qildim” degan o’yga boradi, ikkilanadi. Vaqt o’tsa-da borilmasa musulmonchilikdan bo’lamaydi. O’tgan banda o’spirin, buning ustiga qandaydir betayin urush sabab shahid ketgan o’n besh ming begunohlardan bo’lgani uchun ham shoir uni “urush ko’rmagan otalarning urush ko’rgan bolalari” deb ataydi.”Iztirobning qora hoshiyasi” quyuqlashadi. Bu jarayon kechgan sari “qora hoshiya” yanada quyuqlashib boradi: o’lgan kishining ismdosh bo’lganidan “oz isming..”ning “o’zingga xalal berayotganini anglab...” qolasan, deydi shoir. Oradan ancha vaqt o’tgan bo’lsa ham peshvoz chiqqan otaning vujudidan ketmagan “g’am qorasi” va “tuganmas anduh”ni shoir yuragida his qiladi go’yo.

Hovlining ko’rinishi ham azadorga o’xshaydi shoir nazarida. “...Yon tomondan yangi imorat tushgan. Yangi eshik, yangi romlar-hali bo’yalmagan ham, oyna ham o’rnatilmagan. Otona kelin tushiramiz deb orzu etgan uyi...” azagacha qanday bo’lsa shundayligicha qolgan, qancha-qancha orzu-niyatlar bilan qurilishi boshlanib oxiriga yetmay mung chekib qolgan uydagi “Sinchlar til chiqarsalar-osmon yonib ketardi, ostonaga zabon bitsa - shahar sel bo’lib oqmog’i muqarrar!”

Afg’on yerlarida kechgan urush qanchadan – qancha onalarni zor qaqshatmadi. Ona nolasidan necha-necha vujudlar larzaga kelmadi. Hatto “xontaxacha keladigan” temir tobut ham qismatidan sim’sim yig’lagandir. “...Xudodan emas bandasidan ko’raman bolam, bolam... tirik ketgan bolamni,

bo'yi ikki metrlik bolamni tobutga solib qaytarishdi... Tobut kichkina xontaxacha keladi...tobutni ochirgani qo'yishmadi". Ona buvining nolasidan keyin qoraygan hoshiyaga mum sursang ham qora chizmas.

Do'stlari kelsayu kelmasa bolam,
Do'stlari kulsayu kulmasa bolam.
...Sahar kosalarga qaymoq to'lsayu,
Keksaygan bu ko'nglim to'lmasa, bolam.

Misralar qatidagi alam, mung, iztirob zamonga bo'lgan beayov aybnomadir. Yo'qlov yurakni ezadi, ko'zlardan yosh duv-duv to'kiladi, qalblar iztirob chekadi. Onaning o'g'li rassom edi, ijodkor edi. Shoir uning kechinmalarini "Bo'yoqlarim hidini sog'indim" deb ifodalaydi:

Ota, men haqimda gapirib bering,
Meni so'rab kelganlarga, yo'qlaganlarga.
Hech kimga bildirmay xonamga kiring,
O'zim chizib ketgan o'z suratimga,
Ota, men haqimda gapirib bering.

Shoirning holat yaratishdagi mohirligi ko'rinib turibdi. Misralardagi ezgin ruh qalblarimizni larzaga soladi. Maqsadsiz, bema'ni, xalqimizning yigitlariga qirg'in olib kelgan urush bizni ham cheksiz alam chektiradi, g'amga oshno etadi.

Tunlar derazamda mo'yqalamlaring,
Dumli yulduzlarday suzaveradi.
Oynaning muzlagan varaqlariga,
Sening suratingni chizaveradi.

Qabristonda yotganlar nima sababdan bu yerda yotganlarini bilmaydilar:"Va marmar lavhalardan jilmayib turgan ma'sum, ma'yus o'smirlar nima sababdan bu yerdqa yotganlarini bilolmay zor-zor termuladilar" Bularning uvoli bir kun aybdorlarni tutadi, albatta. Lekin bundan ularga nima foyda? Buning uchun shoir o'zinin ruhlar oldida gunohkor sezadi:

Jonsiz surat bo'lib boqib turganing,
Va men tirik turganim-chun kechirgin meni.

Jon omonat, unga xiyonat qilishning iloji yo'q. Rassom yigitning chizgan suratlari she'rga ko'chadi. Demak, "hayot shovullaydi bilmay nihoya". She'rdan ulkan ma'naviy ozuqa olamiz. Davr jarohatlariga malham bo'lgimiz keladi. Inson hayoti bilan hazillashmaslik kerakligini anglaymiz.

Bob yuzasidan xulosalar:

1. Shoir she'rlarining tahlilidan ma'lum bo'ladiki, Sirojiddin Sayyid yuksak mahorat egasi. Buni u yaratgan go'zal she'rlar, poetik timsollar, betakror poetik tasvirlar isbotlaydi.

2. Sirojiddin Sayyid izlanishlarida to'rtlik, g'azal, sakkizlik, latifa, rivoyat, doston, muxammas kabi poetik janr va shakllardagi badiiy barkamol namunalar yaratildi. Shoir she'riyatining mavzu-masalalar ufqi kengayib, usluban boyib borayotganligini ham ko'rsatadi. Ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy mavzularni badiiy idrok va ifoda qilishda achichiq istehzo, falsafiy mushohadakorlik, publisistik da'vat, o'ychan psixologik kechinmalar, yengil yumor unsurlari, hazil ohanglariga singdirilgan fojeiy haqgo'ylik balqib turadi. Bular esa, o'z navbatida S.Sayyid lirikasining janr tarkibini boyitishdan, ijtimoiy-falsafiy umumlashma fikrlar, hayotiy ma'nodorlik, psixologik tahlil tobora chuqurlashib borayotganidan ham dalolatdir.

3. Sirojiddin Sayyidning betakror she'rlari mazmunan yetuk, shaklan go'zaldir. Ularda ifodalangan tuyg'ular sofliqi, musaffoligi, dilga yaqinligi bilan diltortardir, ko'ngillarni entiktiruvchidir.

Xulosa qilib aytganda, shoirning badiiy mahorati yuksak, ifoda uslubi sodda va xalqonadir.

UMUMIY XULOSALAR

Badiiy tafakkurga yangilik olib kirish, har bir she'rdagi fikr va tuyg'ular yangiligiga erishish, xalqona va soddalik, yumorga moyillik, ma'no jihatdan shaffofligini ta'minlash Sirojiddin Sayyid she'riyatining asosiy xususiyatidir.

O'ziga xos xalqona jaydari falsafaviy, salmoqli sahroyi fikrlashlar, teran mushohada va olovli hissiyotlar egasi bo'lgan shoir she'rlari boshqa bir ruhoniylar dunyo yaratayotir. Ma'nan va fikran komil odamlar ana shu dunyoning barkamol fuqarolari bo'lishni xohlaydi. U nurli kunlar guvohi bo'lish ilinjida umidvor hayotbaxsh satrlar tuzadi.

XX asrning 70-yil boshlari ijod sahniga kirib kelgan avlod adabiyotimiz xazinasini boyituvchi, komil shaxs tarbiyasi uchun xizmat qiluvchi iste'dodli asarlari bilan badiiy madaniyatimiz tarixidan nufuzli o'rin egalladi. Sirojiddin Sayyid ijodi shular jumlasidandir.

Davr o'z ijodkorlari oldiga hamisha muhim muammolarni ko'ndalang qo'yadi. Shular orasida ma'naviyat ekologiyasi eng muhim, kechiktirib bo'lmaz vazifalardan biridir. Bu, ruhan va fikran komil shaxsni kamol toptirish, shakllantirish masalasidir. Shoirning lirik qahramoni mana shu mas'uliyatni ado etish uchun bor imkoniyatlarini sarflaydi.

Sirojiddin Sayyid - iste'dodli va izlanuvchan shoir. U tafakkurining yangiligi, teranligi, ruhiyat shoiri ekanligi bilan e'tiborga sazovor. Uning she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos soddalik, lo'nda ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi. 2006 yilda unga «O'zbekiston xalq shoiri» unvoni berildi.

U izlanuvchan, iste'dodli va ko'pqirrali shoir sifatida o'zbek she'riyati rivojida o'z o'rniga ega. Sirojiddin Sayyid hozir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari bo'lib ishlamoqda.

Shu kungacha Sirojiddin Sayyidning «Ruhim xaritasi», «Salqin xarsanglar kaftida», «Sevgi mamlakati», «Asragil», «Mehr qolur, muhabbat qolur», «Kuydim» va «Vatanni o'rganish» kabi bir qator she'riy to'plamlari nashr bo'ldi. Agar uning birinchi «Orzu» nomli she'ri 1975 yilda chop etilgan bo'lsa, birinchi

to'plami «Ruhim xaritasi» nomi bilan 1985 yilda bosilib chiqdi. Sirojiddin Sayyid - hamisha uyg'oq shoir. U dunyo va qishlog'ida, zamondoshlari, do'st-u yorlari qalbida kechayotgan o'zgarishlardan, yangilanishlardan voqif.

Sirojiddin Sayyidning ona Vatan haqidagi tuyg'ulari yangi nur, yangi ruh kasb etgan. «Vatan abadiy» (2001) «Ustimizdan o'tgan oylar» (2003), «Ko'ksimdagi zangorlarim» (2005), «Qaldirg'ochlarga ber, ayvonlaringni» (2006) nomli she'riy to'plamlarida Sirojiddin Sayyid she'riyatida xalq og'zaki ijodiga xos sodda, lo'nda ifoda usuli mumtoz adabiyotimiz ohanglari bilan uyg'unlashib ketadi.

Sirojiddin Sayyidning poetik obrazlari fikrni timsol darajasiga ko'taradi. Bunda hayotiy faktlar falsafiy mushohadalar yuritish uchun keng imkoniyat beradi.

Shoir she'riyatida ilgari surilgan bosh ma'noga ko'ra jamiyat ham, inson ham komillik maqomiga yetishi kerak. Lirik qahramon zamondoshlari ma'naviyatidan mana shu komillik belgilarini axtaradi. Jamiyat oldidagi mas'uliyatini yuksak darajada bajara olmayotgandek o'z-o'zidan qoniqmaslik tuyg'ulariga, mulohazalariga berilib, mutafakkirona badiiy tadqiqot olib boradi. Uning "Ruhim xaritasi", "Saqlin xarsanglar kaftida", "Sevgi mamlakati", "Asragil", "Mehr qolur, muhabbat qolur", "Kuydim", va "Vatanni o'rganish" va "So'z yo'li" turkumlari ana shunday o'ziga xos izlanishlar samarasidir.

Sirojiddin Sayyidning o'ziga xos uslubi, ijodiy manerasi uni boshqa shoirlardan ajratib turadi. Unig she'riyatida milliy o'ziga xoslik, xalqchillik bo'rtib turadi.

Sirojiddin Sayyid ijodi xalqimizning Milliy uyg'onishiga xizmat qiladi. Shoirning badiiy iste'dodi uning ruhiy olamidagi qudratli kuchlar – xalqchillik, insonparvarlik, adolat va haqiqatga xizmat qilish istagi, vatanparvarlik, millatsevarlik ideallariga sadoqati va fidoyiligida yaqqol ko'rinadi.

Bu narsa, birinchidan, she'riyatimizda quruq ta'rif-tavsif, madh-sano, haybarakallachilikdan iborat fikrsiz – qashshoq asarlarning kamayib borayotganligida ko'rinadi. Hamroz, darddosh do'stlar singari samimiy dilkashlik

ohangining kuchayishida, publitsistik ruh ila omuxtalashgan falsafiy teranlik salmog'ining ortishida Sirojiddin Sayyid lirikasining ahamiyati oshmoqa.

Ikkinchidan, Sirojiddin Sayyid she'riyatining ana shunday ma'naviy yorug'likka, badiiy-estetik ta'sir quvvatiga ega bo'lishi, asosan, quyidagi omillar bilan xarakterlanadi. Xususan, davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalarini dadil aks ettirish layoqati mutafakkir insonning tafakkur madaniyatini yuksaltirishga, intellektual salohiyatini boyitishga, ana shu jarayonda o'zligini ham namoyon etishga katta imkoniyatlar berdi. O'z navbatida, yuksak insonsevarlik, vatanparvarlik singari gumanistik prinsiplarning zuhur topishi hisobiga Sirojiddin Sayyid lirikasi nurli fazilatlariga erishdi. Bular zamondoshlarimizning badiiy-estetik didini yanada o'stirishi, ma'naviy-intellektual saviyasini yuksaltirishi, xarakterini yangi-yangi xususiyatlar bilan toblashiga, ma'naviy-axloqiy muammolar talqiniga ko'ra shoir lirikasi katta ijtimoiy kuchga ega ekanligidan shahodatlik beradi. Demak, Sirojiddin Sayyid badiiyati o'zi yashab turgan zamonning qon tomiri urishini doimo sezib turadi. Ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy muammolarga bashariy qadriyatlar nuqtai nazaridan javob topishga moyillik ko'rsatadi.

Shoir estetikasida she'riyat –go'zallikdir, go'zallik esa – haqiqatdir, vatan muqaddas va abadiy ma'vodir, inson esa o'tkinchidir. Ijtimoiy adolat boqiy go'zallik shakllaridan biridir, degan gumanistik konsepsiya yetakchilik qiladi. Qachonki, inson o'z vatanini chin dildan sevsa, o'z xalqini qalbdan sevsa, umrini vatani, xalqiga bag'ishlasa, bunyodkor faoliyati bilan go'zallikning umrini uzaytirar ekan, o'z baxtini ham poydor etadi. Sirojiddin Sayyid lirikasining bosh qahramoni – donishmand inson shaxsning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy baxti ko'ngil ma'rifati bilan tutash, deb biladi. Eng muhimi, u o'zligini bilishi, tanishi va dunyoga tanitishi shaxsiy iqboligina emas, yana ijtimoiy baxti hamdir, deya uqtiradi. Bu esa, shoir estetikasi o'z davri – XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi xalqimizning ijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Zotan, insonning shaxsiy va ijtimoiy baxtga yetishishi ko'ngil ma'rifatining davr va jamiyat ma'naviyati bilan bog'liqlikda talqin etadi. Bu –

Sirojiddin Sayyid hissiy-intellektual lirikasining umumshe'riyatimiz taraqqiyotiga olib kirgan sifat o'zgarishlari sirasidandir.

Uchinchidan, Sirojiddin Sayyidning yangi mazmunga ega bo'lgan lirikasining maydonga kelishi bir qator obyektiv hamda subyektiv omillar bilan xarakterlanadi. Xususan, bashariy qadriyatlar manfaatiga qaratilgan teran Sharq falsafasi, ming yillik tarixga ega bo'lgan mumtoz she'riyatimizdagi umumgumanistik g'oyalar talqini, xalq hikmati, Bedil, Umar Xayyom, Navoiy, Bobur, jahon badiiyati tajribasi, olam va odam sir-sinoatlarini, XX asrni tuyishga hamda tushuntirishga qodir insondir. Uning yangi tafakkur madaniyatidir.

To'rtinchidan, Sirojiddin Sayyidning she'riyatining bosh qahramoni – odamzotni sirli mo'jizakor xilqat deb biladi. Inson – boqiy qadriyatdir, deya mehr-e'tibor ko'rgizadi. Inson – benazir qadriyat ekanligining bosh belgisi, bu – tabiat tomonidan ehson etilgan noyob layoqat – tafakkur madaniyatidir. Bahrul muhitda hayot nish uribdiki, inson aqlini tanibdiki, ushbu nodir iste'dodini jilolantirib, yangi-yangi imkoniyatlarini namoyon etib kelmoqda. Sirojiddin Sayyid she'riyatining lirik qahramoni tafakkur tabiatida hayot va o'lim, inson va tabiat, umrning oniy lahzalari va boqiylik masalalari talqini qanday rang va bo'yoqlarda zohir bo'ladi?

Inson xotiralarda yashaydi. Bolalik samimiyati va bug'uborligini saqlab qola bilishlik, bu – she'riyatning ma'naviy-estetik asosidir, degan konsepsiya Sirojiddin Sayyid lirikasining bosh qahramoni fikr-mulohazalarining o'zak-mag'zini tashkil qiladi. Shoir ushbu fazilatlarni saqlab qolishi va namoyon etishi orqali Vatanga, odamlarga bo'lgan adoqsiz mehr-muhabbatini nafaqat asrab qoladi, yana shuningdek, insonparvarlik xislat-xususiyyatlarini ham ko'z-ko'z etadi. Shoir qalbining qartayishi esa, o'lim bilan barobar. Shoir jisman keksaysa ham, ma'nan zinhor keksayish bilmaydi. Ijodidan hayotdek navqironlik tarovati yog'ilib turadi. Ushbu omil yoshlikka xos betakror tuyg'ular tiniqligi, his-kechinmalarning samimiyligi, odamlarga munosabatdagi qalb bokiraligi bilan belgilanadi.

Bu ko'cha, bu hovli, bu uy, bu tandir

Bir kun seskanadi, sassiz siqtaydir:

O'n yil g'oyib bo'lgan olapar qaytdi!

Bolalik qaytmadi. Qaytmadi.

Qoldirib ketdimmi uni dashtlarga?

Yoki topshirdimmi shiddat, shashtlarga?

Bo'zlab chorlasam-da, bitib xatlarga

Bolalik qaytmadi. Qaytmadi.

Qaldirg'ochlar qaytdi. Toylar ot bo'ldi.

Yurtning tog'u toshi menga yod bo'ldi,

«Uh» deganim mening xotirot bo'ldi,

Bolalik qaytmadi. Qaytmadi...

Tiriklikning o'zi buyuk inoyat, - deydi lirik qahramon. Uni farzona o'tkazishga harakat qilgin, zero, o'tganlarning eng komil bayti dunyo topiladi, odam topilmaydi. Umr o'tgan sari yana ham go'zal, yana ham jilvagar ko'rinar hayot. Inson ko'zi ochiq ekan, ko'z quvnab, dil yayraydigan go'zalliklar yaratarkan, hayot selobida mamnun oqaman, deya shukronalik tuyadi.

Sirojiddin Sayyidning poetik obrazlari tabiatini musiqiylikdan, emotsionallikdan ko'ra ko'proq hissiy-tafakkur belgilayotir. Zamondoshlarimiz ma'naviy hayotining rangin manzaralari mazmunini, go'zalligining mohiyatini xarakterli kartinalarda chizadi. Ana shu jarayonda tabiat kartinalari, holatlari va xossalari inson hayotining go'zalligini namoyon etishda fon sifatida emas, bevosita mohiyati tarzida gavdalanadi. Negaki, inson tabiatdan andoza olib, tabiatga monand aqiq go'zalliklar yaratish ishq, shavqi bilan yashaydi, mehnat qiladi. Lirik qahramon “ Men ishq elining nolayu afg'onida kuydim, Ko'ngil uyining otashi armonida kuydim. Mehrin tilabon o'tsa agar oshiqi zorlar, Mehrimni berib men esa tovonida kuydim” deyishining boisi ham shundan.

Beshinchidan, shoir she'rlarida tajassum topgan zamondosh haqidagi gap, avvalo, bizning o'zimiz xususidagi gapdir. Lirik qahramon – mutafakkir insonning emotsional-intellektual manbai obyektiv jihatdan hayot bo'lsa, subyektiv jihatdan

shoirning o'zidir. Shoir o'z lirik qahramonining yaratuvchisi; unga jon bag'ishlaydi. Lirik qahramon shoirdan oziqlanadi. Ilmda, hissiy boylikda, oliyjanoblikda shoir ko'nglining ma'naviy-intellektual ko'zgusidir. Sirojiddin Sayyid dilidagi borini mutafakkir insonga bera olgan.

Adib estetikasida she'r yozishlik hamma vaqt mas'uliyatli masala deya anglashiladi, tushuntiriladi. Shoir she'riyatining lirik qahramoni Sirojiddin Sayyid shaxsiyatida mujassamlashgan ma'naviy-intellektual dunyoning she'riyatdagi ko'zgusidir.

Oltinchidan, hayot, ijtimoiy voqelik ko'rsatgan ta'sirga ko'ra shoir qalbi har xil o'y-fikrlar buhronida qoladi; turfa xil kechinmalar og'ushiga cho'madi. Demak, ijodkorning tafakkur tarzi – hissiy idrok va ifoda madaniyati orqali Sirojiddin Sayyidning estetik didi ham ayonlashayotir. Xarakteri, ongi-dunyoqarashi bilan bir qatorda voqelikni talqin qilishdagi badiiy konsepsiyasi ham namoyon bo'ladi. Ijodkor tafakkur madaniyatining o'ziga xos individualligi hayot materialining mazmuniga, shoirning g'oyaviy-estetik munosabatiga, va ushbu jarayonda ro'y beradigan emotsional holatlari va nihoyat, tasvir etilayotgandagi o'y-fikrlari orqali belgilanadi. Badiiy tahlil yo'sini voqelikning o'zgarishiga qarab rang-baranglik kasb etadi. Badiiy-estetik niyat taqozosiga ko'ra barcha tasviriy vositalar ana shu ruhiy dramaning xarakterini ochishga bo'ysundiriladi. Sirojiddin Sayyid lirikasida predmet jiddiy va salmoqdor bo'lganligi uchun poetik tadqiqot yo'sini ham shu tarzda og'ir tabiatli, sermushohadakor, o'ychan va teran fikrlar og'ushida qoladi. Shu ma'noda, poetik tadqiqotchilik madaniyati shoir shaxsiyatiga monand o'ychan tarzda kechadi. Demak, tafakkur tabiatining betakrorligi, shoirning ijodiy individualligi uning shaxsiyatidan boshlanadi.

Shoir she'riyatining lirik qahramoni timsolida shoir idealidagi xislat-fazilatlar singdiriladi. Bu esa uning individualligini belgilab beradi.

Demak, Sirojiddin Sayyid lirikasi insonni himoya qilishga, tarixni tarixiy siymolarni ulug'lashga, vatanni sevishga, milliy madaniyat va axloqni, inson shaxsi va sha'nini olqashga, ulug'lashga yo'naltirilgan qutlug' mayli bilan XXI asr o'zbek badiiy madaniyatida salmoqli o'rin tutadi. Umumbashariy mavzu-

masalalarni shaxs va jamiyat psixologiyasi bilan omuxtalikda, o‘zaro uyg‘unlikda badiiy tadqiq va talqin etishdagi xalqona hikmatga yo‘g‘rilganligi ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Badiiy-estetik ta’sirchanligini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 2000. - 352 b.
2. Aristotel. Poetika. Ob iskusstve poezii. – M.: GIXL, 1957. - 184 s.
3. Aliyev B. Hozirgi zamon o'zbek she'riyatida psixologizm muammosi (70-80-yillar): Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 1994. - 20 b.
4. Adabiyotimizning yarim asri. 1-kitob. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Badiiy adabiyot, 1967. - 552 b.
5. Adabiyotimizning yarim asri. 2-kitob. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Badiiy adabiyot, 1975. - 552 b.
6. Adabiyot va zamon. Maqolalar, adabiy o'ylar, suhbatlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1981. - 318 b.
7. Asqad Muxtor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent, 2003. 197 b
8. Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati. – T.: Adabiyot va san'at, 1967. 228 b.
9. Akramov B. She'riyat gavhari. Lirikada obraz muammosi. – T.: Adabiyot va san'at, 1979. - 168 b.
10. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – T., 1997. - 20 b.
11. Boboxo'jayev N. Badiiy niyat va lirik ifoda. – T.: Adabiyot va san'at, 1977. - 198 b.
12. Gegel. Estetika v 4-x tomax. – M.:Iskusstvo, 1968-73.
13. Gegel. Estetika v 4-x tomax. T. 1. – M.:Iskusstvo, 1968. - 312 s.
14. Gegel. Estetika v 4-x tomax. T. 2. – M.:Iskusstvo, 1969. - 326 s.
15. Gegel. Estetika v 4-x tomax. T. 3. – M.:Iskusstvo, 1971. - 621 s.
16. Gegel. Estetika v 4-x tomax. T. 4. – M.:Iskusstvo, 1973. - 676 s.
17. Ginzburg L.Y. O lirike. Izd. 2-ye. – L.: Sov.pisatel, 1974. - 407 s.
18. Grinberg YE. S. Tri grani liriki. Sovremennaya ballada, oda i elegiya. Izd. 2-ye. – M.: Xud.lit., 1985. - 397 s.

19. Yoqubov H. Saylanma. Ikki jildlik. 1-jild. Adabiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san’at, 1983. - 367 b.
20. Yoqubov H. Saylanma. Ikki jildlik. 2-jild. Adabiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san’at, 1984. - 361 b.
21. Karimov N. Hamid Olimjon (shoir hayoti va ijodidan lavhalar). – T.: Yosh gvardiya, 1979. - 247 b.
22. Maqsud Shayxzoda. Xiyobon. She’rlar. – T.: Adabiyot va san’at, 1967. - 164 b.
23. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. - 420 b.
24. Mirzayev S. Hayot va adabiyot. – T.: Sharq, 2002. - 304 b.
25. Mirzayeva D. Poetik mantiq va badiiy tafsil. – Samarqand: nashriyotsiz, 1993. - 46 b.
26. Mirtemir. Tingla – hayot (sochmalar, qaydlar – esdaliklar, to‘yxatlar, sadolar). – T.: Adabiyot va san’at, 1974. - 264 b.
27. Mirtemir. Izlaganim. She’rlar. – T.: Adabiyot va san’at, 1975. - 144 b.
28. Mirtemir. Yodgorlik. She’rlar. – T.: Adabiyot va san’at, 1978. - 144 b.
29. Mirtemir. Do‘stlar davrasida. Adabiy o‘ylar. – T.: Yosh gvardiya, 1980. - 160 b.
30. Muxtor A. Yosh do‘stlarimga. Adabiy suhbatlar. 1-kitob. – T.: Yosh gvardiya, 1971. - 74 b.
31. Muxtor A. Yosh do‘stlarimga. Adabiy suhbatlar. 2-kitob. – T.: Yosh gvardiya, 1980. - 160 b.
32. Muxtor A. Ildizlar. Qissalar va hikoyalar. – T.: Yosh gvardiya, 1984. - 176 b.
33. Muxtor A. Uyqu qochganda... Tundaliklar. – T.: Ma’naviyat, 1997. - 32 b.
34. Muxtor A. She’r – shoirning ijtimoiy vijdoni // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. - 1984. - 20 yanv.

35. Muxtor A. Yangi davrning o'zi bo'ladimi? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. - 1986. - 24 yanv.
36. Normatov U. Yetuklik. Adabiy maqolalar. - T.: O'zbekiston, 1982. -365 b.
37. Oybek. Ko'ngil kuylari. She'rlar. – T.: Badiiy adabiyot, 1966. - 144 b.
38. Rasulov T. Badiiy asar qanotlari (obraz, obrazlilik, uslub). – T.: Adabiyot va san'at, 1977. - 178 b.
39. Rahimjonov N. Davr va o'zbek lirikasi. – T.: Fan, 1979. - 190 b.
40. Rahimjonov N. Shoir va davr. – T.: Adabiyot va san'at, 1983. - 184 b.
41. Rahimjonov N. Falsafiy lirika. – T.: Fan, 1984. - 36 b.
42. Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari. – T.: Fan, 1991. - 78 b.
43. To'rayev D. Davr va ijod mas'uliyati. -T.: Yangi asr avlodi, 2004. -128 b.
44. Umrzoqova N.T. Usmon Nosir she'riyatida ruhiyat tasviri: Filol. fanlari nomzodi ... diss.avtoref. – T., 2005. - 24 b.
45. Sharafiddinov O. Hayot bilan hamnafas. Adabiy o'ylar. – T.: Adabiyot va san'at, 1983. - 216 b.
46. Sharafiddinov O. Yillar va yo'llar / Adabiyotimizning yarim asri. – T., 1967. 1-kitob. – B. 164-244.
47. Sharafiddinov O. Ijodning katta yo'lida / Iste'dod jilolari. – T., 1976. – B. 153-182.
48. Shukurov N., Hotamov N., Xolmatov Sh., Mahmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: O'qituvchi, 1979. –B.181.
49. Qo'shjonov M. Onajonim she'riyat (Abdulla Oripov ijodi haqida). – T.: Adabiyot va san'at, 1975. - 42 b.
50. Qo'shjonov M., Meli S. Abdulla Oripov. Ijodiy portret. – T.: Ma'naviyat, 2000. - 136 b.
51. G'afur G'ulom. Viqor. She'rlar. – T.: Adabiyot va san'at, 1980 - 144 b.
52. G'afurov I. Yam-yashil daraxt. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – T.: Adabiyot va san'at, 1976. - 232 b.

53. Gʻafurov I. Lirikaning yuragi. Adabiy oʻylar. – Toshkent, 1982.-224 b.
54. Gʻafurov I. Yurak – alanga: (Adabiy-tanqidiy maqolalar.) – T.: Yosh gvardiya, 1980. - 296 b.
55. Gʻafurov I. Sheʼriyat – izlanish demak. Adabiy-tanqidiy ocherk. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1984. - 222 b.
56. Gʻulom H. Yillar, yoʻllar, ustozlar. Adabiy oʻylar. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1979. - 160 b.
57. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – T.: Fan, 2007.- 195 b.
58. Haqqulov I. Taqdir va tafakkur. – Toshkent: Sharq, 2007.
59. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-oʻzbekcha izohli lugʻati. – Toshkent: «Oʻqituvchi», 1979.
60. Xudoyberdiyeva H. Oq olmalar. T., 1973.
- 61 . Xudoyberdiyeva H. Yuragimning ogʻriq nuqtalari. T., 1991.
62. Sirojiddin Sayyid. Ruhim xaritasi. T.: 1985.
63. Sirojiddin Sayyid.Salqin xarsanglar kaftida. T.: 1987.
64. Sirojiddin Sayyid.Sevgi mamlakati. T.: 1989.
65. Sirojiddin Sayyid. Mehr qolur, muhabbat qolur. T.: 1990.
66. Sirojiddin Sayyid. Kuydim. T.: 1994.
67. Sirojiddin Sayyid. Vatanni oʻrganish. T.: 1996.
68. Sirojiddin Sayyid. Vatan abadiy. T.: 2001.
69. Sirojiddin Sayyid.Ustimizdan oʻtgan oylar. T.: 2003.
- 70 . Sirojiddin Sayyid. Dil fasli. T:., 2007.
71. Sirojiddin Sayyid. Soʻz yoʻli. 1-kitob. T., 2008.
72. Sirojiddin Sayyid. Soʻz yoʻli. 2-kitob. T., 2008.
73. Sirojiddin Sayyid. Yashasin yomgʻirlar. T., 2007.
74. U. Hamdamov. 90- va 2000-yillar oʻzbek sheʼriyatining asosiy tamoyillari. “Mustaqillik davri adabiyoti” nomli toʻplam. T., 2006.
75. Internet maʼlumotlari.

